

74.90
M 98

M.X. Muxamadaliyeva, Z.M. Zarifova,
A.A. Artikbayeva

OILA VA IJTIMOIY PEDAGOGIKA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Muxamadaliyeva Moxira Xikmatullayevna
Zarifova Zabarjadxon Muxammad qizi
Artikbayeva Aziza Abror qizi

OILA VA IJTIMOIV PEDAGOGIKA

O'QUV QO'LLANMA



Bilim sohasi:
Ta'lim sohasi:
Ta'lim yo'nalishi:

100000 – Gumanitar
110000 – Pedagogika
60110300 – Maktabgacha ta'lim
psixologiyasi va pedagogikasi



TOSHKENT – 2022

NIZOMIY NOMIDAGI
TDPU
AXBOROT-RESURS
MARKAZI

4-9539/1

Annotatsiya

O'quv qo'llanmada "Oila va ijtimoiy pedagogika" fanining predmeti, maqsad, vazifalari, dolzarb muammolari, uning fanlar tizimidagi o'rni atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismi. Ijtimoiy pedagogika funksiyalari, ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida milliy qadriyatlar asosida shaxsni shakllantirish, sharq va g'arb mutafakkirlari manbaalarida oila pedagogikasi fanining rivojlanishi, oila va ijtimoiy pedagogika faninig hozirgi kundagi ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma 60110300 – Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi talabalari uchun "Oila va ijtimoiy pedagogika" fani asosida tayyorlangan. Qo'llanmadan maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Аннотация

В учебном пособии подробно изложены предмет, цель, задачи, актуальные проблемы и ее место в системе наук. Также социальная педагогика является составной частью социальной философии. Функции социальной педагогики, развитие социальной педагогики как науки, формирование личности на основе национальных ценностей в организации дошкольного воспитания и семейного сотрудничества, развитие науки семейной педагогики в истоках восточных и западных мыслителей, представлена научно-теоретическая значимость науки о семье и социальной педагогике на сегодняшний день.

Учебное пособие подготовлено для студентов факультетов – 60110300 психология и педагогики дошкольного образования на основе предмета «Семейная и социальная педагогика». Пособие может быть использовано студентами, аспирантами, преподавателями, научными работниками, широким кругом читателей, интересующихся вопросами психологии и педагогики дошкольного образования.

Annotation

The textbook describes in detail the subject, purpose, tasks, current problems and its place in the system of sciences. Also, social pedagogy is an integral part of social philosophy. The functions of social pedagogy, the development of social pedagogy as a science, the formation of a personality based on national values in the organization of preschool education and family cooperation, the development of the science of family pedagogy in the origins of Eastern and Western thinkers, the scientific and theoretical significance of the science of the family and social pedagogy today is presented.

Methodical guide is prepared for students of psychology and pedagogy of preschool education on the basis of the subject "Family and social pedagogy". The manual can be used by students, graduate students, teachers, scientific workers, general readers interested in the field of psychology and pedagogy of pre-school education.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining birinchi – maktabgacha ta‘lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta‘lim ochiq turdagi ta‘lim muassasasi sifatida shakllandi; maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta‘limiga muvafaqqiyatli tayyorlash va boshqalar. Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta‘lim bosqichiga e‘tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlarga yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishni, fikrlashi, shuningdek, MTM larda ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Ushbu o‘quv qo‘llanma ta‘lim tizimiga oid qarorlar, farmoyishlar, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi, oliy o‘quv yurtlarida, “Oila va ijtimoiy pedagogika” fani o‘quv dasturining predmeti va metodlari, ta‘limning barcha bosqichlarida oila va ijtimoiy pedagogika fanining o‘quv dasturi mazmuni va vazifalari, o‘quv eksperimentining vazifalari, tekshirish metodikasi, o‘quv mavzularida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, maxsus metodlar orqali bilimlarni chuqurlashtirish, talabalarning har tomonlama qiziqishini va qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning mutaxassislik bo‘yicha yo‘naltirishni ko‘zda tutadi.

Fikrimizning dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlarini keltirish mumkin.

“Oila va ijtimoiy pedagogika” fanining maqsadi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun oila va ijtimoiy pedagogika fanining o‘quv dasturi fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ya‘ni pedagogik va axborot texnologiyalaridan, ko‘rgazmali vositalardan foydalana olish, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Muallif tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma 60110300 – Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2021-yil 28-avgustda tasdiqlangan “Oila va ijtimoiy pedagogika” fanining namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanmada oliy ta'lim tizimida "Oila va ijtimoiy pedagogika" fani darslarini to'g'ri va qiziqarli tashkil etishda ta'lim-tarbiya texnologiya nazariyasining mohiyati, uning shakllanishi hamda taraqqiyoti tarixi, afzalliklari, ta'lim jarayonining istiqbolini ta'minlashdagi muhim o'rni va roli, shuningdek, yangi pedagogik ta'limiy-tarbiyaviy texnologiyalarni ta'lim (maxsus o'quv fanlarini o'qitish) jarayoniga tatbiq etish shartlari xususida ham so'z yuritiladi.

O'quv qo'llanmada mustaqil tayyorlanish uchun nazorat savollari, test topshiriqlari, fanning asosiy tushunchalari, glossariy va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.



I-Ş.OILA VA IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Tayanch tushunchalar: *oila, oila pedagogikasi, fan, predmet, maqsad va vazifa, xalq pedagogikasi, metodlar, ilmiy-tadqiqot, tarixiy ildizlar, oilaviy tarbiya, tarbiya mazmuni, oila muhiti, pandnoma, falsafiy asar, ilmiy tadqiqot metodlari, adabiyotlarni o'rganish jarayoni, kuzatish metodi, suhbat metodi, tadqiqot natijalari, tabiiy eksperiment, tabiiy eksperiment, pedagogik eksperiment.*

Oila va ijtimoiy pedagogika fanining umumiy fanlar tizimida tutgan o'rni.

Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatning o'rni uning tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir. Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishiga xizmat qiladi, ta'lim– tarbiyaga doir bilimlarni mushtarak holda jamlab, farzand tarbiyasiga doir tartib qoidalarni sinovdan o'tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota – onaning faoliyatidir.

Oila pedagogikasining predmeti: Oilada ota-ona aniq maqsad qo'yib, o'z ustida ishlash, izlanish, tanlangan vosita va usullarni qo'llash natijasini ko'ra bilishi, tarbiyachilik san'atiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim–tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi;

- ✓ Oilada beriladigan tarbiya mazmuni;
- ✓ Oilada farzand tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar;
- ✓ Insoniyatning ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi;

- ✓ Oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatga amal qilish;

Oila pedagogikasining maqsadi oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratiladi.

Oila tarbiyasining vazifalari:

- ✓ Oila tarbiyasiga doir bir butun muammolarni hal qilish;
- ✓ Oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va davlatning ustuvor talablariga javob beradigan komil insonni tarbiyalash;
- ✓ Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan o'rinni foydalanish, pedagogik qonun - qoidalarga rioya qilish;
- ✓ Fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;
- ✓ Ilg'or oilalardagi muvaffaqiyatli ish uslublarini o'rganish;
- ✓ Ota-onalarning pedagog mutaxassislar bilan hamkorligini o'rnatish;
- ✓ Barkamol inson tarbiyasiga doir muammolarni hal qilish doimiy va hayotiy izlanishlarni talab etadi.

Oila va ijtimoiy pedagogika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi.

Oila pedagogikasining boshqa fanlar bilan aloqasi: Oila pedagogikasi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimga ega

bo'lmog' lozim. Oila pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir tizimi bo'lib u umumiy pedagogika qonuniyatlari asosida yaratilgan. Komil inson tarbiyasi juda ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi sababli hamma fanlar unga ko'makdosh bo'ladi.

Buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiy "Talhizu Navomis" ("Aflotun qonuniyatlarining mohiyati") asarida inson kamolotini falsafa fani ta'sirida rivojlanishini shunday ko'rsatgan edi: "Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odamlar bo'lishlari. qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish. ulardagi qoidalarni mustahkamlashdir".

Oila pedagogikasining tarixiy ildizlari: Xalq donishmandlarining oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: maqol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota –ona, oilaviy barqarorlik, o'zaro munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan:

"Ota – ona behad bo'ladi xursand, farzand bo'la olsa munosib farzand!" - Javhar Zamindar. *"Namozni homdoddin keyin volidangni ziyorat qil va xizmatida bo'l"* - Rushtiy.

Oila va undagi tarbiyaning usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda, Kaykovusning "Qobusnoma", "Saodatnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, "To'ti shohnoma", "Odobnoma" kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Mutafakkir va ma'rifatparvarlarning ijodiy faoliyatida oila muammosi asosiy o'rinni egallagan. Buning sababi bo'lajak oila pedagogikasi fanining mazmundorligini ta'minlovchi badiiy adabiyot, san'at asarlari, milliy meros va umumiy insoniy qadriyatlardir. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish ularning vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim.

Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali Ibn Sino maxsus "Tadbir al-manozil" nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bola tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan. Asarda ota-onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oiladamehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalarga keng o'rin berilgan. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama: yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak.

Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi - uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish deb hisoblagan edi olim. Yusuf Xos Xojib "Qudatg'u bilig" asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini birma-bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolaning mas'uliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida otaonaning mavqei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda farzandlari xulq-atvoriga qarab ota-onalariga baho berilishini aytib ulami ogohlantiradi.

Mirzo Ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallashi uqtiriladi. Shunday ekan, avvalambor, bola tarbiyasida oila muhitini to'g'ri tashkil qilish dardkor. Unsurulmaoniy Kaykovus "Qobusnoma" pandnomasida "o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim, sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir" deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga, e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Ota-ona o'z farzandi uchun hatto o'limga ham tayyorligini ta'kidlaydi.

Har bir farzand oqil va dono bo'lsa, ota-ona mehrrmuhabbatini ado etmakdin bosh tortmaydi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy "Odob as-solihan" asarida uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo'lgan qizini ko'rmog'i, uylanadigan qizining bokira bo'lmog'i hamda to'rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va to'rt narsada, husn-jamolda, xulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega.

Davoniyning fikricha: "Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan xulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yeish-ichish, o'z qilmishi uchun mas'uliyatni sezish, shirinsuxan bo'lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim". Ro'dakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotida ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Aksariyat odamlar, hatto ma'rifatli zotlar ham farzardlari tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi. Buning uchun, oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari, albatta, ota-onasidir.

Ma'rifatparvar Munavvarqorining "Oila a'zolari" nomli darsligi bo'limlarida ota-onani hurmatlash, aka-uka, qarindosh-urug'ini e'zozlash kabi g'oyalar alohida o'rin egallaydi. "Kishining bor ersa ota-onasi g'animatdir unga olarning rizosi. Xudoni qoshida qabul ekandir ota va onaning bolaga duosi." Oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldidagi javobgarligi kundan-kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog'langandir.

Abdurauf Fitrat 1916 yilda "Oila" nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, unda oilaviy hayot islohotidan baxs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib, xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan. Fitrat oilaning ijtimoiy vazifalarini "Avlod tarbiyasi", "Fikriy tarbiya", "Axloqiy tarbiya" kabi qismlarga bo'ladi. Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, ilqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim. Oila odamzod o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan eng muhim sohadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ma'lum ma'noda izzat-hurmat va dildan ishonch kabi chegara bo'ladi. Oilada bolalarning o'zga bir oilada yotib qolishiga hech bir holda sira yo'l qo'ymasligi kerak, bola yotib qoladigan joy aniq, tanish va ishonchli bo'lgan taqdiridagina istisno bo'lishi mumkin.

Oilada farzand yaxshi tarbiyalansa, ota-onaning baxti, yomon farzand esa ota-onaga kulfat keltiradi. Oila va jamoatchilik hamkorligi yosh avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Ota-ona e'tiborga oladigan, alohida ahamiyat berishi kerak bo'lgan narsa bolani yoshligidan boshlab biror-bir ishga o'rgatish, unga o'ziga xos yumush berib, ishga odatlantirishdir. Vaholangki, bola ham ish o'rganadi, ham jamiyatda, oilada o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bolada mehnatga munosabat, ota-onasiga munosabat, oila a'zolariga nisbatan fikri, dunyoqarashi o'zgaradi. Oila boshlig'i ota – ona bola tarbiyasi haqida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Agar ularda yetarlicha bilim, ko'nikma va malaka bo'lmasa, u oila a'zolari, ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga hos bo'lmasdan, balki qo'ni-qo'shni va mahalladagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Oila va ijtimoiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari.

Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari: Ilmiy tadqiqot metodlari tadqiqotchilar tomonidan ko'proq oilaviy muammolarni hal qilish maqsadida olib boriladi. Oilaviy muammolarni o'rganish uchun dastlab manbalarga murojat etiladi. Shu jihatdan dastlabki metod:

✓ ***Adabiyotlarni o'rganish metodi.*** Oila pedagogikasiga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, badiiy va ommaviy adabiyotlarni o'rganish;

✓ ***Kuzatish metodi.*** Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishda ota – onaning biror maqsadini ko'zda tutib tashkil etiladi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish, qisqa kuzatish ob'ektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish - qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinos'yomka, video yozuvi, televideniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv – tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

✓ ***Suhbat metodi.*** Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma'lum mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodasiga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab jadval tuzib, natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu ham olish mumkin. O'rinni, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

✓ ***Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi*** deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar

soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarini EHMda qo'llab matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'lanishlar va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

✓ **Pedagogik eksperiment** har qanday ilmiy – pedagogik tadqiqotning asosidir.


Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi.

Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperiment asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida yangi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar va hokazolar odatdagi o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi.

Pedagogik eksperiment – bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo'ladi. Pedagogik jarayonda aniqroq o'rganish uchun eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarini, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishini talab etadi.

Laboratoriya pedagogik eksperimenti ilmiy tadqiqotning qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalari aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'rnini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi.

Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi:



➤ **Rejalashtirish** eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

➤ **Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish** belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- ❖ Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi;
- ❖ Tadqiqot metodlarining ishonchliligi;
- ❖ Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.

Turli metodlar ishning samaradorligi va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlar hamda hisoblash – yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridian, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat hatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chiqiladi.

➤ **Ilmiy tadqiqot natijalarining amalda qo'llanishi.** Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llashdir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda. Bu qiyinchiliklar oiladagi tarbiya jarayonini takomillashtirish usullari haqidagi bilimlarning ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmuni aniqligi asosiy talablar qatoriga kiradi.

Talablar mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallagan kuch-g'ayrati mezonini to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etishbutun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan hulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilish, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish, metodik yo'l – yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

✓ **Oila shajarasini o'rgatish, tahlil qilish metodi** – pedagogika hodisalari va faktlarini tekshirishda oilaning kelib chiqish tarixini mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. Oila haqidagi ma'lumotni tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i lozim.

✓ **Bolularning ijodiy qobiliyatini o'rganish metodi** – oilada bolalarning ijodini hamda turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyati, olijanob axloqiy qiyofasi, estetik didi, sinchkovligi va qiziquvchanligi bilan ajralib turadilar. Ta'lim qonunida va milliy dasturda pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning tugri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

✓ **Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi** – pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish mustaqil O'zbekistonda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

✓ **Anketalar metodi** – oila a'zolari va bolalardan so'rash usuli bo'lib, u oila jamoasining ma'lumotlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo'naltirishni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmoq'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqmog'i lozim.



Nazorat savollari:

1. Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Oila pedagogikasining tarixiy va ma'naviy ildizlari qanday?
3. Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning o'ziga xosligi haqida so'zlab bering?
4. Pedagogik eksperimentning bosqichlarini sanab bering va ta'riflang?
5. Ilmiy tadqiqot natijalarining amalda qo'llanishi deganda nimalarni tushunasiz?
6. Anketa metodi qanday tartibda o'tkaziladi?
7. Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi nimalardan iborat?
8. Bolalarning ijodiy qobiliyatini o'rganish metodiga ta'rif bering?



2-§. SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI MANBAALARIDA OILA PEDAGOGIKASI FANINING RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: *O'rta Osiyo, oila, "Qur'oni Karim" va hadislar, "Avesto", mustaqillik yillari, bola tarbiyasi, umuminsoniy g'oyalar, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, islomiy ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, musulmonchilik talablari, ilohiyot nuqtai nazari, izchil qarashlar, mehnatsevarlik, oilaviy tarbiya, qadimgi yunon faylasuflari, sharq mutafakkirlari, musulmonchilik talablari, ilohiyot nuqtai nazari, izchil qarashlar.*

Qadimgi davrlarda oila va ijtimoiy pedagogika haqidagi qarashlar.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida ajdodlar tomonidan to'plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida ilmiy bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi.

Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq-odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, tahlil qilish g'oyatda murakkab bo'lib, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolat-u diyonat, hayo-yu iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir xalqning

nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloq odobi. yaxshi xislat-u fazilatlarini bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlarini bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra bola tarbiyasi bilan, asosan, davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo, Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan, asosan, ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi. shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi. U yuqoridagi fikrni davom ettirib, *"Inson mehnati tufayli nafaqat o'zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo'lgan muhabbat ham paydo bo'ladi. Zotan, har bir inson o'zi o'sib-ulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yashshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak"*.

Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zini emas, balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatani seva olmasligi tabiiy.

Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" va Hadisi shariflarda oila tarbiyasi masalalari.

Qur'oni Karim, hadisi shariflarda oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o'rtaga qo'yilsada, ular kishilarning turmush tarzi, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham kundalik turmushga muvofiqdir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy g'oya bilan bog'liq.

Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiqishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikka e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylik, ezgulik va yaxshilikka da'vat etgani uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlargagina xos diniy qadriyat bo'lib qolmay, balki umuminsoniy qadriyatdir.

Ma'rifatparvar o'zbek pedagoglarining oila va ijtimoiy tarbiya xususidagi qarashlar.

Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir. Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, *"Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli"*. Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: *"Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim"*. Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: *"Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Eringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta'qiqalayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. O'zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo'y atirlardan foydalangin. Ularning ichida eng yaxshisi suvdur"*. Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga taalluqlidir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rta tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartibli mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni tanani toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligining bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-axloqiy boylik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga, asosan, bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali 3 narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiradi.

Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat, muhit va tarbiya ta'sirining birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon diniy talablaridan kelib chiqqan holda yondashadi. Axloqiylik yaxshilik va

yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o'z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi. Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi.

Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasi uchun qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglolmagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi.

Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir, ya'ni o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", degan fikrni bildiradi. Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada – deydi u, *oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin*". Bola yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi.

Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino "Tadbiri al-manozil" asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiriladi. Ibn Sino oilada bolani ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, otanalarni farzandlariga kasb - hunar o'rgatishgachaqiradi, mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa, ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u, *unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ygan bo'lsa, bolada gunoh yo'q. Barcha jafo otaning o'zida; o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin*". Yusuf Xos Hojib o'z asarida shunday fikrlarni o'rta tashlaydiki, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi.

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madomi, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum, odat va irodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak bo'ladi. Bu narsa ta'lim-tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Uning bu tarzda pedagogik qarashlari bitta asosiy masalaga borib taqaladi. Bu barkamol inson masalasidir. Inson, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy vazifasi mutafakkir tomonidan turli jihatlarida tahlil qilinadi. Odam bolasi bu yorug' olamda ezigulik qilish uchun yaratilgan.

Shunga ko'ra uni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga odamlar uchun yaxshilik qilish tuyg'usini singdirishdan iborat. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir. Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurluma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. "Qobusnoma" falsafiy-didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. "Qobusnoma"da otaonaning qator vazifalari sanab o'tiladi.

Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ Bolaga yaxshi ism qo'yish;
- ✓ Oqil va mehribon enagaga topshirish;
- ✓ To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
- ✓ O'qish – yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish;
- ✓ Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglidagina qolmasin". Kaykovusning "Qobusnoma" asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy - axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi. A.Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin, - deydi Navoiy, - oilaning davlati va baxti, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa – ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa - jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi". A.Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarning bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yaxshi va

yomon xulqlar va ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarning oldi olinmasa, bora bora illatga aylanadi. – deb uqtiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, Sharq murafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgari ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Ular bizning ma'naviy qadriyatimizdir. Shunga ko'ra mutafakkirlarning o'lmas marosi oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida muhim omil bo'lib qoladi.

O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar natijasida jamiyatimiz ijtimoiy hayotida mazmunan boy ishlar qilindi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev va hukumatimiz oilani jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy-maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi:- *“Bola tug'ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”*. Bu o'rinda ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash, yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir.

Oilalar tarbiyasi deganda ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva-buvilar, aka-opalar tomonidan bolalarning to'g'ri milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Ota-ona, aka-opa va boshqalarning o'zaro muomala munosabatlariga, xulq-atvoriga bog'liq. Xalqimiz:- *“qush uyasida ko'rganini qiladi”*- deb bejiz aytmagan. Oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu – onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa, oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalari tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra, bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir xalqimiz:- *“Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi”*- deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq-odob aqidalari bola ruhiga ko'proq ona suti bilan kiradi. Yosh niholning to'g'ri yoki egri o'sishi bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liq. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'ymasa, u noto'g'ri o'sadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir o'xshashlik mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, axloq-odob me'yorlari: kattalarga hurmat, kichiklarga shavqat, xalollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va shu kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to'kinligi, so'ng xalq farovonligini ta'minlashda ko'rinadi. Uning barcha faoliyati shu olijanob tuyg'u bilan uyg'unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Turmushning hamma qiralari mehnat bilan ravshanlashadi.

Shuningdek, mehnatkash inson har sohada o'z yo'lini topa oladi. Oilada bolaga ma'naviy axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarni hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvoriga o'rgatish, ularda ijobiy xatti-harakatlar ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat. Axloqiylik oiladan boshlanadi deb yuqorida ko'rsatib o'tdik. Inson dunyoga kelishi bilan o'zini o'rab olayotgan muhit ta'siriga tushadi, atrofdagi voqea-hodisalarga bog'liq bo'ladi. Chaqaloq gapira olmaydi. Bu tabiiy holat. Ota-onalarimiz bobo-momolarimizdan, biz esa ota-onalarimizdan, farzandlarimiz esa bizdan o'rganadilar.

Avlodlar vorisligi ham ana shundan kelib chiqadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, avlod-ajdodlarimiz axloqiy fazilatlarni bir-birlariga o'rgatib, bir-birlaridan o'rganib kelgan. O'zbekona, milliy axloqda ota bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doim madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofati ila milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Chunki, bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dillarimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirilib kelar edi. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish oilaviy tarbiyamiz uchun ob'ektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Birgina misol: o'zbeklarda *"har bir avlod o'zining etti pushtini bilishi kerak"* degan odat bor. Buning zamirida nasl-nasabning tozaligi va pokligini saqlashga da'vat bor. Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida yozadi: *"Kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim sog'liq jismonan kamolotini aniqladim barcha qusurlardan holi bo'lsagina kelin tushirdim"*. Bu so'zlarda o'z qonining tozaligini saqlash, uning aynishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olishga intilishini ko'rish mumkin. Zero, qondagi, ruhdagi aynish – millatning ming yillik qadriyatlarini nobud qilishi mumkin.

Xalqimizda shunday axloqiy qoidalar mavjudki, ular o'zbekligimizni namoyon qilib, qadrimizni boshqa xalqlar oldida ko'tarib turadi va milliy o'zligiga xosligi bilan ajratib turadi. Oilada bolaning ongiga go'dakligidanoq o'z g'alar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, jamiyat manfaati shaxsiy manfaatdan ustuvor ekanligini uning ongiga singdirib borish muhimdir. Oilaviy tarbiya mahorati bolada uni o'rab turgan dunyoni fuqaro va vatanparvar sifatida ko'rish va anglab etishni o'rgatishda ko'rinadi. Toki, bola o'z atrofida, o'z yonida bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq qaramaydigan bo'lsin, bolaligidanoq boshqalarning quvonchi va tashvishiga sherik bo'lsin, ko'nglidan o'tkazsin. Shunda boladagi fuqarolik hissi axloqiy qadriyat sifatida uning tabiatiga singib ketadi. Fuqarolik hissini bola ongida shakllantirish, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning bugungi kungi asosiy mezonini bo'lib qolayotganligini to'la his qilish oilaviy tarbiyada muhim ahamiyatga egadir.

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, jumummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati, va nihoyat, oilaviy hayotning tashkil etilishi dan iborat.

U-9539/1

Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagilardan iborat:

➤ Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, otalar esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishi shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar. ammo ular, asosan, erkaklar nazoratida bo'lgan;

➤ Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham hurmat qilishni o'rgatishlari zarur;

➤ Ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la his qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik etishmaydi. Zotan, oilaviy tarbiya, avvalo, ota-onalarning o'zlarinio'zlari tarbiyalashi demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir ob'ekti va sub'ektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday ob'ekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib yeta olmaydilar;

➤ Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;

➤ Har bir ota-ona bolasining barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdordir. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmashligi lozim;

➤ Ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'g'itlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rmini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarining tarkib topishida oiladagi o'zaro ahillik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman, sog'lom axloqiy muhit muhim ahamiyatga ega;

➤ Oilada bolalarni sevish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularning izzat-nafsigaga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir;

➤ Har bir oilada uning o'ziga xos an'analar mavjud bo'lib, bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan, oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh-urug'lar holidan xabar olish va hokazolar;

➤ Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonadagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

Shunday qilib, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir qilish omillari mavjud. Bulami hisobga olmasdan turib, bola tarbiyasini oilada yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim. Ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi. Zotan, ota-ona bolalari uchun aziz va muqaddas kishilardir.

Shu sababli ularga taqlid qiladilar, ularga o'xshashga intiladilar. Oiladagi tarbiyaning yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi. Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatning ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda va qonuniy tarzda xalq ravnaqiga yo'l ochdi, mustaqillikni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Natijada bu tarixiy jarayonlar oilada bola tarbiyasida ham o'z aksini topa boshladi. Buning uchun ota-onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat o'zgarmog'i lozim. Ular bolalarni ota-bobolarining pand-nasihatlarini, o'gitlari, tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalab kelganlar. Ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha yetib kelgan. Lekin hozirgi kunda o'zbek oilalarida bola tarbiyasi borasida salbiy holatlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, ayrim ota-onalar farzandlarining bemehrligidan nolishadi. Yomon yo'lga kirib ketgan farzandlari xususida ko'pchilik ota-onalarning fikrlari bir xil: *"o'z bilganidan qolmaydi, hurmat qilishni bilmaydi"*. Xo'sh, o'sha bemehr bolaning otasi yoki onasini tarbiyali desa bo'larmikan? Ishdan so'ng, dam olish kunlari ota choyxonada, ona mehmondorchilikda bo'lsa. Ayniqsa, ota ham, ona ham "ishbilarmonlik"ka sho'ng'ib ketib, go'yo bola haqida tinmay qayg'urib, boshini har eshikka urayotgan bir paytda, oilada bola tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi? Tarbiyasi og'ir bolalarning ko'payib borayotgani sir emas.

Buning ichki va tashqi sabablari mavjud. Ota-onasi, qarindosh-urug'i bo'la turib, gohida bolalar "bolalar uyi"ga topshirilmoqda. Qachondan beri bizning xalqimiz "bolalar uyi" degan atamani qo'llay boshladi? "O'nta bo'lsa o'rmi boshqa" deya bir etak farzandni tarbiyalab voyaga etkazgan ota-bobolarimizning siri nimada ekan? Ko'p bolali bo'lish, bolajonlik qilish o'zbeklarga xos milliy xususiyat hisoblanadi. Bugungi kunda ana shu milliy xususiyat kelajak avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda juda qo'l keladi. Negaki, oilada aka ukasini, opa singilisini yetaklab katta qiladi, bilganini o'rgatadi. o'sib-ulg'ayganlarida esa bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir-biriga yordam beradi. Shaxsda jamoatchilik hissini shakllantirish ana shu ko'p bolali oilalardan boshlanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p bolali oilalarda ko'pincha mehnatsevar, o'zaro inoq va aqlli, hushli, odobli farzandlar o'sar ekan. Keyingi vaqtlarda jamiyatimiz hayotida ayrim salbiy holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan serg'alva sharoitda ayollarimizning ma'lum qismi, tog'ni ursa talqon qilgudek erlari uylarida turib, "ishbilarmonlik" bahonasi bilan shahrima-shahar turli-tuman ashyolarni sotib yurishmoqda. Hatto, sarson-sargardon bo'lsalar ham ayrim xorijiy mamlakatlarga ham "sayohat" qilib borib kelyaptilar.

Ularning ayrimlari yengil-yelpi yo'llarga kirib ketyapdilar. Bu bilan o'zbek ayollari nomiga isnod keltirmoqdalar. Ayrim ayollarimiz "gap" o'ynashib, tonggacha maishatga berilib ketayotganliklari, mehmonxonalar atrofidagi yengil oyoq ayollarning qilmishlari jamiyatimizning ma'naviy-axloqiy muhitini buzmoqda. Ana shunday yengil-yelpi hayot kechirish – "ishqi" bilan yashayotgan bunday ayollarning uylarida qolgan farzandlarining tarbiyasi nima bo'ladi? Murg'ak qalbi, jajji vujudiga nopoklik, xaromxo'rlik ilk bor ona suti bilan birga kirgan begunoh go'daklar kelajakda sog'lom fikrli, ma'naviy-axloqiy inson bo'ladilar deb hech kim kafolat bera olmaydi. Ana shunday "yumushlar" bilan band bo'lgan ayollarimiz kasofati tufayli gulday oilalarning buzilib ketishi, g'aribxona hamda etimxonalarning ko'payishi, ayollarning onalik huquqidan mahrum bo'lishi, mayib-majruh, aqlan va jismonan nosog'lom, nogiron farzandlarning dunyoga kelishi kabi hollar sodir bo'lmoqda. Bola tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Agar shunday qilinsa, uning kelajagi barbod bo'ladi. Shaxsning ma'naviy tubanlashuvi nafaqat uning zurriyotiga zarar keltiradi, balki yon-atrofdan nosog'lom muhit paydo bo'lishiga olib keladi.

Chunki har qanday odam o'z naslining davom etishi ko'p jihatdan farzandlariga bog'liq ekanligini yaxshi biladi. Unga ijobiy ma'noda katta ahamiyat berilishi esa farzandlarning salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldini oladi. Har bir ota-onaning obro'si ma'lum bir ma'noda farzandlarining kamolotiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra oilani mustahkamlashga astoydil kirishgan va o'z naslini pok saqlagan millatninggina istiqboli porloq bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor bermagan jamiyat, oila oxir-oqibatda ma'naviy qashshoq bo'lib qolaveradi.

Urf-odatlarimizga ko'ra oq harir libosda "yor-yor" sadolari ostida boshqa bir xonadonga farzand bo'lib kelayotgan qiz hayo, ibo, iffat, nomusi bilan kelmog'i zarur. Shu bilan birga u ota-onadan ro'zg'or yuritish, oila tutishning o'ziga xos siru asrorlaridan ta'lim olmog'i ham kerak. Qiz bolaning baxti uning axloq-odobi mevasidir. Shirinsozlik, samimiylik, sermulohazalik, go'zal xulq, yaxshi muomala, saranjom-sarishtalik qiz bolaning ko'rkidir. Uning ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi odamiylik fazilatlarini zebo qilib boruvchi ota-onadir. Ota-onaning pand-nasihatlarini dillariga jo qilgan yigit-qizlar hayotda qoqilmaydilar, qiyinchiliklarga sabrli, bardoshli bo'ladilar.

Ularning kelgusi hayot yo'llari ham porloq bo'ladi. Bir kuni Luqmoni hakim o'tib ketayotsalar, bir ona qiziga nasihat qilib, yaxshi odatlarni o'rgatayotgan emish: *"Qizim, sen ham balog'at yoshiga etib qolding. Ertaga birovning xasmiga borasan, menikiga esa mehmonga kelasan, xolos. Sen yaxshi hayot kechiraman, obro'-e'tiborli bo'laman desang, qaynonangni hurmat qil. Hammadan erta tur! Hammadan kech yo't! Qo'ling egri bo'lmasin, boshingga qilich kelsa ham rost gapir. Yolg'onchi, chaqimchi, ikkiyuzlamachi, g'iybatchi bo'lma, qo'lingdan keladigan xizmatini ayama, kelgan mehmonning izzat-hurmatini joyiga qo'yib kuzat. Oila a'zolarini birovga yomonlama, ziyrak, dono, aqlli bo'! Kuyovning hurmatini joyiga qo'y, ko'chadan kelganida kutib ol! Ketganida kuzatib qo'y. Boriga shukur qil, sabr-toqatli, chidamli bo'! Salomni kanda qilma. Shundagina baxt sening yo'ldoshing, g'am-tashvish esa kundoshing bo'ladi"*, - debdi. Shunda Luqmoni hakim "Ona ko'rib qiz ol, qirg'oq ko'rib bo'z ol!" deganlari shu bo'lsa kerak deb, yo'llarida davom etgan ekanlar.

Xulosa qilib aytganda, farzand ko'rib, ularni tarbiyalab, kishilarga, jamiyatga halol va fidoiylarcha xizmat qilishga qadar shaxslarni shakllantirish har bir ota-onaning ijtimoiy, ma'naviy burchi sanaladi. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasi manbalaridan o'rganishimiz lozim. Jumladan, tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish, ta'na qilish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash kabilar. Lekin insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o'g'it-nasihati, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, mukofotlash kabildan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma'lum.

Xalq pedagogikasi materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari ichida:

- ✓ bolalar o'yinlari;
- ✓ choyxorlik – choyxona gurungi;
- ✓ bolalar gapi – gap – gashtak;

Bolalarga kattalar bilan birgalikda:

- ✓ to'y marosimlari: beshik, to'y, sunnat to'y, nikoh to'y, hovli to'y;
- ✓ sayllar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli, yig'in-tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi, kelin salom, uloq, poyga, kurash;
- ✓ aza ma'rakasi;
- ✓ safarga chiqish kabilar haqida ma'lumot berish va ana shu vositalar asosida farzandlarimizni axloqiy tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Chunki bolaning ijobiy yoki salbiy xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va ular tomonidan baholanadi. Bir qancha ota-onalar ham o'z o'g'il-qizlarining to'yhasham va ma'rakalarga aralasha boshlaganidan keyingina ulardagi salbiy yoki ijobiy sifatlarni payqay boshlaydilar. Bunday hol ota-onalarning bolalariga singdirilgan tarbiyalariga xulosa yasashga yordam beradi. Oilada bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli usullardan biri, hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni xalq donishmandligining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari, maqollari, ertaklari orqali dalillashidir. Aniqrog'i axloq-odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum bir ertak, rivoyatlar orqali aytib berilishidir. Ko'pchilik ertak, dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni ularga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Masalan: "Qorasoch pari" ertagida ona o'z o'g'li Nodimi safarga jo'natishdan oldin: "Mening uch nasihatimni esingdan chiqarma, birichisi – bировga xiyonat qilma, ikkinchisi – bировning dilini og'ritma, uchinchisi – qaysi shaharga borma, eng avval, o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil", - mazmunida nasihat qiladi. Ona nasihatiga amal qilgan farzand bir umrga murod-maqсадiga etib yashaydi.

Demak, xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarida bolani atrofidagi kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari o'rta tashlanganini ko'ramiz. O'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan o'ymakorlik - yog'och, ganch va mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida birinchidan,

moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, ikkinchidan, farzandlarni mehnatga o'rgatishda, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan. Tajribadan ma'lumki, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa, qo'shiqlar muhim o'rinni egallaydi. Chunki barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbaidir. Masalan: alla o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan qo'shiq turlaridan biridir. Ona allasidan bahramand bo'lmagan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo'lmagan qiz bola bo'lmasa kerak. Alla tinglab katta bo'lgan bolada ota-onaga nisbatan o'zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi. Keksalarning aytishicha, san'at insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan. Otabobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarini bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarini o'tkazish tartibini bilish yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday malaka va ko'nikmalarni yoshlarda tarkib toptirish vazifasi, avvalo, ota-onaga, oilaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, ovqatlanish, so'zlashuv odoblarini ham o'rgatib boradilar. Ayniqsa ovqatlanish odobini o'rgatishlari juda muhimdirki, bu birinchidan, bolaning salomatligini ta'minlasa, ikkinchidan me'yorga qarab ovqatlanishga o'rgatadi, uchinchidan, badnafslilikdan qaytaradi, to'rtinchidan, tejamkorlikka o'rgatadi. Shu bilan birga insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Xalqimizda bolalarni axloqiy tarbiyalashda dasturxon atrofi eng qulay joy sanalgan. Bu yerda katta yoshlilar farzandlariga pand-nasihatlar qilganlar. Nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi tushuntirilgan. An'anaga ko'ra ota-ona nasihatlarini bajarmaslik katta gunoh hisoblangan. Otaga tik boqma, oxirating kuyib ketadi, ota-onani rozi qilish kerak, deb bolaning ongiga singdirib borilgan. Oxirgi o'n-o'n besh yillar ichida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabat buzila boshladi, keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi borasidagi qadriyatlarimizga e'tibor berilmay qo'ydi. Ayrim bolalar ota-onalaridan moddiy yordam ko'rayotganligi uchun "hurmat" qiladigan bo'lib qolishdi. Ota-onalarga nisbatan axloqsizlik qilish, ularni xo'rlash, qarovsiz qoldirish hollari ham uchrab turibdi.

O'zbek oilalarida bolani to'g'ri tarbiyalashda, ularga axloq-odob qoidalarini tushuntirishda ota-onalar oldiga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qator talablar qo'yilgan:

- ❖ bolani hech kimga yomonlik qilmaslikka, qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga ko'niktirish, uning ko'ngliga muruvvat tuyg'ularini solishga intilishning kuchli bo'lishi;

- ❖ bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zlari ham shu yo'ldan ketishlari;

- ❖ ota-onaning yaxshi odob, xulq egasi ekanligi, har bir xatti-harakatidan ko'rinib turishi, bolalarga namuna sifatida xizmat qilishi;

- ❖ yaxshi deb bilgan ishni o'zlari ishlab ko'rsatishlari va bu ishning yaxshiligiga bolani ishonitirishlari;

- ❖ bolani tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'ri so'zli bo'lishi;

❖ bolaning qilayotgan yaxshi ishlariga qarab, o'z darajasiga loyiq mukofotlash, xatoga yo'l qo'ysa tanbeh berish;

❖ bolalar ota-onasining yuzlaridagi norozilik alomatlarini ko'rib, buning jazo ekanligini bilishi, rag'batlantirish ham me'yorida bo'lishi kerakligi;

❖ bolaning oldida odillik bilan, ustozlarcha ish olib borish axloqiy tarbiyaning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Umuman, ota-onalar oilada bolalarga axloqiy tarbiya berishda milliy an'analarni to'g'ri tushunib olishlari, qaysi an'analar qanday maqsad uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki talqin etilgan an'analar, urf-odatlar mazmunini, avvalo, ota-onalarning o'zlari yaxshi o'zlashtirib, kundalik hayotda qo'llay olsalargina, farzandlariga uning ta'siri samaraliroq bo'ladi. Mana shu ma'noda oilalarda o'rnatilgan qolgan, o'rganilgan, xalqimiz turmush tarzida eng ko'p qo'llaniladigan an'analar bilan birga, mustaqillik sharoiti talablaridan kelib chiqib, ijobiy samara berishi mumkin bo'lgan an'analardan - o'z xalqi va ona Vatani bilan faxrlanish, o'z Vatanga mehmuhabbat bilan qarash, o'z Vatanning o'tmishi va tarixiga cheksiz hurmat, o'z xalqining milliy an'alarini e'zozlash, milliy ongi shakllangan, milliy e'tiqodli vatanparvarlarni tarbiyalash zarurdir. Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir.

Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati - o'zbekning milliy g'ururidir.



Nazorat savollari:

1. Qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar qanday bo'lgan?
2. "Qur'oni Karim" va hadislar oila tarbiyasining muhim manbalari sifatida qanday o'rin tutgan?
3. O'rta asrlarda oila pedagogikasiga oid fikrlar. Ma'rifatparvar o'zbek pedagog olimlari oila tarbiyasi xususida fikrlari qanday?
4. XX asrda oila tarbiyasiga doir yondashuvlar va ularning mohiyati nimalardan iborat?
5. Mustaqillik yillarida oila tarbiyasi masalasiga oid fikrlaringiz qanday?
6. Bola tarbiyasida oilaning tutgan o'rni muhimmi yo'qmi? O'z fikringizni bildiring?
7. Xalq pedagogikasi materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalarini sanab bering?
8. Qanday omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular qanday pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi?
9. Sharq murafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan hozirgi kunda ham muhim o'ringa ega. Siz bunga nima deysiz?



3-§. XORIJDA OILA VA IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHI TARIXI

Tayanch tushunchalar: *oila, oila pedagogikasi, chet el. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari, Yevropa uygʻonish davri, Yan Amos Komenskiy va rus pedagoglari, qullar, quldor zodagonlar, adabiy bilim va estetik tarbiya, musiqa, ashula, deklomatsiyalar, barkamol inson, qizlar tarbiyasi. oʻspirinlar guruhi, faylasuf olim, harbiy gimnastika mashqlari, jismoniy sogʻlom, quldorlik davlatlari, pedagogik fikrlar, tarixiy taraqqiyot, axloq masalalari, axloqiy va aqliy tarbiya, taraqqiyot jarayoni, idealist-faylasuf, makedoniyalik Iskandar.*

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi oʻrni yangi ijtimoiy formatsiya - quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo boʻldi hamda moddiy va maʼnaviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda oʻzlarining katta hissasi qoʻshdilar. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda qogʻoz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning oʻnlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga boʻlish oʻylab topildi. Eramiz boshlanishidan oldin Oʻrta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin boʻlgan joyda Oʻrta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yoʻli qurildi. Soʻngra Oʻrta Osiyo orqali Xitoydan Oʻrta dengizga tomon “Buyuk ipak yoʻli” ochildi. Natijada Oʻrta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi.

Bu esa oʻz navbatida Oʻrta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga taʼsir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi. Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Yunoniston uncha katta boʻlmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning moʻtabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan boʻldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi. Yunonistonda qullarni “gapiradigan ish quroli” deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar. Lakoniya (Sparta)da kemalar toʻxtaydigan qulay gavanlar boʻlmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat boʻlgan quldorlar 250 mingdan koʻproq aholiga hukmronlik qilardi. Spartada qullar shafqatsiz taʼqib ostiga olinar edi. Tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida boʻlib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sogʻlom, bardoshli, chiniquqan jangchilar qilib tarbiyalash va boʻljak quldorlarni etkazishdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin “agella” deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular “pedonom”

rahbarligida jismoniy sogʻlom boʻlish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, ogʻriqqa bardosh berishga oʻrgatilar edi. Taʼlimning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi. Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi taʼlim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi: -“Oʻqish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri oʻrgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech soʻzsiz itoat qildirishni, chidamli boʻlishni va yengish ilmini oʻrgatishni koʻzda tutar edi”. Spartada taʼlim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar “Kreptiyalar”da, yaʼni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali boʻlib koʻringan har qanday illatni (qulni) oʻldirar edilar. Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar oʻtkazib, shu yoʻl bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va loʻnda qilib javob berishga oʻrgatib borilgan. Spartada 18—20 yoshga yetganda yigitlar “Efeblar” oʻspirinlar guruhida harbiy xizmatni oʻtaganlar. Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida eʼtibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qoʻriqlab, qullarning itoat saqlashini taʼminlar, ular hatto jangda ham qatnashar edilar. Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi taʼlim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilardi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V-IV asrlarda madaniyat barq urib oʻsdi. Fan, meʼmorchilik va haykaltaroshlik taraqqiy qildi. Afinada eng koʻrkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham maʼnaviy jihatdan yetuk kishini oʻzlarining “ideali” deb hisoblar edilar. Bu ideal faqatgina yuqori tabaqali quldorlarga xos edi. Jismoniy mehnat esa faqat qullarning qismati deb hisoblanar edi.

Afinada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, oʻgʻil bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona koʻmagida uy-roʻzgʻor ishlariga oʻrgatilar edi. Afinada xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan. ichkarida oʻtar edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha “grammatist” (savod oʻrgatish maʼnosida), “kifarist” (grekcha musiqa oʻqituvchisi maʼnosida) maktablarida tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy boʻlib, oʻqish pullik edi. Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda taʼlim ololmas edilar. Bu maktablarda “didaskol” deb atalgan oʻqituvchilar mashgʻulot olib borar edilar. (men oʻqitaman, degan maʼnodagi “didasko” soʻzidan keyinroq “didaktika” — taʼlim nazariyasi kelib chiqqan). Oʻgʻil bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar edi, bunday qul pedagog deb atalar edi (“pays” - bola, “agogeyn” - etaklab borish degan soʻzlardan olingan).

Grammatist maktabida oʻqish, yozish va hisoblash oʻrgatilar edi. Oʻqishda harflarni hijjalab oʻqitish usuli, soʻng qoʻshib oʻqish usulidan foydalanganlar. Yozuvni oʻrgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka choʻp yordamida yozganlar. Sonlarni barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblaganlar. Kifarist maktabida oʻgʻil bolalarga adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, musiqa, ashula, deklomatsiyalar oʻrgatilar edi. Oʻgʻil bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin “palestra” (“kurash maktabi”) deb atalgan oʻquv yurtiga oʻtar

edilar. Bu o'quv yurtida ular ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Masalan, sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irg'itish, suvda suzish kabilar o'rgatilardi.

“Palestra”da o'qish tekin edi, shuning uchun ham yoshlarning ko'pchilik qismi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Yoshlarning badavlatroq oiladan bo'lgan qismi “palestra”ni tugatgach, gimnaziya (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin edi. Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o'zlarining siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor otalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu kabi tartib davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib, bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilar edi. Quldor zodagonlar mehnat bilan shug'ullanuvchi erkin aholiga nafrat bilan qarardi. Qullarni esa “gapiradigan ish quroli” deb hisoblar edilar.

Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) o'zining demokratik ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (u kambag'al hunarmand, ya'ni haykaltarosh o'g'li) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu, albatta, uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni o'zlari topishlariga va bilishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatni izlashga o'rgatar edi. Suhbatning bu metodi “Suqrot metodi” deb yuritilgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya'ni “evristik” suhbat metodining yangi (savol berish va savolni to'ldirish) usulini olib kirdi.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. U bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb tushungan. Aristotel fikricha, Suqrot mavjud haqiqatdan umumiy tushunchalarga o'tish haqidagi induktiv ta'limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlash haqidagi ta'limotni yaratgan. Uning etika sohasidagi asosiy tezisi shundan iborat: ezgulik bilimdir; donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi, yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning tushunishicha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin

emas. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli "mumtoz"largagina xos, "mumtoz" kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi. Suqrot demokratiyaga dushmanlikda asossiz ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilingan. Lekin o'zi zahar ichib o'lgan. Haqiqatda esa u adolatga xilof bo'lgan davlatni boshqarishning hamma formalarini — monarxiya, tiraniya, aristokratiya, plutokratiya va demokratiyani tanqid qilgan. Platon eramizdan ilgari (424—347 yillarda) yashagan.

Qadimgi Yunonistonning mashhur — idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. U "g'oyalar dunyosi"ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi. Platon olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga bo'ldi. Uning fikricha, g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olamining soyasidir, xolos. Afina aristokratiyasining namoyandasi bo'lgan Platon, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha, ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim.

Faylasuflar davlatni boshqaradilar jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar, degan fikrni olg'a suradi. Shuningdek, u quldorlikning ham saqlanib qolishini aytib, uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham, hunarmandlar ham huquqsizdirlar, pastkashlik, qanoat va itoatkorlik xislatlarigina hunarmand kosiblariga va dehqonlarga xos deb ta'kidlaydi. Platonning fikricha, u olg'a surgan g'oya, bu davlatning maqsadi oliy ezgulik g'oyasiga yaqinlashishdir: bu g'oya, asosan, tarbiya yo'li bilan ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi. Tarbiya, - deydi Platon, - davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarining — faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim.

Platon o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi. Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari muhimdir. Platon o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga eng yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi. Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatiladi. Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya mashqlari o'rganiladigan "palestra"da, ya'ni jismoniy tarbiya maktabida o'qiydilar. "Palestra"ni tamomlagan o'spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani o'rganadilar, bunda ko'proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko'zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar "Efebiya"da tarbiyalanadilar, ya'ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o'taydilar. Aqliy mashg'ulotga mayli bo'lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab, jangchilar qatoriga o'tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko'ringan yoshlar, ya'ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullanib,

shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o'taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko'zda tutilmasdan, balki falsafa—nazariyani mukammal o'rganish ko'zda tutiladi. Shu tariqa ular davlat mansablarida ishlashga tayyorlanadilar.

Iste'dodi g'oyat o'tkir ekanligi ma'lum bo'lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmini o'rganishni yana 5 yil (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, shundan so'ng 35 dan 50 yoshgacha davlatni boshqaradilar. Platon xotin-qizlar tarbiyasi xususida ham fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi. Umuman, Platon tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Platon g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarning "jismoniy mehnat to'g'risida hatto o'ylashlari" ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek, qullarning bolalarini o'qitmagan ma'qul, degan g'oya ilgari surilgan. Biroq, Platon maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytdi, ijobiy o'rnak namunasida tarbiyalash kabilarni talab qildi. Platon o'zining axloqiy tizimini yaratar ekan, ustozlari Suqrotga ergashib, ob'ektiv idealizm yo'lini tutadi.

Platon etikasining asosiy nazariy tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo'lgan va manguqlik g'oyalari olamida Xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarimas "yaxshilik" g'oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklarning hamma turi o'zida me'yor, go'zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy "yaxshilik g'oyasi"ning in'ikosigina bo'lishi mumkin. Platon fikricha, odamning axloqiy hayoti shu oliy "yaxshilik g'oyasi"ga intilishga to'la bo'ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy "yaxshilik" g'oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko'rish mumkin. Shunday qilib, Platon insonning xulqini Xudo xohishiga bo'ysundirishga harakat qilgan. Platon insonga xos kategoriyalar va tushunchalarni sinchiklab ishlab chiqib, ularning barqarorligi va muayyanligini isbotlagani holda ularni kishilar joriy qilishini ham e'tirof etmadi. Shu bilan, u axloqiy qonunlar kishilar uchun majburiy yoki nomaqbul bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrga o'rin qoldirmadi.

U bu o'rinda aristokrat zodagonlarinigina nazarda tutgan, xolos. Xalq ommasiga kelganda, unga axloqiy hayotda arzimasi o'rin berilgan, uning fikricha, xalqqa faqat bo'ysunish, itoatkorlik axloqigina xos. Qullar hech qanday fazilatga ega emaslar, deb hisoblagani sababli Platon axloqiy etikasiga ko'ra, ular umuman chinakam axloq egasi bo'lishi mumkin emas. Platon axloqiy tushunchalarni o'zgarimas va barqaror deb qarashi hamda ularni mutlaqlashtirishi jamiyat siyosiy tuzilishining o'zgarimasligi g'oyalarni himoya qilishga va quldorlik davlatini ideallashtirishga xizmat qildi. Natijada Platon etikasi aristokratiya nazarida jozibador bo'lib ko'rinadi. Ular uning etikasida o'z hayotlari tarzining in'ikosi va himoyachisini ko'rdilar. Arastu - Aristotel (eramizdan ilgari 384 - 322 yillar)da yashagan. Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, Qadimgi Yunonistonning yirik idealist-faylasufi va olimi edi. Platon olimni g'oyalar dunyosi va hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin.

Moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga

ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin. Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon. Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta'siri ostida sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubhaqilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta'kidlashicha, bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya'ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kelib chiqadi. Eng muhimi shundaki, Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko'rsatib o'tdi, taraqqiyot g'oyasini olg'a surdi. Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin. Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya - **jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya** bo'lishi kerak.

Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha jonning olim tomonlarini - aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi. Arastuning fikriga ko'ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo'lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta'minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo'lmasdan, balki davlatning ishi bo'lishi lozim. U insonning yoshlik yillarini uchga bo'lib o'rganadi:

- ✓ 7 yoshgacha bo'lgan davr;
- ✓ 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi);
- ✓ jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr.

Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi. Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar, avvalo, badantarbiya muallimlarining qo'lga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha engil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqa o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq

erkaklarnikidan farq qilishini aytadi. Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql — bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi. Fazilatlar hosil bo'lishi uchun ezgu xulq-odatlar va ko'nikmalarni tarkib toptiradigan, yaxshi o'ylab o'tkaziladigan mashqlar bo'lishi ham zarur, bunga odatlanish. buning uchun doimiy harakat qilish lozim. Odatdan, ko'nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi, deb ta'lim beradi. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o'rtachalik bo'ladi. Shuning uchun ham hamma narsadan faqat o'rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir.

Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo'l qo'ymaydigan xatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xatti-harakatni hosil qilmoq uchun ko'proq mashq qilish kerak, degan fikrlarni olg'a surdi. Arastu Platondan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo'lishi kerak, deydi. Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, uning "Nikomah etikasi" va "Siyosat" asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlandi. Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, "Tabiat inson qo'liga qurol - aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi", - deydi. Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy fazilat - faoliyat, xatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do'stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe'llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo'lishini asoslab beradi. Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlarini hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu. Inson tabiatan fazilatlariga ega bo'lmagani, balki fazilatga o'rgangani sababli, tarbiyaning (faqat bolalarnigina emas, shu bilan birga barcha aholini tarbiya qilish) rolga katta ahamiyat berib, hususan, hissiyotlarni tuyg'ularda idrokli tarbiyalashga ahamiyat qaratadi. Uning fikricha, bunday tarbiya kishilarning axloqli bo'lib yashashga o'rganishlari uchun zarur bo'lgan mavjud qonun-tartibotlar yordamida amalga oshiriladi. Mutafakkir fazilat deganda hamisha ota-ona o'rnini bosishi mumkin bo'lgan davlatga xizmat qilishni nazarda tutadi. Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo'lgan aqliy fazilatlar — bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarini aqliy fazilatlariga bo'ysundirgan holda ifodalaydi. Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi. Umuman, antik faylasuflar Suqrot, Platon. Arastular o'zlarining nazariyalarida har bir narsada me'yor bo'lmog'i lozimligini uqtirib o'tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar. Atomizm nazariyasini yaratgan atoqli faylasuf - materialist Demokritning qarashlari (eramizdan avvalgi 460-370 yillar) qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan

mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e'tibor beradi. U o'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni emirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi. Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. "Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi" deb yozadi u. Demokrit "ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi", deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi. U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat yengil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'makdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi. Demokrit barcha tabiiy jarayonlarga, jumladan, insonning axloqiy munosabatlarida ham kishi xulqini real, bu dunyodagi asosini topishga urinadi. Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha, sezgilarimiz orqali olingan bilim "qorong'i"; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim "yorug'", haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib olish mumkin. Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan holi edi.

Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.



Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari haqidagi fikringiz?
2. Spartaliklarning bolalari 7 yoshdan 18-yoshgacha qanday davlat muassasasida tarbiyalanar edi?
3. Spartada 18—20 yoshga yetganda yigitlar "Efeblar" o'spirinlar guruhida qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishgan?
4. Arastuning fikricha, jonning necha xili mavjud va ularni nimalrini sanab bering?
5. Platon va Arastuning pedagogikaga hos qarashlarini nushuntirib bering?
6. Demokrit ahloq haqidagi qarashlaridan namunalar keltiring va ularga o'z fikr mulohazalaringizni bildiring?
7. "Suqrot metodi"ning asoschisi kim?
8. Falsafiy dialektikaning asoschilari haqida so'zlab bering?



4-§. OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGIDA BOLALARNI MA'NAVY-AXLOQIY RUHDA TARBİYALASH YO'LLARI

Tayanch tushunchalar: *Ma'naviy-axloqiy tarbiya, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod, shakl va vositalari, tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari, umuminsoniy fazilatlar, insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, imon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik, antipatiya, simpatiya, hamkorlik etikasi, estetik mazmun, estetik tasavvurlar, mikro-muhit, makro-muhit, milliy musiqa, integratsion jarayonlar, tarbiyashunoslik.*

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, imon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir.

Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir.

Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pchiligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar

ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi". Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi.

Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari yeta olmagan orzu-umidlariga bolalarining yetishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtliyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos hissa qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi". Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir yirik allomalardan biri Burxoniddin Marg'ioniydir. Burxoniddin Marg'ioniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddin Marg'ioniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi. Alloma Marg'ioniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilgil. Agar sen xoh unga

adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur.

Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomala odobi, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas'uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi. Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish – ta'lim jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo'lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tarixiy va madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma'naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g'oyalarni bilishga bo'lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir. Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy - "*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir*" - deb yozgan edi. Mashoyixlarning aytishlaricha, -"*...har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur*". A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta'lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o'qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o'rganar ekanmiz, biz o'sha davrda maktablarda o'quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og'zaki ijodi, Qur'on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so'zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko'ramiz. Masalan, "Yaxshi xulqlar" qatoriga kiruvchi "Sabr" mavzusida: "*Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur*". Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi: - "*ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur,*" - deyilishi. Arablar - "*assabru miftohulfalah*" - sabr shodlig'ning kalilidur deyurlar.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo'llarini topish asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo'lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda - davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas'uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, "Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi". "Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish". Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko'rsatma san'atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib:- *"Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz"*-shunday deganlar.

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar:- *"Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq"*. Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib yetishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Sharq mutafakkirlarining

asalarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalari tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlariga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida tarbiyalanuvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod, shakl va vositalari.

Komil inson ta'lim tarbiyasining dastlabki poydevori oilada qo'yiladi. Inson ma'naviyatida madaniyat va san'at o'ziga xos ta'sirchan hamda samarali vosita sifatida alohida ahamiyatga molik. Oila ma'naviyati, madaniyati, oiladagi psixologik muhit, uning badiiy estetik tamoyilari bolalarda turli mazmundagi tushuncha va tasavvurlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Oilada bolalar estetik tasavvurlarni shakllantirish borasida barchabop tavsiyalar, bu jarayonning mazmunini belgilashga qo'yilgan pedagogik va psixologik talablar ishlab chiqilmaganligi, qolaversa, bu didaktik jihatdan o'ta murakkab jarayon ekanligi bois respublikamizda hammabop ko'rsatmalar amal qilmaydi. Bu murakkablikni bir qator omillar bilan tavsiflash mumkin.

❖ **Birinchidan**, maktabgacha yoshidagi bolalar muntazam faoliyat ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi bolalarda nafaqat estetik tasavvurlarni, balki olam haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar kompleksi mavjud bo'lib, uning meyoriy asoslari "Maktabgacha ta'limning davlat talablari", "Ilk qadam" dasturi mavjud. Bu dastur asosidagi mashg'ulotlar muntazam tarzda, belgilangan kun va soatlarda olib boriladi.

❖ **Ikkinchidan**, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarni asosan maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tarbiyachilar olib boradilar. Ular o'z faoliyatlarini yuqorida qayd etib o'tilgan meyoriy hujjatlar asosida tashkil etishga ma'sullar.

❖ **Uchinchidan**, farzandi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi ot-onalar muassasa talablari u yoki bu materialni olib berish kabilarni qat'iy tarzda bajarishlari talab etiladi. Bu omil maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnamaydigan bolalardan bir muncha ustunlik qilishlarini ta'minlaydi.

❖ **To'rtinchidan**, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda muayyan bilim, tushuncha va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizim kasb-hunar kollejlari, pedagogik institutlari va universitet, shuningdek, viloyatlardagi Davlat universitetlari, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirish Respublika metodik markazi, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazi, ilmiy tadqiqot

muassasalarida jamiyatning ijtimoiy-pedagogik ehtiyoji, talablari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni muntazam tarzda takomillashtirilib boriladi. Xuddi shu yondashuv, didaktik talablar asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimiga, uning mazmuniga ham lozim bo'lgan o'zgarishlar kiritib boradi.

❖ Va nihoyat, **heshinchidan**, maktabgacha ta'lim muassasalarida muntazam mashg'ulotlar yagona maqsad bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bilan bog'liq. Ular didaktik tashkil etilishi nuqtai nazaridan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi. Masalan, "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarda badiiy tasviriy ijodiy faoliyat asoslari bilan tanishtiradi, bu mashg'ulotlar orqali bolalarda yozish, chizish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi, uning uchun qo'l mushaklarini rivojlantirish ta'minlanadi, atrof olam haqidagi, tabiat holatlari, fasllari haqidagi tasavvurlari shakllantirilib boriladi. Yuqorida keltirilgan omillar oilada maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini ishlab chiqish uchun muayyan pedagogik talablar, mezonlarga asoslanish lozimligini ta'kidlaydi.

Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish bevosita madaniyat va san'atning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham oila sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuniga qo'yiladigan pedagogik talablar, uni tanlab belgilash mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu talablarga amal qilish bir qator pedagogik omillar bilan tavsiflanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

✓ Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda amal qiladigan maktabgacha ta'lim muassasalaridagidek Davlat talablari, ular asosida ishlab chiqilgan dasturlarning yo'qligi;

✓ Oilada o'z farzandlarini maktab ta'limiga mustaqil tayyorlayotgan ota-onalarning barchasi ham maxsus pedagogik va psixologik ma'lumotga, shuningdek, uslubiy malakalarga ega emasligi;

✓ Farzandlarning yosh oila qurishlari, ustiga-ustak ularni mustaqil, alohida, ota-onalaridan ajragan holda yashashi hisobiga bola tarbiyasidagi uzviylikning buzilishi va h.k.

O'zbek oilasida farzand tarbiyasi bilan uch avlod (ota-onasi, buvasi va buvisi, bobosi va x.k.) vakillari shug'ullangan davrdagi ta'lim-tarbiya mazmuni va sifati, qo'llaniladigan usul va vositalarning turlari, sifatiga nisbatan olganda alohida yashayotgan yosh ota-onalar tarbiyalayotgan farzandlarning dunyoqarashi, shu jumladan ularning estetik tasavvurlarni shakllantirish barcha holatlarda ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Shuning uchun ham bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirish pedagogik jarayon sifatida muayyan mezonlarga asoslanishi lozim.

Birinchidan pedagogik mezonni eng asosiysi, oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish avvalo bolalarda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash deb qabul qilish lozim.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda turli omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida ko'p bor ta'kidlaganimizdek, oila eng asosiysi hisoblanadi.

Zero. bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanishi va bu davr dunyoqarashni shakllanishining ham mazmun, ham hajm, ham sifat jihatidan eng salmoqli bosqichi ekanligini ilmiy dalillar bilan tavsiflab o'tdik. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yosh davri asosiy davr hisoblanadi. Bu tushuncha va tasavvurlar tizimida estetik tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin.

Estetik tasavvur nima? Uning mazmuni, shakli, shakllantirish metodikasi qanday bo'lgani ma'qul? Barkamol shaxs tarbiyasida estetik tasavvur va tushunchalarning o'rni qanday belgilanadi? Umuman madaniyat, san'at, go'zal voqea va hodisalarni estetik idrok etish va ularga baho bera bilish hissi barkamol shaxsni shakllantirish tushunchasida qanday o'rin egallaydi? Bu savollarga birgina misol bilan javob berish mumkin.

Insoniyat tarixini kuzatar ekanmiz, undagi eng mashhur, aqliy salohiyati yuqori, ma'naviy komil insonlar (Forobiy, Ibn Sino, Amir Temir, Jomiy, Navoiy, Bobur va boshqalar) aynan madaniyat va san'at sohasida ham o'ziga xos salohiyatga ega bo'lganlar, ya'ni bizning tarixiy o'tmishimizda bunga ibratli misollar ko'p. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, madaniyat va san'at yuqorida nomlari zikr etilgan allomalarning komillikka erishishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu omilni tarbiyashunoslikning ibratli uslublarini qo'llash jarayonida foydalanish maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmunini belgilashdagi muhim shartlardan biridir. Shuning uchun ham bolalarda oiladan boshlab estetik tasavvur va tushunchalarni shakllantirish, unda ibratli namunalardan ham oqilona foydalanish bo'lajak ma'naviyatli, madaniyatli kishini tarbiyalashning dastlabki, ayni paytda eng muhim maqsadidir.

Oilada bolalarni estetik tasavvurlarini shakllantirishning eng asosiy shakli san'at turlari haqidagi ma'lumotlar, badiiy estetik qonuniyatlar haqida elementar bilimlarni tarkib toptirishdir. Bu borada musiqa, raqs, teatr, kino, tasviriy va amaliy san'at, milliy badiiy hunarmandchilikning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir.

Qolaversa, har bir ota-ona mazkur san'at turlari haqida muayyan bilimlar, ularni ijro etish bolasiga amaliy ko'rsatish darajasida malakalariga ham egalar. Muhimi, bu ko'rsatmalarda "soxtalik" bo'lmasligi lozim, Aks holda u yoki bu san'at turi bilan tanishish jarayonida bolalarda noto'g'ri tasavvur shakllana boshlashi mumkin. Dastlabki taassurot ta'sir kuchiga ko'ra muhimroq bo'lganligi bois uni "to'g'rilash" biroz murakkabroq kechishi mumkin.

Hammaga ma'lumki mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek musiqa madaniyati, san'ati keyingi yillarda juda rivojlanib ketdi. Biroq bu rivojlanishning salbiy holatlari ham mavjud. Musiqa va raqs san'atidagi bu salbiy holatlarning eng oddiy dalillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Musiqa san'atiga integratsion jarayonlarining keng miqyosida ta'sir etishi natijasida milliy musiqaning mazmunini buzilishi.

Endilikda "O'zbek qo'shig'i"ni anglash murakkablashib bormoqda. Bu jarayonga qiziqish holatida aynan anglash murakkab bo'lgan qo'shiqlar ommalashib bormoqda. Tabiiyki, bolalar tomonidan ular milliy musiqiy asar sifatida idrok etilmoqda.

O'zbek milliy qo'shiqlari va mumtoz ashulalarini ommalashtirish borasida ayni paytda ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston televideniyesida beriladigan "Ohanrabo", "Xonish", "Aytishuv", "Bellashuv", "Jonli ijro" ko'rsatuvidagi, O'zbekiston radiosining "Mash'al" kanali orqali berilayotgan "Aytishuv", "Unutilmas navolar" kabi musiqiy dasturlar, milliy bayramlar "Mustaqillik kuni", "Navro'z" va x.k.)da, shuningdek, "Kelajak ovozi" fond-forumida milliy musiqa san'atini saqlash, uni targ'ib qilish borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlarni yosh va mahorat jihatidan shu ishga (ijroga) tayyor, qolaversa, ma'naviy-axloqiy jihatdan haqli ijrochilar bilan birga juda yosh bolalarning ham ijrosini ommalashishini faqat ijobiy holat deb baholab bo'lmaydi.

Bu asarlarning matnidagi mazmun murakkab hissiyotlarning bayoniga oidligining o'zigina uning ijrochilariga qat'iy talab qo'yishini talab etadi.

Do'stlar, hech kim meningdek o'z yoridin ayrilmasin.

Mehribon, munis munavvar dildordin ayrilmasin.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, oilada bolalar tinglashi yoki ijro etishi lozim bo'lgan musiqiy asarlar qat'iy mezonlar asosida saralanishi lozim. Namuna tom ma'nodagi namuna bo'lmog'i lozim, toki asarni ohang, mazmun jihatdan hamohang idrok etish mumkin bo'lsin.

Bolalar uchun estetik hodisa, qadriyat va obyekt sifatida tavsiya etilayotgan raqs namunalarning harakat ko'rinishlarining milliy-axloqiy meyorlarga mavofiqligi. Bu muammoning amaldagi holatini kuzatar ekanmiz, ayrim o'zbekcha raqslarni milliy san'at namunasi emas, balki erotik sahna ko'rinishi sifatida e'tirof etish mumkin. Shuning uchun ham ularning barchasi ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda to'g'ri estetik tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilmaydi.

Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmunini belgilash muhim pedagogik tadbir sifatida muayyan mezonlar asosida amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda bolalardagi estetik qarashlar, tushunchalar, did borasida musiqiy qiziqishlar o'z mazmuniga ko'ra milliy an'analarimizga zid tarzda rivojlanib bormoqda. Yuqorida keltirilgan dalillar bunga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek estradasi misolida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bu jarayonlarning pedagogik jihatidan e'tiborli tomoni shundaki, hozirgi davr yoshlari milliy musiqiy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlik, beparvolik, ta'bir joiz bo'lsa, hurmatsizlarcha munosabatda bo'lishi bilan birga, o'zbekcha talaffuz ham buzilib borayapti. Bunga aynan estrada "arboblari" sababchi bo'lmoqdalar. Zero chiroyli, to'g'ri so'zlay bilish ham madaniyatli insonning xislatlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan oilada bolalar bilan musiqiy madaniyat, musiqiy qadriyatlar, ulardagi an'anaviy ijrochilik xususiyatlari haqida suhbatlar olib borish ota-onalar, katta yoshdagi qarindoshlarning zimmasidagi muhim tarbiyaviy mas'uliyatdir. Shu bois ular o'z farzandlari, uka-singillarini radio, televizor, video va audio orqali tinglayotgan, ko'rayotgan musiqalarini nazorat qilib borishlari talab etiladi, ya'ni ular ma'lum pedagogik mezonlarga mos bo'lishi lozim. Bu bolalarimiz oilada zamonaviy estrada qo'shiqlarini tinglamasinlar, degan fikr ham kelib chiqmasligi kerak.

Faqat musiqa tinglashning mazmuni bolalarda o'zimizga xos musiqiy estetik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilsin. Ular oilaviy bo'lib teatr,

konsertlarga tushish, ko'rgazma zallari, muzeylarga, tabiatning go'zal maskanlariga borish kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lishi mumkin. Bu tadbirlarning ma'rifiylik jihati shundan iboratki, avvalo ota-ona o'zi muayyan darajadagi badiiy-estetik bilimlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Bu ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishga qo'yiladigan pedagogik talablardan biridir. Shundagina ular o'z farzandlarida estetik tasavvur va tushunchalarni shakllanishiga to'g'ri pedagogik rahbarlik qilishlari mumkin bo'ladi. Bu nufuz madaniy-ma'rifiy tadbirlarning barcha bosqichlarida o'z samarasini beradi. Bunday tadbirlarni uyushtirish ham o'ziga xos pedagogik va psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

Bu ta'limiy tadbirlarning birinchi bosqichida rejalashtirilayotgan maskan va unda ko'rilishi nazarda tutilayotgan obyektlar, jarayonlar haqida tushuncha berilib, bolani o'ylashga majbur etiladi. Shu tariqa u badiiy idrok etishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu tadbir bevosita obyektни kuzatish jarayonining (ikkinchi bosqich) samarali kechishiga pedagogik kafolat bo'ladi. Tadbirlarning uchinchi bosqichida ko'rilgan, kuzatilgan hodisa, obyekt muhokama etiladi. Bu usul bolalarda ko'rganlari haqida o'ylash, fikr yuritish, ularga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishga undaydi. Estetik tasavvur va tushunchalarni shakllanishida esa shaxsiy mulohazalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda go'zallik, nafasat haqidagi mulohazalarning dastlabki kurtaklari shakllanadi. Bu holatlarga zid bo'lgan belgilarni anglay olishni o'zlashtirib borishlari esa estetikaning asosiy toifalash go'zallik va xunuklikni farqlash ko'nikmalarni tarkib toptirib boradi.

Tadbirning to'rtinchi bosqichi ma'lum vaqt o'tgandan keyin ko'rilgan, muhokama etilganlarni eslash bilan bog'liq. Uning tashabbuskori ham aynan ota-onalar bo'ladi. Xalqimizda "Vaqt oliy hakam" degan hikmat bor. Aynan vaqt o'tishi bilan ko'p narsalar unutiladi, xotirada o'rin olgan tasavvurlar saralanadi.

Ko'p hollarda ijobiy, yaxshi narsalar ham unutiladi. Shu nuqtai nazardan oilada bolalarni estetik tasavvur va tushunchalarining tarkibiy qismini tashkil etuvchi xotiralarni tiklab uni mustaxkamlash muhim pedagogik jarayondir. Bu tadbir xotira uchun ham o'ziga xos mashq vazifasini o'taydi.

Shuning uchun ham psixologiyada, ham pedagogikada xotira muammosi shaxsni shakllantirishning muhim qirrasini sifatida tadqiq etilgan. Bu uzluksiz jarayondir.

Xuddi shunday tadbirlarni maktabgacha yoshdagi bolalarni ham qamrab olgan holda boshqa muzeylar, jumladan viloyatlarda ham tashkil etish mumkin. Masalan, Qarshi tabiat muzeyi va boshqa madaniy-marifiy maskanlari bilan hamkorlikda yo'lga qo'yish mumkin. Bu borada ayniqsa Qarshi tabiat muzeyida katta tajriba to'plangan. Viloyatimiz o'lkasini tanishtirib estetik tasavvurlar shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda yetarli darajada imkoniyatlar mavjud.

Ikkinchi omil -tomoshalarning mazmunini o'zgarishi 2005 yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida dinozavrlar ko'rgazmasi o'tkazildi. Unda ma'lum darajada harakatlanadigan bahaybat dinozavrlarning ko'rinishlari o'rnatilib, ular dahshatli ovozlari bilan ta'minlangan. Ko'rgazmada ishtirok etgan otalar -onalar, buvilarda u juda katta qiziqish uyg'otdi.

Ular o'z farzandlari, nevaralarini yetaklab shu ko'rgazmani faollik va ishtiyoq bilan tomosha qildilar. Bir qarashda bu tabiiy holdek tuyuladi. Biz o'tmishni, juda qadim tarixni bilgimiz keladi. Bolalarimiz ham bundan mustasno emas. Biroq masalaning asl mohiyati bundagina emas. Agar dinozavrlar ko'rgazmasi shu zalning birinchi qavatida bo'lgan bo'lsa, uning ikkinchi qavatida yonma-yon tarzda tasviriy san'at asarlarining ko'rgazmasi bo'ldi, birinchi qavatdagi ko'rgazmalardan farqli o'laroq bepul holatda tashkil etilgan edi, biz maxsus kuzatgan davrda bir necha kun davomida birorta ota-ona o'z farzandini ikkinchi qavatdagi tasviriy san'at asarlari ko'rgazmaga olib chiqmadi. Bolalarning ma'naviyatini shakllantirishda ikkinchi qavatdagi ko'rgazmaning ahamiyati katta. Shuning uchun nafaqat boriladigan madaniy obyektlarni tanlash, saralash lozim, balki unga ota-onalarni tayyorlashda muayyan pedagogik mezonlarga amal qilish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda qiz va o'g'il bolalarning shaxsiy qiziqish ko'lamlari, mazmuni va yo'nalishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ularning estetik qiziqishlarida tasviriy faoliyatga bo'lgan intilish, ehtiyoj eng salmoqlisi hisoblanadi. Har ikki jinsga mansub bolalarimiz bir xil qiziqish bilan rasm chizadilar. Shuning uchun ham ota-onalar bu holatga to'g'ri munosabat bildirsalar, o'z bolalarida estetik tasavvur va tushunchalarni, muayyan tarzda badiiy-tasviriy ijodiy ko'nikma va malakalarni shakllantirib boradilar, kelajakda ularni ma'naviyatli, madaniyatli insonlar bo'lib yetishishganlariga zamin yaratadilar.

Aslida, tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqish bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra bolalarning yoshlari ulg'ayib borgan sari susayib boradi. Shuning uchun ham bu maktabgacha yoshdagi qulay vaziyatdan samarali foydalanish lozim. Shu tariqa ularda tasviriy va amaliy san'at haqida, uning tuzilishi, jihati, ranglari va uning turlari haqidagi dastlabki tushunchalar tarkib topadi. Tasviriy faoliyat, kompozitsion tasavvur, ijodiy izlanish kabi estetik malakalarga dastlabki zamin hozirlanadi.

Bu bosqichda ota-onaning mas'uliyati o'ta muhim omildir, ya'ni bu jarayonda ular farzandlarini lozim bo'lgan sharoit, o'quv qurollari, metodik ko'rsatma va maslahatlar bilan ta'minlashlari talab etiladi. Bolalarda estetik tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda ularning tabiiy moyilliklari, iqtidorlari mazmuniga ko'ra to'g'ri yo'naltirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ota-onalar o'z farzandlarining hatti-harakatlarini maqsadli kuzatishlari, lozim bo'lgan taqdirda ular mutaxassislarga maslahat so'rab murojaat etishlari lozimligi ham bu jarayonning muhim pedagogik shartidir.

Oilada estetik tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning mazmuni vashakllari xilma-xil. Biz ularning faqat ayrimlari xususida muxtasar fikr yuritdik.

Bolalarimizda estetik tasavvurlarini shakllantirishning turli-tuman ko'rinishlari, ota-onalarning bilim va madaniyati saviyasi, oiladagi axloqiy-estetik muhit, oila an'anasi, atrof-muhit, (qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan muloqot, munosabat nazarda tutilmokda) hal qiluvchi omillardan biri hisoblanganligi uchun xam ularga alohida e'tibor qaratish lozim. Amaliy san'at, hunarmandlik, san'at turlari bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai sifatida aynan oilada

o'rganishi ko'proq samara beradi. Shu o'rinda oilaviy badiiy-estetik muhitning o'rni beqiyosdir. Kulollar sulolasining biz uchun zamondosh vakili Mamadaliyev aytganidek, xonadonda amaliy san'at buyumlarini saqlash oilada bolalarni nafosatga oshno qilish, ularning estetik didlarini tarbiyalash vositasidir.

Bayon etilganlardan anglash mumkinki, oilada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning mas'ulligi birinchi galdagi masaladir. Bu jarayonda barcha imkoniyatlardan foydalanish, shu jumladan, bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik muammoning yechimlaridan biridir. Bu mas'ullik qonun bilan belgilab qo'yilgan. Xususan pedagogika fanlari doktori Sh.E.Qurbanov va E.A.Seytxalilovlar: Maktabgacha ta'limning yangi tashkiliy va mazmuniy farqli jihati shundaki, unda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasiga muvofiq ota-onalar (ularni o'rinni bosuvchi shaxslar) bolalarning qonuniy xuquqlari va qiziqishlarini himoya qilishga majburdirlar va ular jamiyat va davlat oldida bolalarning maktabgacha ta'limning qaysi shakli va vositalaridan qat'iy nazar, ularning tarbiyasiga, maktabda muntazam ta'lim olishlariga tayyorgarligiga mas'uldirlar.

Oilaviy ta'lim-tarbiya davlat tomonidan tashkil etilgan tarbiya bilan birga maktabgacha ta'limning majburiy elementlaridir. Shuning uchun ham ota-ona o'z farzandini maktab ta'limiga tayyor bo'lishiga jamiyat oldida mas'uldir. Zero, oila bola uchun jamoat tarbiyasini shakllantirish manbai hisoblanadi. Oilada uning ijtimoiylashuvi, madaniyat, milliy an'analar va axloqiy qadriyatlar bilan tanishishi fikran qobiliyatini rivojlanishi sodir bo'ladi, ota-onaga, oilaning boshqa a'zolariga, o'z uyi va vataniga muhabbati va hurmati shakllanadi. Oilada maktabgacha ta'lim mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi. Ota-ona oilada o'z farzandining estetik tasavvurini shakllantirish mazmunini belgilashda qanday pedagogik mezonlarga asoslanishi lozim? U pedagog-tarbiyachi rovida o'zini qanday tutmog'i kerak va x.k. Birinchi shart shundan iboratki, har bir ota-ona biz ta'kidlab o'tganimizdek, o'z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishni faqat maktab ta'limiga tayyorlash vositasi emas, balki bu millat ravnaqi bilan bog'liq hodisa sifatida qarashlari lozim. Shuning uchun ham farzandlarining kamolidagi estetik mazmunga alohida e'tibor berishlari muhimdir.

Birinchi o'zbek professori, ma'rifatparvar alloma A.Fitratning ta'kidlashicha farzand nafaqat oilaning davomchisi, balki millatning kuch-qudrati va shon-shaykatini belgilovchi omildir. Bu omilni sifatli bo'lishida estetik mazmundagi mashg'ulotlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Demak, oilada bolalarning estetik tasavvurini shakllantirishni nafaqat ularni estetik savodxon, estetik madaniyatli bo'lishiga yo'naltirish, balki millatning ijtimoiy holati, istiqboli bilan bog'liq ijtimoiy muammo sifatida qarash joiz. Shuning uchun ham oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurni shakllantirishda ota-onaning mas'uliyati katta. Bu mas'uliyat ulardan estetikaga aloqador sohalarni bilishni talab etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

✓ **Badiiy adabiyot.** Oilada bolalarni estetik turkumdagi mazkur faoliyat turibilan shug'ullanishni shartli ravishda badiiy adabiyot deb atash mumkin. Aslida, uning elementlari desak ham bo'ladi. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalar roman, qissa yoki doston o'qimaydi. Ular ayrim xalq ertaklarining syujetlari bilan tanish bo'ladilar,

she'rlardan parchalar yod oladilar, ba'zi monologik parchalar, topishmoqlarni biladilar. Muhimi, bu yoshdagi bolalarda tanishilgan badiiy adabiyot syujetidagi ijobiy holatlarga, hodisalarga ular orasida estetik mazmun kasb etuvchilari ham albatta, mavjud bo'lib ishonuvchanlik, xayolparastlikni yaxshi rivojlanganligi uchun estetik tarbiyaning mazkur qismi ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda badiiy adabiyot faqat estetik tarbiya vositasigina emasligini ta'kidlab o'tish lozim. Shuning uchun ham bu turkum manbalarini tanlashda amal qilinadigan eng muhim pedagogik mezon, talab dastlab asarning umumiy tuzilishi, syujetining bolalar yoshiga, idrok etish malakalariga mosligidir. Shu nuqtai nazarda ota-onalar o'z bolalarining "bisotlari"dagi mahsulotlarni ular bilan uzviy tarzda o'zlashtirib borishlari, ularning o'z farzandlarida axloqiy-estetik sifatlarni tarkib topib borishiga safarbar etib borishlari lozim. Badiiy adabiyotining bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirish samarasida ota-onalar muhim o'rin tutishlarini tarixan isbotlanganligini eslash kifoya. Jahon she'riyatida o'z nufuzi o'rniga ega bo'lgan mashhur rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkinning enagasini, o'zbek lirik shoiri Hamid Olimjonning buvisini uzun turlarda aytgan ertaklari pirovard natijada shoir qilgani hammaga ayon. Zamondosh shoirimiz Farida Afro'z ham uni shoir qilgan, go'zallikka oshno qilgan omil sifatida dadasining Alisher Navoiy she'riyatidan bergan ilk saboqlarini eslaydi. Har uchala misolda aynan oila sharoitidagi badiiy estetik mazmundagi mashg'ulotlar ularni san'at olamiga oshno etgan.

Demak, ota-onalar o'z farzandlarida estetik tasavvurlarini shakllantirish badiiy adabiyotning barcha turlaridan oqilona foydalanishlari lozim.

✓ **Musiqqa:** kishilar hayotiga eng chuqur kirib borgan san'at turi. Agar kishi (bolalar ham) kun bo'yida bir necha bor musiqa asarini tinglasa, tasviriy san'at asarlaridan oylab, yillab bahramand bo'lmasligi mumkin. Biroq aynan musiqa bugungi kunda farzandlarimizning estetik tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadigan, ularni boshqa omillarga nisbatan osonroq o'ziga jalb etadigan tarbiya sohasi hisoblanadi. Musiqani ohangi, matni, ijrochining ovozi, tashqi ko'rinishi, hatti-harakatlari bilan bola ruhiyatiga kuchli ta'sir etish vositasi sifatida bolaning estetik tasavvurlarini noto'g'ri mazmunda shakllanishiga olib kelishi mumkin. Kino san'ati eng ta'sirchan vositaligi bilan ajralib turadi. Chunki bir qo'shiq, kuy 3-5 minut ta'sir etsa, kino 15 (multifilm) minutdan 1, 5 soatgacha bolani diqqatini muayyan darajada "ushlab" turadi. Shu bois ham oilada bolalarni ko'radigan kino mahsulotlarini qat'iy tarzda nazorat qilish lozim. Zero, buning negizida har bir shaxsning butun hayotining axloqiy meyorlarini belgilab beruvchi omillar yotadi.

✓ **Kino san'ati** bugungi kunda o'z badiiy-estetik qiymati va bilim darajasiga ko'ra keskin o'zgardi. Bu haqda mazkur ishimizning birinchi bobida batafsil to'xtalgan edik. Ota-onalarning vazifalari, musiqa san'atida bo'lganidek, kino asarlarining qat'iy tarzda saralashi lozimligi bolalarda kino san'ati vositasida oila sharoitida estetik tasavvurlarni shakllantirish eng asosiy pedagogik shartlaridan biridir.

✓ **Teatr san'ati** madaniyat va san'atni, estetikani namoyish etish maskani sifatida asrlar davomida davr sinovidan o'tib kelayotgan mo'tabar maskan, shaxs ma'naviyati, estetik madaniyatini tarbiyalash vositasi sifatida e'tiborlidir. U yoki bu san'at turini kashf etilishi, (masalan, XIX oxirida kinemotografiyani, XX asrning 50

yillarida televideniyesi) teatr san'atining inqiroziga sabab bo'lishi bashorat qilingan. Biroq bu bashorat 21 asrda ham o'z isbotini topmadi. Bu xulosadan oilada voyaga yetayotgan maktabgacha yoshidagi farzandi bor ota-onalar o'zlariga fikr qilishlari lozim. Teatr san'atidan bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ikki xilda foydalaniladi. Birinchidan, teatr mavjud bo'lgan yoki mavsumiy, bir marta bo'lsada, teatr tamoshalarini ko'rsatish mumkin bo'lgan joylarda ota-onalar o'z farzandlarini bu maskanlarga borishlarini ta'minlash shaklida amalga oshiradilar. Bunday imkoniyat yo'q joylarda televizor orqali tomosha qilish yoki ota-onalarning hikoyalari vositasida amalga oshiriladi. Biroq ularning barchasiga bir xil shart qo'yiladi. Ota-ona o'z farzandlarini bu tarbiyaviy jarayonga maqsadli tayyorlashlari lozim, tarbiyaviy jarayon to'rt bosqichdan iborat pedagogik tizim asosida amalga oshiriladi:

❖ **Birinchi bosqich** –tayyorgarlik bosqichi bo'lib, ota-ona bolada bo'lajak jarayonga muayyan qiziqish uyg'otishi lozim. Shundagina tomoshani bevosita ko'rish, idrok etish jarayoni samarali kechadi. Bu bosqichning yana bir muhim pedagogik tomoni shundan iboratki, ota-ona o'z farzandlarining qiziqishlari mazmuni va yo'nalishini to'g'ri belgilashlari lozim. Zero, qiziqmagan obyekt, (hodisa jarayon)ni kuzatgan bolada, uning u yoki bu mazmundagi tasavvurlarida, shu jumladan estetik tasavvurlarda ham sifat o'zgarishi kuzatilmaydi.

❖ **Ikkinchi bosqich** bu tomoshani bevosita ko'rish(kuzatish va eshitish), bosqichi. Bu bosqichga qo'yiladigan pedagogik talablar bolaning bir qator shaxsiy-fiziologik jihatlarning darajasiga muvofiq belgilanadi: uning umumiy rivojlanganlik darajasi, diqqati, zehni, ko'rish qobiliyati, fikrlash qobiliyati va nihoyat tafakkuri e'tiborga olinadi. Shu pedagogik talablar asosida tomoshaning vaqti, davomiyligi, mazmuni kabi ko'rsatkichlar belgilab beriladi.

❖ **Uchinchi bosqich**da bevosita ko'rilgan tomosha muhokama etiladi va bu muhokamada bolaning shaxsiy fikrga ega bo'lishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

❖ **To'rtinchi bosqich**da ota-ona ko'rilgan tomoshaga, uning muhokamasiga yakun yasab, fikrlarning to'g'ri (aynan nimasi bilan to'g'ri) yoki noto'g'ri (aynan nimasi bilan noto'g'ri) ekanligini asoslab, tushuntirib berish lozim. Bu estetikaning, estetik vaziyatlar va mazmunning o'ziga xos anglash, baholash va munosabat bildirish vositasidir. Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda qo'llaniladigan barcha san'at turlariga nisbatan shunday tayyorgarlik jarayonlarini, pedagogik tizimni qo'llash maqsadga muvofiq.

✓ **Tasviriy san'at (tasviriy faoliyat).** Aslida tasviriy faoliyat bolalarning ilk yoshlarida estetik mazmundagi, umuman ularning ongli hatti-harakatlaridagi eng salmoqli qismidir. Bola hali gapirish ko'nikmasi shakllanmay turib turli chiziq, shakllar chiza boshlaydi. Muayyan tasviriy malaka tarkib topgandan so'ng esa eng oddiy shakl va mazmundagi tasviriy faoliyat namunalarini yaratib, shu olamda yashaydilar. Bu olamda muayyan fikrlar, hayolparastlik va estetik tasavvurlar bilan yashaydi. Shuning uchun ham bu faoliyat muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bola shaxsining rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni katta ekanligini birgina Yaponiya misolida ko'rish mumkin. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatida tasviriy san'atni o'qitish uchun eng ko'p o'quv soati ajratiladi. Bundan mantiqiy fikr chiqaradigan

bo'lsak, tasviriy san'at faqat bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish vositasigina emas, balki umuman shaxs kamolotida o'ta ta'sirchan, samarali vositadir.

Masalan, bahor kelishi bilan hamma yoq o'zgacha tarovat, go'zallikka ega bo'ladi. Bolalarni bu go'zallikni ko'ra olishiga, olingan taassurotlarni o'zlarining tasviriy faoliyatlariga "ko'chirish"ga o'rgatish ularda estetik tasavvurlarni shakllantirish vositasidir. Shuningdek, musiqa san'ati, ko'shiqlar tinglash bilan olingan taassurotlarni bu jarayonga safarbar etish bu borada erishiladigan pedagogik samarani oshiradi. Bu ishning qulayligi shundaki, unda ota-onalar nafaqat bolalar qo'shiqlari, balki ayrim klassik darajadagi qo'shiqlardan ham foydalanishlari mumkin. "Fasli navbahor o'ldi" (Tavakkal Qodirov, Muqimiyy'azali), "Yana bahor qaytarmikan" (Sherali Jo'rayev), "Yana keldi Navro'zi olam" (Ikromjon Bo'ronov), "Yana kelar sen kutgan bahor" (Baxtiyor Xolxo'jayev, Sa'dulla Hakim she'ri), "Navro'z" ("Fayod" guruhi) kabi qo'shiqlarda bahor fasli go'zalligini tarannum etilishi uni estetik obrazlar yuzaga keladi va uni tasviriy vositada aks ettirish estetik tarbiyaning muhim vositasidir. Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda qo'llaniladigan barcha san'at turlariga nisbatan shunday tayyorgarlik jarayonlarini, pedagogik tizimni qo'llash maqsadga muvofiq. Tasviriy san'at (tasviriy faoliyat). Aslida tasviriy faoliyat bolalarning ilk yoshlarida estetik mazmundagi, umuman ularning ongli hatti-harakatlaridagi eng salmoqli qismidir. Bola hali gapirish ko'nikmasi shakllanmay turib turli chiziq, shakllar chiza boshlaydi. Muayyan tasviriy malaka tarkib topgandan so'ng esa eng oddiy shakl va mazmundagi tasviriy faoliyat namunalari yaratib, shu olamda yashaydilar. Bu olamda muayyan fikrlar, hayolparastlik va estetik tasavvurlar bilan yashaydi. Shuning uchun ham bu faoliyat muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda oila sharoitida estetik tasavvurlarni shakllantirish xalq amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik namunalarning o'ziga xos o'rni bor. Faqatgina, ota-onalar o'z farzandlarining diqqatini shu buyumlarga badiiy idrok nuqtai nazaridan qarata olishlari muhim pedagogik talabdir. Zero, go'zal narsa insonni butun umr qamragan bo'lishi, u esa uni qalbi bilan ko'rmasligi, anglamasligi, idrok etmasligi undan zavqlanmasligi ham mumkin. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, oilada maktabgacha yoshidagi bolalarning tasavvurlarini shakllantirishda muayyan yo'nalish yoki qat'iy belgilangan faoliyat, san'at turi ustivor bo'lishi pedagogik nuqtai nazardan meyorlanmaydi. Bu ustivorlik bir qator omillar asosida belgilanadi. Ularning asosiylari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ❖ Bolalarning har birlarini o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy moyilliklari va qiziqishlari; Ota-onalarning (buvi-buvalarning) ham qiziqishi, ham hisobga olinadi. Ular nimagadir qiziqsa, masalan, teatr san'atiga, tabiiyki ular shu san'at turidan ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar, o'z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishda shu san'at turidan ustivor tarzda foydalanadilar;

- ❖ Oilaning demografik, badiiy an'analari. Masalan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob ko'za, ko'zacha, obdasta, naqshinkor sandiqcha, dutor yoki boshqa musiqa asboblari o'sayotgan bolalarga estetik ta'sir etmay qolmaydi. Zero, kattalar ham bu buyumlarga estetik munosabat bildirib boradilar, ma'lum ma'noda bu munosabatlar ham avloddan-avlodga o'tib boradi;

❖ Mahalliy badiiy anʼanalarda. Xiva gilamchiligi, Rishton kulolchiligi, Toshkent naqqoshligi, Qoʻqon yogʻoch oʻymakorligi, Buxoro va Toshkent ganch oʻymakorligi, Buxoro zardoʻzlik buyumlari, Shahrisabz soʻzanalari, Chust va Margʻilon doʻppilari va hokazolar:

Ota-onalarning kasb-kori ishchi, fermer, chorvador, hunarmand, sanʼatkor (aktyor, xonanda, sozanda rejissor va hokazolar), murabbiy-oʻqituvchi va hokazolar; Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish badiiy qadriyatlarining boshqa turlari ham samarali qoʻllanilishi mumkin. Ayniqsa, meʼmorlik va uning tarixiga oid maʼlumotlar nafaqat estetik tasavvur, balki taʼlim-tarbiyaning boshqa jihatlari, xususan bolalarda vatanparvarlik, milliy gʻurur va milliy tuygʻu kabi sifatlarni shakllantirishda alohida eʼtiborga molik Shaxs kamolida oila bosh omil ekanligi isbot talab qilmaydigan tamoyildir. Shuning uchun, insoniyat jamiyatida oila va bola taʼlim-tarbiyasi, oila va farzand munosabatlari hamisha oʻrganilib, takomillashtirilib kelingan. Zero, oila faqat maslaklari borlarni birlashtirgan maskan, “mashina” emas, balki “oilada hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taʼminlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson boʻlib yetishishiga taʼsir koʻrsatadigan tarbiya oʻchogʻidir” yaʼni oila jamiyat taraqqiyotining poydevori boʻlib kelgan va shunday boʻlib qoladi. Shuning uchun ham oilada ota-onaning oʻrni beqiyosdir.

Tajriba va kuzatishlar maktabgacha taʼlim muassasasi va ota-onalar (oilada) hamkorligida oʻtkaziladigan har qanday tadbirlar maktab yoshdagi bolalar, xususan, katta guruhdagi kichikintoylar tarbiyasiga ijobiy taʼsir etishini koʻrsatadi. Shunga koʻra, tarbiya –bu hammaning ishi ekanligini doimo yodda tutish va uni oʻzaro koʻmakdoshlik bilan amalga oshirish jamiyat oldidagi masʼuliyatli faoliyatimiz, vijdoniy burchimizdir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab faoliyat koʻrsatgan taniqli tatar maʼrifatparvari Rizouddin ibn Faxruddin oilada farzand taʼlim-tarbiyasida onalarning oʻrni alohida ahamiyatga molikligini uqtiradi. Va ota-onalarni, ayniqsa, onalarni “*ipogʻu harirlarga bezanib, toʻyu tomoshalarda yurishlari...*” qattiq tanqid ostiga oladi. Agar bu tanqidga bugungi kun nuqtai nazaridan qaraydigan boʻlsak, ishga boradigan ayol(ona)larning farzand taʼlim-tarbiyasidagi ishtiroki, ulushi ham mazmun, ham hajm jihatidan kamayib bormoqda.

Oila va farzand (bola) munosabatlari bola taʼlim-tarbiyasi haqidagi gʻoyalar ichida Rizouddin ibn Faxruddinning yana bir fikri eʼtiborlidir. “*Oilada bola tarbiyasida onaning, ayniqsa, onaning oʻrnini hech narsa bilan almashtirib boʻlmaydi. Yaxshi xotin bolalarini ham yaxshi tarbiyalay oladi: xotinlar birinchi navbatda murabbiylardirlar; xotinning oila tebratishi murabbiylik xamiridan patir qilishi, uning tandirida oʻsha patirni yopish degan soʻzdir. Bolalar har qanday xislatni eng avval ota-onalari va uydagi kattalar –bobolari va buvilaridan oladilar*”. Demak, oila maʼnaviyati bola taʼlim-tarbiyasidagi bosh ijtimoiy fon boʻlishi lozim. Bu holatning falsafiy talqini haqida fikr yuritar ekan, M.Xolmatova oilaning maʼnaviy olami ijtimoiy taraqqiyotning taʼsiri va uning mahsuli boʻlsa ham u oʻz navbatida ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli taʼsir oʻtkazishini umumqadriyatlarimiz qonunlaridan kelib chiqishini taʼkidlaydi .Oilada ota-onaning bosh vazifasi bola taʼlim-tarbiyasi, unga odobu axloq, zehn ato etishligi tarixiy manbalarda, buyuk allomalarning taʼlimotlarida

ko'p bor zikr etilgan. Hadisi Sharifda aytiladiki, "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi". Shuningdek, J. Lokkning ta'kidicha, "xalqning baxt-saodati bolalarni to'g'ri tarbiyalashda". Oilada bolalarda dunyo haqidagi, shu jumladan, estetik tasavvurlarni shakllantirish ota-onalarning o'zni shundaki, bola dunyoga kelib olamni, uning qonuniyatlarini o'zlashtirishga kirishadi. Bu jarayon kuzatish, so'rash, tahlil etish, fikrlash va xulosa chiqarishdan iborat "tadqiqiy" jarayondir. Bu jarayonda bola "Nima uchun?"ni asosiy qurol, vosita sifatida qo'llaydi, ko'proq bilishga intiladi. Bu nafaqat bolalikning, balki Emil Zolya ta'kidlaganidek, insonning butun umrini ma'nosidir Inson o'z umri davomida mavhumlikni to'xtovsiz zabt etish, tobora va hamisha ko'proq bilishga intiladi. Bu natija faqat faoliyat tufayligina ta'minlanadi. Agar maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlar bola muayyan faoliyat tufayli mavhumlikni bartaraf etib borsa, oila sharoitida ota-ona va bola munosabatlari ham muayyan faoliyatdir:

- bola so'raydi, ota (ona) javob beradi;
- bola nimadir qiladi, ota (ona) uni to'g'riylaydi (undoq emas, bundoq qilish kerak, ba'zan bajarib ko'rsatadi, buni qilish mumkin emas, deb tanbeh beradi va hokazo).

Bu hamkorlikdagi faoliyat shaklidir. Aynan faoliyat barcha o'zgarishlarni, jumladan, bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish asosidir. Shuning uchun ham Bernard Shou :- "*Bilingma eltuvchi yagona yo'l, bu faoliyatdir*", -deb uqtiradi. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning pedagogik bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bolalardagi u yoki bu faoliyat turiga moyillikni to'g'ri aniqlash va unga mos yo'nalish berish alohida e'tiborga molik. Zero, "*insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladi*"- Abdulla Avloniy.

Shu o'rinda bir lirik chekinish qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqining madaniyati, estetik qadriyatlarini tarixida Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani alohida hurmat, ehtirom ila tilga olinadi. Unda ma'naviyat, madaniyat, axloqiy-estetik munosabatlarning klassik namunalarni ko'rishimiz mumkin: Oilaning har bir a'zosini o'z munosabat uslublari, hatti-harakat tamoyillari bor. Ular oilaning har bir a'zosi, har bir vaziyat uchun alohidalik, o'ziga xoslik kasb etadi.

Otabek -Kumush, Otabek -Yusufbek hoji, Otabek -Qutidor, Otabek -Zaynab munosabatlari bunga misol bo'la oladi. Munosabatning har bir vaziyatida ma'naviy-estetik namuna mavjud. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar, uni bolalarda estetik tasavvur hosil qilishga yo'naltirishda "O'tgan kunlar"ssenariysini andoza qilib olish mumkin .

Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda, umuman barkamol shaxs tarbiyasiga zamin yaratishda ota-onaga nisbatan bobo-buvilarning o'zni ko'proq. Mirzo Ulug'bekni buvisi Saroymulkxonim nabirasini buyuk olim, ma'naviyati yuksak darajadagi inson va davlat arbobi sifatida shakllanishida muhim o'rin tutgani tarixdan ma'lum. sozandalar, aktyorlar, rassomlar hayotlaridan misollarni yuzlab keltirish mumkin. Oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda oiladagi ijtimoiy muhit, uning mazmuni, amal qilish tamoyillari, u yoki bu holat, vaziyatni baholash mezonlari, qo'llaniladigan uslublarlar,

yondashuv va vositalar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bolada tasavvurni, shu jumladan, estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda makro-muhit (bola yashayotgan jamiyat) dan ko'ra ko'proq mikro-muhit (bola yashayotgan oila) ning ta'siri kuchliroq.

Chunki, bola hali keng ma'nodagi muloqot, ijtimoiy harakat muhitining subyektiga aylanmagan, uning asosiy hayoti o'zining oilasida kechadi. Aynan shuning uchun ham oila estetik arsenalidagi barcha tamoyillarini bolaning estetik tasavvurlarini shakllanishiga safarbar etish muhim tarbiyaviy tadbir sifatida ahamiyatlidir. Oilada bolaning estetik tasavvurining shakllanishi bevosita va bilvosita kechadi. Bu ikki xillik ham bolaning faoliyatida, ham uning ota-onalarining faoliyatida kuzatiladi, ya'ni bola kattalarning hatti-harakatlarini kuzatib, o'zlashtirib boradi. Faraz qilaylik, ona estetik jihatdan bachkana kiyim kiyishga moyilroq. O'zining bu harakatini farzandiga tushuntirmaydi, sharhlamaydi. Tabiiyki, bola undan o'ziga tegishli xulosa chiqarib boradi. Ba'zi hollarda uni o'ziga go'zal deb qabul qiladi. Bu onaning bolada estetik tasavvurni shakllanishiga bevosita ta'siri bo'lib, bu salbiy ma'no kasb etadi, ya'ni bola onasining kiyimini estetik holatdagi namuna sifatida qabul qiladi.

Boshqa holatda ona tom ma'nodagi go'zallik namunasi bo'lishi mumkin bo'lgan o'ziga mos va xos kiyimning estetik jihatlari farzandiga tushuntiradi, birga uni izoxlaydi. Aniqroq aytganimizda, onasi va farzandi o'rtasida estetik mazmun va yo'nalishdagi munosabat o'rnatiladi. Oilada bolalarning estetik tasavvurlarini shakllantirishda bu jarayonning aqliy zaminini tarkib toptirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero, har bir holatning muayyan nazariy sharhi mavjud bo'lib, uning sohalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib borish bolalarning estetik tasavvurini ongli shakllanishini pedagogik kafolatidir. Shu ma'noda ota-ona va farzand munosabatlarida bu omil doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim.

Bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda turli bayramlarga (tug'ilgan kuni, Yangi yil, Navro'z bayrami va boshqalar) birgalikda tayyorgarlik ko'rish va unda oilaning har bir a'zosi, shu jumladan, maktabgacha yoshdagi bolaga individual ham jamoa bo'lib bajariladigan topshiriqlarni berilishi birinchidan, bolada estetik mazmun kasb etuvchi holatni vujudga keltirish (yaratish) da ishtirok etishi natijasida uning dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ikkinchidan, bu jarayonda hamkorlik faoliyati (masalan, ona va qiz, ota va o'g'il, ona va o'g'il va xokazo) vositasida nafaqat estetik tasavvur shakllanib boradi, balki hamkorlik faoliyatini tashkil etish ko'nikmalari, malakalari mas'uliyatni his etish, bir so'z bilan aytganda, ota-ona va farzand munosabatlarining bolaning dunyoqarashini shakllanishidagi muhim shartlaridan biri -hamkorlik etikasining meyoriy shartlari o'zlashtirib boriladi. Oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-ona va farzand munosabatidagi estetik mazmun har doim bosh omil hisoblangan. Bu jarayon shu darajada tamoyillarga boyki, shuning uchun uni ijtimoiy-pedagogik, psixologik, tarixiy-falsafiy nuqtai nazarda tadqiq etish lozim. Birgina misol. Ota-onaning o'z farzandini individualligini inobatga olmagan holda tinimsiz nomaqbul ko'rsatma berishi (qachon va qanday teleko'rsatuv ko'rish lozimligi, kim bilan, qachon va qancha vaqt qanday o'yin o'ynashi, qanday rangdagi, qanday shakldagi kiyim kiyishi) bolaning tabiiy moyilliklariga mos tushmagan taqdirda unda dunyoqarashni, shu jumladan, uning tarkibiy qismi – estetik tasavvurlarni shakllantirish “sinish”

yuzaga keladi, ya'ni bolaning tasavvurida sun'iy tarzda, majburiy o'zlashtirilgan, anglanmagan tushuncha va tasavvurlar tarkib topib boradi. Biroq bu tasavvur dastlabki aniq holat yuzaga kelishi bilanoq yo'q bo'lib ketadi. Shuning uchun ham ota-ona va farzand munosabatlarini estetik tasavvurlarni shakllantirishdagi faoliyatning muhim tamoyil sifatida qaralishi lozimligiga alohida urg'u berish lozim. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning bolalar bilan munosabatida yaqqol sezilishi mumkin bo'lgan jihatlaridan biri ota-onaning o'z farzandlarini nafaqat oila sharoitida subyektiv holatlarni anglashga, balki olamni estetik mazmun nuqtai nazaridan anglashga har tomonlama yondoshishga tayyorligi bilan belgilanadi. Bu tayyorlik oila sharoitida ota-ona va bola munosabatlarida muttasil tarzda qo'llanilishi pirovard ijobiy natijaning pedagogik kafolatidir. Oila sharoitida ota-onalar alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri bu –atrof-muhitni, olamni, shu jumladan oiladagi mikro-muhitni bola tomonidan qiziqish bilan idrok etish estetik tasavvurlarni shakllanishining belgilovchi omillaridanligidir. Ota-onalarning bu boradagi faoliyati uch yo'nalishda olib boriladi.

Birinchi yo'nalish—ota-onalar farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllanishi uchun qulay oilaviy mikromuhit yaratishlari lozim.

Ikkinchi yo'nalish —ota-onalar o'z farzandlarining estetik mazmun va yo'nalishdagi faoliyatlarini kuzatib, lozim bo'lgan vaziyatlarda bu jarayonga ma'lum ijodiy o'zgartirishlar kiritish, bu jarayonni pedagogik jihatdan boshqarishlari lozim.

Uchinchi yo'nalish —bu bevosita ota-onalarning o'z xatti-harakatlari, faoliyatlari, estetik qiziqishlari, bilan bolalarini uz ortlaridan ergashtira olishlari, ya'ni o'rnatq, ibrat bo'lishlari lozim.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, ko'p hollarda ota-ona va bola munosabatlarida ta'qiqlovchi ko'rsatmalar ustuvorlik qiladi. Bu jarayonda bir qator noto'g'ri qarorlar qabul qilinadiki, uning zamirida pedagogik o'quvsizlik, ta'bir joiz bo'lsa, savodsizlik yotadi. Aslida, ota-ona o'z farzandiga ta'qiqlab qo'ygan narsasini o'zi xotirjam bajaradi. Masalan, uzoq muddat davomida televizor ko'radi, bir-biriga, shu jumladan farzandlariga qo'pol muomalada bo'ladi, qo'shnisiga yolg'on gapiradi va hokazo. Axloqiy jihatdan xunuk bu holatlar, bevosita estetik tasavvurlarni to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, taqlid maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ota-onalarning faoliyatlarida, bolalarga nisbatan munosabatlarida haqqoniylik, obyektivlik bosh mezon bo'lmog'i lozim.

Estetik tarbiya tizimida qo'llaniladigan asosiy tamoyil –go'zallik va xunuklikni anglay va baholay bilishga o'rgatish yuqoridagi holatlarda aniqlik kasb etmay qoladi. Muhimi har bir narsani, shu jumladan estetik jarayon, hodisa, obyektarni qanday bo'lsa o'shandayligicha qabul qilishga o'rgatishdir. Har qanday kishiga (voqea va hodisaga, obyektga va xokazo) nisbatan simpatiya(yoqimli) va antipatiya (yoqimsiz) munosabat bo'ladi. Ular oxir-oqibat o'rin almashishi mumkin. Bu ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Estetik tasavvurlarni shakllantirishda ham shu jihatlar muhim ahamiyatga ega. Estetik tasavvurlarni shakllantirishda bu jihatlarning muhimligini e'tirof etgan holda o'ziga xoslikka ham ega ekanligini yodda tutmoq lozim. Xususan, bolalarda estetik

tasavvurlarni shakllantirishda har bir bolaning o'ziga xosligi, ularning tabiiy moyilliklari va qiziqishlari ham diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Ota-ona va farzand munosabatlarida aks munosabat, aloqa, muhim o'rin tutadi. Bu aloqa birinchidan, munosabatlarni muvofiqlashtirish, ikkinchidan, natijalarni kuzatish, uchinchidan, hatti-harakatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Muhimi, ota-ona va farzand munosabatlarining muntazamligini ta'minlash xilma-xil bo'ladi. Ular har doim ham so'z vositasida ifodalanmasligi mumkin. Bu borada ota-onalarning pedagogik bilimlari, sezgirliklari faoliyat mazmuni va uni rivojlanib borishini belgilab beradi. Masalan, ota-onaning o'z farzandida estetik tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan sayi-harakatlari farzandlarining harakatlarida, faoliyatida ko'rinishi mumkin. Ayrim hollarda bu faoliyat maxsus namoyish etilgan holatda bo'lmasligi mumkin. Muhimi, farzandning nutqida, u yoki bu harakatida, xulqida, biror bir faoliyatga bo'lgan qiziqishda, bajarayotgan ishining sifat darajasida namoyon bo'ladi. Ota-ona farzandining bu harakatlarini kuzatayotganini oshkor etib, salbiy holatlarni to'g'rilab borishi lozim. Shunda farzand har qanday faoliyat nazoratda ekanligini anglab boradi. Qolaversa, yaxshi-yomonni farqlashga o'rganib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi har ikkala tomonlarga ma'suliyat yuklaydi. Ta'kidlash joizki, to'liq oilalarda nafaqat ota-ona va farzand munosabatlari, balki ota-ona (er-xotin) ning o'zaro munosabatlari ham farzandlarning tarbiyasida, ularning estetik ong, tasavvurlarini shakllanishida ayrim hollarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

▲ ***Oilada kim hukmron?***

▲ ***Otami -onami?***

Aslida kimligidan ko'ra bu holatning mazmuni muhimroq. Masalan, ota onaga o'z hukmini "Meni aytganim bo'ladi", "Mendan beso'roq nimaga bunday qilindi?" kabi mulohazalar bilan o'z farzandining ma'naviy-axloqiy, jismoniy, ruhiy va badiiy-estetik kabi tamoyillarini shakllanishiga nisbatan bildirilgan mulohaza, taklifga, qilingan harakatga nisbatan rad javobini berilishi ota-onaning farzand istiqbolini emas, balki o'z hukmronligining eng to'pori usulda bayon qilishga qaratilganligidir, ya'ni bu holatda ota (ona) uchun o'z hukmini o'tkazish istagi farzand tarbiyasidan ko'ra muhimroq ko'rinadi. Bu holatning aksi sifatida bolalarning sayi-harakatlari, qiziqishlari, shu jumladan estetik qiziqishlarini rag'batlantirilishi, ya'ni, bolalarning ota-onaning qo'llab-quvvatlashini his etishi bolaning ruhiy-qiziqish xotirjamligini ta'minlaydi. Bu har qanday faoliyatni, shu jumladan estetik mazmuni o'zlashtirish jarayonini ishtiyoq bilan kechishini ta'minlaydi. Biroq bu holatda ham muayyan meyor bo'lishi lozim. Uning ko'pligi bolani erkatoy, o'zini o'ylovchi bo'lishi, kamchiligi esa ruhiy kelishmovchilikni kelib chiqishiga olib keladi. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini pedagogik tashkil etish uchun alohida tashxis, andoza yo'q. Shunday bo'lsada, kuzatuvlar, tahlillar asosida oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalar quyidagilarga e'tibor berishlari muhim:

➤ maktabgacha yoshidagi bolalar psixologiyasida o'yin faoliyatiga bo'lgan moyillik asosiy o'rinni egallagani bois estetik mazmundagi mashg'ulotlarda ulardan o'rinli foydalanish lozim;

➤ oilaviy ta'lim;

➤ tarbiyaning qulaylik tomoni shundaki, unda asosan bolalar bilan individual ishlanadi.

Har bir bola o'ziga xos. Aynan shuning uchun ham ota-onalar o'z farzandlarining hatti-harakatlari, qiziqishlarining, shu jumladan estetik mazmundagi qiziqishlaridagi individualliklarga monand "rahbarlik"ni yo'lga qo'yish joiz.

✓ Ota-onalar nafaqat o'z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirish, balki butun oilaning estetik madaniyati, ehtiyojlarini muttasil oshirib borishga intilishlari lozim. Chunki, oila a'zolarining estetik qiziqishlari dialektik uzviylikda, o'ziga xos tamoyillari asosida rivojlanib boradi. Bu omil bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zero, estetik didi past, estetik ehtiyoji qashshoq oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini samarasiz kechadi.

✓ Ota-onalar o'zlarining bolalariga nisbatan munosabatlari, hatti-harakatlari "pedagogik faoliyat"laridagi, o'ziga xos ta'limiy samara bergan pedagogik shart-sharoitlar, uslubiy yondashuvlarni tahlil etib borishlari, ularni muttasil boyitib borish choralarini ko'rishlari lozim.

✓ Ota-onalar o'zlarining pedagogik bilim va uslubiy mahoratlarini muttasil oshirib borishlari, unda asosiy omil sifatida madaniyat va san'at, jamiyat hayotidagi taraqqiyotlaridan foydalanishlari hamda bolalarida estetik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vositalari, shakl va uslublarini qo'llash jarayonini tashkil etishlari lozim.

✓ Oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini uzviy, uzluksiz va muntazam bo'lishini ta'minlash, bu jarayonda yangi estetik bilimlarni bosqichma-bosqich egallab borish hisobiga bolalarda shakllantirilayotgan estetik tasavvurlarni yangi mazmun bilan boyitib borish va xokazo.

Aytib o'tilgan uslubiy yondoshuvlar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tavsiya xarakteriga ega bo'lib har bir oila (ota-ona) farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishda o'ziga xos maktabga ega bo'lishlari lozim. Bu ota-ona va farzand munosabatlarining ma'naviy, axloqiy, estetik ahamiyat, mazmun kasb etishi bosh tamoyili sifatida qabul qilinmog'i lozim. Muhimi, ota-onalar Rizouddin ibn Faxruddin ta'kidlaganidek, barcha ishni anglagan holda o'z farzandlariga ham anglatib o'rgatishlari lozim. Zero, Anglamay o'qimoq va anglanmagan narsalarni o'rgatmoq sababidan bolalarning zehnlari qisilar, g'ayratlari so'nar.

Estetik tasavvur ko'p sifatlarning debochasi. Shuning uchun unga bolalarni ilk yoshidan oshno qilish lozim. Zero, Fyodor Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga yo'llab bo'lmaydi. Shu bois ota-ona va farzand munosabatlarida farzandlarni hayotga to'g'ri shakllangan estetik tasavvurlar bilan yo'llash barkamol avlod tarbiyasining muhim shartlaridan biridir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, oila ma'naviyati, oila madaniyati, oiladagi psixologik muhit,uning badiiy–estetik holatlari bolalarda turli mazmundagi tushuncha

va tasavvurlarni shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra oilada bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirishda bevosita madaniyat va sa‘natning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham oila sharoitida maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuniga qo‘yiladigan pedagogik talablar, uni belgilash (tanlab olish) mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta‘kidlash joizki, amaliy sa‘nat, hunarmandlik, sa‘nat turlari bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai sifatida aynan oilada o‘rganish ko‘proq samara beradi. Shu o‘rinda oilaviy badiiy-estetik muhitning o‘rni beqiyosdir. Oilada bolalarda dunyo haqidagi, shu jumladan, estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning o‘rni shundaki bola dunyoga kelgach olamni, uning qonuniyatlarini o‘zlashtirishga kirishadi. Bu jarayonni kuzatish, so‘rash, tahlil etish, fikrlash va xulosa chiqarishdan iborat “tanqidiy” jarayondir. Bu jarayonda bola “Nima uchun?”ni asosiy qurol, vositasi sifatida qo‘llaydi va u ana shu so‘roq orqali atrof–muhitni ko‘proq bilishga intiladi. Ana shu davrdan samarali foydalanish ota-onalarimiz qo‘lidadir. Shunga ko‘ra esa ota-onalar uchun metodik ko‘rsatmalar va qo‘llanmalar yaratish kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda makro-muhit (ya‘ni bola yashayotgan jamiyat)dan ko‘ra ko‘proq mikro-muhit (bola oila)ning ta‘siri kuchliroqdir. Chunki bu davrda bola hali keng ma‘nodagi muloqat, ijtimoiy harakat muhitning subyektiga aylanmagan bo‘lib, uning asosiy hayot tarzi oilada kechadi. Shuning uchun ham oilada bolalarga estetik ta‘lim berishda ota-onalarning o‘ziga xos tayyorgarlik jihatlari ham muhim ahamiyatga egadir.



Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy jarayon to‘rt bosqichdan iborat pedagogik tizim asosida amalga oshiriladi, ularni ta‘ta‘riflab bering?
2. Estetik tasavvurni shakllantirishda ota-onaning mas‘uliyati katta, shu sababli bu mas‘uliyat ulardan estetikaga aloqador qanday sohalarni bilishni talab etadi va nima uchun?
3. Bolalarda estetik tasavvurni shakllantirishdagi asosiy omillar nimalardan iborat?
4. Oila va maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamkorligida tarbiyalanuvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash metod, shakl va vositalarini ta‘riflang?
5. Oila va maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamkorligida tarbiyalanuvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘llarini sanab bering?
6. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya mazmunini nimalardan iborat?
7. “Tarbiya” so‘zining kelib chiqishi va mazmunini tushuntirib bering?
8. O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta‘lim-tarbiyaga oid boy merosning hozirgi kundagi ahamiyati qanday?



5-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAXSNI SHAKLLANTIRISH

Tayanch tushunchalar: *Vatan, xalqparvarlik, massagetlar malikasi, shaxs ma'naviyati, ma'naviy dunyo, shaxs ma'naviyati, ma'naviyat olami, millat taraqqiyoti, milliy ma'naviy ehtiyojlar va talablar, millat ruhi, urf odatlari, marosimlar, ma'naviy manbalar, asriy an'analar, barqaror taraqqiyot, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy manbalar, milliy an'ana va qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy tarbiya, milliy axloq va odob.*

Milliy qadriyatlarning bola ijtimoiylashuvidagi o'rni.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning archasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari **qadriyat** deyiladi.

Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlarini, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshoatlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi. Masalan, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yiligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rishi, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlari bo'lib hisoblanadi Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir,

chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq".

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analari ozbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Yoshlar tarbiyasida islom ma'rifatining muhim o'rnini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qator g'oyalari va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to'g'risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi. Buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy-ma'rifiy meroslarini o'rganishdan tashqari, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi yoshlarni buyuk va shonli o'tmishga hurmat hamda iftixor bilan qarash, ulug' ajdodlarga munosib avlod bo'lishga, ilm va ma'rifat olishga intilish ruhida tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuxratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, milliy-ma'naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida milliylik va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning xayoti va ijod yo'liga oid bo'lgan videofilmlarni qo'yib ko'rsatib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Albatta, har bir xalq o'z milliy qadriyatlari qobig'idagina o'ralib qolmasligi kerak. Boshqa millatlarning qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan.

Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf odatlari, marosimlari qachonki boshqa millat ruhiga, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi. Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarimas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy,

iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi. yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash. bu yosh avloddan milliy g'oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda. Uning negizi milliy qadriyatlarimizdir. "Yangicha yashash. ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot qurish tuyg'usi esa yosh avlod oldiga keksa avlodga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, ong va tafakkur xamda ma'naviy qadriyatlardagi uzgarishlar xayot talabidan orqada qolayotganligi ma'naviy salohiyatdagi qusurlar bilan bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish, esa maqsadga muvofiqdir.

Tabiiyki, ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jismu jonida ildiz qoldiradi. Bularning mohiyatini va ahamiyatini inobatga olgan holda, oilaga e'tiborimizni kuchaytirishimiz, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab - quvvatlash — bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor. O'z mohiyatini anglab etgan inson qalbida ulug' bir tuyg'u, mehr tuyg'usi uyg'onadi va uning butun borlig'ini chulg'ab oladi. Mehr tuyg'usi sanab o'tilgan uch buyuk imkonni o'zaro uyg'unlikda birlashtirib, inson ko'nglini, Navoiy iborasi bilan aytganda, "haqiqat asrorining ganjinasi" ga aylantiradi. Zero, bu uyg'unliksiz ma'naviyat olami zuhur etmaydi. Insonni tanish odobdan, oila tarbiyasidan boshlansa, u bilan muloqot davomida axloqiy xislatlarini bila borasiz. Va'daga vafo qiladimi, do'stga sadoqati qanday, himmati va sahovati, jur'ati va shijoati, o'ktamligi va oriyati — barcha axloqiy fazilatlarini birma-bir ko'z oldingizda namoyon bo'la boradi.

Bu fazilatlar majmui zamirida esa yaxlit shaxs ma'naviyati nurlanadi. Axloq ma'naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo'lsa, odob o'z navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab etish odobdan axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranlashib boradi. Ushbu yuksak insoniy fazilatlar oilada tarbiyalanadi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma'naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir erga jam etganda ham baribir, uning ma'naviy dunyosini to'liq qamrab olgan bo'lmaysiz.

Allomalar inson ko'nglini tilsim ataydilar. Ko'ngil ko'zguisidagi ma'naviyat nuri tufayli har bir inson o'zi sehrli tilsimga aylanadi, mohiyatan cheksizlik kasb etadi. Demak, inson ko'ngli ilm, irfon xazinasi, Haq sirini o'zida yashirgan tilsim ekan. Inson shu sababli buyukdir. Irfon Haq sirini qalb bilan anglab etish bo'lib, unga erishish,

tushunib etish oson emas. Buning uchun inson atrof-voqelik, tabiatga, oilaga, o'zga insonlar, bashariyatga, Vatan va millatga, ota-ona, farzand, do'stga nisbatan huquq va burchlarini mukammal anglab etmog'i, o'zining ichki qudrati va salohiyati, ruhiyati, iroda va himmatini qalban his qilmog'i zarur. Har bir inson bu yorug' olamga bu sinov maydoniga bir oliy vazifa bilan kelgan. O'sha asl vazifasi nima ekanini topa bilmasa, tushunib etmasa, bu dunyodan notamom o'tib ketmog'i mumkin. Ruh tarbiyasi va uning irsiyatga ta'siri haqida ajdodlarimiz ko'p ibratli kitoblar qoddirganlar. Jumladan, XIII asrda yashab o'tgan Shayx Najmiddin Kubroning iste'dodli muridi Najmiddin Doya qalamiga mansub "Mirsod ul-ibod min al-mabda ilalmaod" ("Alloh bandalarining boshlang'ichdan tugallanishgacha bo'lgan hayot yo'li") risolasida ruhshunoslik, oila va inson ma'naviy takomili haqida mufassal mulohazalar mavjud. Bu kitobning millat ma'naviy takomiliga ta'sirini bilgan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) XIX asrda maxsus topshiriq berib uni fors tilidan o'zbekchaga o'girtirgan va kitobat ettirgan.

Risolaning birinchi bobi — debocha, 5 fasldan iborat ikkinchi bobi esa inson ruhining tabiati, oila tarbiyasi, ruh va tan nisbati kabi masalalarga oid bo'lib, mohiyatan ruhshunoslikka muqaddimadir. Kitobning eng asosiy qismi uchinchi bob — 20 faslni o'z ichiga oladi. Unda inson tarbiyasining barcha asosiy masalalari qamrab olingan. O'zlikni anglashning pog'onalari bor. Shaxsning o'zligini anglashi uning o'z insonlik mohiyatini anglay borishi bilan belgilanadi. Inson moddiy vujud ekan, avvalo, o'zining moddiy makonsiz mavjud bo'la olmasligini anglab etsa va unga nisbatan ko'nglida mas'uliyat uyg'onsa, ushbu mas'uliyat ma'naviyat atalmish botiniy quvvatga dastlabki tutashuvni hosil qiladi. Insonni Shaxsga aylantiruvchi ma'naviy kamolotning birinchi pog'onasi shudir. Ayni shu pog'onada Vatan tuyg'usi shakllanadi. Markaziy Osiyoda bir necha ming yillar osha yuzaga kelgan tarixiy taraqqiyot jarayonida mif va afsonalar ijodiy qayta ishlangan, yangi-yangi voqea va ma'lumotlar, fikr-tushunchalar va g'oyalar bilan boyib, takomillashib insoniyat ma'naviy madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan. "To'maris", "Shiroq", "Zariagr va Odatida", "Zarina va Striangiya", "Uch og'aini botirlar", "Qahramon", "Malikai Husnobod" kabi qissalar va "Alpomish", "Qirqqiz", "Go'ro'g'li", "Ravshan", "Avazxon", "Chambil qamali", "Oysuluv" singari dostonlarda ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar ilgari surilgan. Qahramonlik haqidagi dostonlarning, ertaklar va afsonalarning falsafiy mohiyatini belgilaydigan, ularning asosiy negizini tashkil etadigan umumiy g'oya - inson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh Vatanning istiqloli va istiqboli, erki va mustaqilligi uchun tashqi dushmanlarga qarshi murosasiz kurashish har erkagu ayolning, kattayu kichikning oliy insoniy burchi ekanligi haqidagi fikr-mulohazalardir.

Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyatlar fikrimizga misol bo'ladi. To'maris haqidagi qissada massagetlar malikasi To'marisning Eron bosqinchilariga qarshi kurashdagi mardligi, dovyurakligi, jasorati, donishmandligi, vataniga sadoqati, dushmanlarga nisbatan ziyrak va hushyorligi chuqur bayon etilgan. Vatanni himoya qilish, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketganligi Shiroq haqidagi tarixiy rivoyatda ham chuqur va har taraflama ochib berilganligini eslatib o'tish mumkin. Xalq bilan hamnafas, hammad bo'lish, unga

yaxshi kunlarda ham, boshiga musibat tushgan qorong'u kunlarda ham sadoqatli bo'lib, astoydil xizmat qilish mo'min musulmon farzandi uchun eng katta baxt hisoblanib, kelgan. *"Yaxshi hayot va uzoq yashash uchun, xalqning duosi va shodligidan yaxshiroq posbon va qo'riqlovchi yo'q"* - deydi, Barxurdor ibn Mahmud.

Xalqparvarlik barcha insonlarga mehr-oqibatli bo'lish, ularni hurmat-izzat qilish bilan chegaralanadigan munosabatlarga emas, albatta. Ushbu xususiyat va xislatlar avvalo oilada tarkib topadi. Xalqparvarlik eng avvalo har bir inson tomonidan boshqalarga nafi tegadigan amaliy harakatdir. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, masalan, moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi har bir mehnatkash uchun xalqparvarlik bu mehnat unumdorligini oshirib, xalqimiz uchun zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlarini sifatli va o'z vaqtida yetkazib berish demakdir.

Ota-onalarning bola tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishi.

Vatan — sermazmun, juda ham keng tushuncha. U yashab turgan uyimizdan boshlanadi. Xalqimiz uy qurgan odamni "vatanli bo'lib qoldi", deyishi bejiz emas. "Vatan ostonadan boshlanadi" degan ibora barcha xalqlarda borligi ham shundan dalolat beradi. Bizning xalqimiz o'zi tug'ilgan joyga juda katta muhabbat bog'laydi. Shuning uchun ham ular boshqa joylarga ko'chishni xohlashmaydi. Boshqa joylarga ketganda ham doimo o'zi tug'ilgan el-yurtidan aloqasini uzmay, uni ziyorat qilib turadi. Bu ham Vatanga sadoqatli bo'lishning ko'rinishidir. Vatan insonning ota-onasi, oilasi, qarindosh-urug'lari, o'zi tug'ilib o'sgan joygina emas, balki yoshlik davrlarni boshidan kechirgan, yugurib-elib o'ynagan, sayr qilgan dalalar, cho'milib yurgan soylar, daryolar, oromgoh bog'lar, tog'lar, tabiat muhitidir. Demak, Vatanni sevmak kindik qoni to'kilgan joy tabiatini sevmak, uning uchun qayg'urish ham demakdir. Vatan — bu birinchi maktab, birinchi bilim, orttirilgan do'stlar, bilim berib voyaga etkazgan o'qituvchilardir. Shuning uchun ham inson qancha yoshga kirmasin, qayerda ishlamasin, birinchi maktab, birinchi o'qituvchi, maktabdoshlarini hech qachon yoddan chiqarmaydi, ularga doimo hurmat-izzat bilan qaraydi. Vatan bu o'sib-ulg'aygan mahalla. Mahalla yoshlik davrining eng yaxshi kunlari kechgan hozirgi hayotida ham hamdard, hamnafas bo'lib kelayotgan qo'ni-qo'shni, do'stu birodarlar maskanidir. Mahallaga hurmat, mahalla ahli bilan doimo maslahatli ish qilish, to'y-tomoshalar va boshqa tadbirlarni o'tkazishni har bir inson o'zining muqaddas burchi deb bilgan. Hozir ham mahalla ahlining roli tobora kuchayib bormoqda. Vatan bu oila hamdir. Shunday ekan oilaga, kindik qoni to'kilgan joyga mehr-muhabbatda bo'lish ayni vaqtda Vatanga sadoqatli bo'lish demakdir. Oila jamiyatimizning asosini tashkil qiladi. Oila a'zolarini, ular tug'ilgan va istiqomat qiladigan uy-joyni e'zozlash, ayni vaqtda har bir oilaning, insonning shajarasini, tarixini yaxshi bilishini taqozo etadi. Har bir inson, o'z oilasi, ota-ona, el-yurt tarixini, shajarasini yaxshi bilib olishi lozim. Bunda ayniqsa oila, maktab katta rol o'ynaydi. Vatan bu har bir inson ishlayotgan mehnat jamoasi, o'qiyotgan bilim yurti, ijtimoiysiyosiy muhit hamdir. Mehnat jamoasining inson hayotida tutgan o'rni katta. Chunki mehnat jamoasida har bir inson hayot maktabini o'tab, mutaxassis bo'lib etishadi, ma'naviy kamol topadi, hayotda o'z o'rnini egallaydi, shuhrat qozonadi. Vatan — bu har bir kishining yashab turgan qishlog'i, shahari, tumani, viloyati. Shuning uchun ham ular tuman, shahar, viloyat yutuqlari bilan faxrlanadi, unga o'z hissasini qo'shishga intiladi, mavjud tarixiy

yodgorliklar bilan faxrlanadi. Ularning gullab-yashnashiga, obodonligiga ko'maklashadi. Vatan bu xalqimizning jannatmisol makoni **O'zbekiston Respublikasidir.**

Ona-yurt, Vatan inson uchun oltin beshik. Inson ana shu oltin beshikda dunyoga keladi, ilk bor qadam tashlaydi, unib-o'sadi, voyaga etadi, el-yurt xizmatiga bel bog'laydi. Shuning uchun ham Vatan har qanday inson uchun onasi kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan muqaddas maskan bo'lib hisoblanadi. Ma'rifatparpar bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yozganidek, *"Vatan har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deganlar. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar ular ayrilsa, o'zlaridagi kabi rohatda yashamas... Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonni, qumlik issiq cho'llarni, eskimoslar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerdardan ziyoda suyurlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi"*.

Vatan bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan deganda hamisha o'zimiz tug'ilib o'sgan, ta'lim olgan, voyaga etgan necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aqlu idroklari, mehnatlari sarf etilgan muqaddas yurt ko'z oldimizga keladi. Vatan bu ota yurt, ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, chuqur ildiz otib, o'sib kamol topib boradigan zamindir. Vatan muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insoning kindik qoni to'kilgan joy, har kimning borligini qadrllovchi zamin, ma'naviy kamolot va saodat maydonidir. Shuning uchun ham har bir inson o'z dard-alamini, orzu-umidlarini vatan taqdiri bilan bog'lab kelgan. Vatan mehrini, Vatan sehrini, uning mo'tabarligini, ulug'vorligini so'z bilan ifodalash qiyin. Haqiqiy barkamol inson Vatanning ravnaqi va istiqboli, el-yurtning ozodligi va mustaqilligi uchun xamma narsani, hatto, shirin jonini xam ayamaydi. Bu haqida mavlono Fuzuliyning *"mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lar edim"*, deb aytgan so'zlari har bir aqli raso fuqaro uchun bebaho o'g'itdir. Inson uchun oila yagonadir. Oilaning katta-kichigi, ham, boy-kambag'ali bo'lmaydi, oila tanlanmaydi. Oila bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi. Oila in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Oila har bir fuqaro uchun muqaddas va betakroridir. Oilaga mehr muhabbat bilan munosabat bildirish, uni sevib ardoqlash, uning qadriga etish, uning kamoloti, osoyishtaligi uchun qayg'urish yoshligimizdan boshlab ongimizga singdiriladi. Chunki har qanday inson o'z oilasi tarixi, ya'ni, ota-bobolari o'tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi. Hamid Olimjon "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman" degan maqolasida bu haqda shunday degan edi: *"Mening xalqim o'z kindigining qoni to'kilgan tuproqni o'z onasiday aziz ko'radi. Mening xalqim o'z bobolari ko'milgan tuproqni o'padi, shu tuproqni harom, nopok qilgan odamni o'ldiradi. Qadim o'zbek botirlari uzoq safarga ketganda, bir hovuch vatan tuprog'ini doim o'z yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuprog' ularga o'z tug'ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo'lgan muhabbatini bir nafas ham unuttirmagan. Bu bir hovuch tuprog' unga o'z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini*

eslatgan, uzoq bo'lsa ham uni o'z vatanida his qiladigan va qaerda bo'lmasin o'z xalqi sha'niga isnod keltirmaslikka, o'z xalqining nomusi va sodiq o'g'li bo'lishga chaqirgan. U Vatani qancha sevsa, ota-onadan, sevimli yordan, qondosh vatanidan nishona bo'lgan shu bir hovuch tuproqni ham shuncha sevgan. Shu bir hovuch tuproqning kuchi shuncha zo'r bo'lganki, u suvsiz sahrolardan, qorli tog'lardan, vahshiy daryolardan, yovvoyi o'rmonlardan ko'z ochib yumguncha o'ta olgan. Shu bir hovuch tuproq uni o'tidan omon saqlagan. O'q uning ko'kragini tesholmagan, qilich tanasini tesholmagan, olov kuydirmagan, zindon chiritolmagan".

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu – milliy an'ana va qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy tarbiya, milliy axloq va odob, uch avlod, ya'ni, bobo-buvi, ota-ona va bolalarning hamjihatlikda yashashi jarayonida eng yuksak insoniy fazilatlarini o'zida tarbiyalab, shakllantirib borishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ota va onaning shaxsiy ibrati ham bolalar uchun muhim tarbiya maktabi vazifasini o'taydi.



Nazorat savollari:

1. Milliy qadriyatlarning bola ijtimoiylashuvidagi o'rni haqida ma'lumot bering.
2. Ota-onalarning bola tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishi samara beradimi? O'z fikringizni bildiring.
3. Qadriyat deb nimaga aytiladi?
4. Milliy ma'naviy ehtiyoj va talablar nimalardan iborat?
5. "Vatan" tushunchasi qanday ta'riflanadi?
6. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qanday g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surdilar?
7. Milliy qadriyatlarga nimalar kiradi?
8. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida nimalarga to'htalib o'tdilar?



6-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGIDA BOLALARNI MILLIY IFTIXOR VA MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASH

Tayanch tushunchalar: *Insonparvarlik, bunyodkorlik, Milliy tiklanish, ezgulik, umumpedagogika qonuniyatlari, Milliy entsiklopediya, ezgu fikr, ezgu amal, mikro muhit, mezo muhit, makro muhit, muhitlar, Milliy tarbiya, estetik tasavvur, badiiy-tasviriy ijodiy faoliyat, mutaxassis kadrlar, didaktik talablar, bolalar estetik*

tasavvurlari, Milliy o'zlikni anglash, insoniyat taraqqiyoti, Milliy g'urur, ijtimoiy birlik, bola tarbiyasi, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usi mutafakkirlar, g'urur tushunchasi.

Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Boshlang'ich ta'lim tajribasida tarbiyaning bir necha turlari amal qilib kelmoqda. Ana shunday tarbiya turlaridan biri milliy tarbiyadir.

Milliy tarbiya – bu yosh avlodni muayyan millatning mentaliteti, turmush tarzi va hayotiy tajribasidan o'tgan g'oyalarga asosan voyaga yetkazish jarayonidir. Bunda muayyan millatning hayoti davomida amal qilib kelinayotgan milliy qadriyatlar tizimiga asoslaniladi. Milliy tarbiyaning negizini milliy g'oya tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Milliy entsiklopediyasida ta'kidlanganidek, milliy g'oya – bu biror millat hayotiga mazmun baxsh etadigan va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir; u millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalaydi. Shu jihatdan o'zbek millati o'zining asrlar davomida shakllangan milliy g'oyasi va unga tayangan milliy tarbiya tajribasiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020- yil yanvar oyida mamlakatimizning quyidagi g'oyalarga asoslangan yangi milliy g'oyasini e'lon qildi:

Insonparvarlik

Ezgulik

Bunyodkorlik

Bu mutlaqo yangi asosdagi milliy g'oya bo'lib, uning ma'nosini quyidagilar tashkil etadi:

➤ **Insonparvarlik** – insonni qadrlash, uning sha'ni, g'ururi va huquqlarini ro'yobga chiqarish, insonga munosib yashash turmush sharoiti yaratib berish va davlat hamda jamiyatning faoliyatini inson omili asosiga qurish;

➤ **Ezgulik** – insonda va jamiyatda eng yaxshi hamda ideal g'oyalarni tarkib toptirish, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish, "Avesto"da ta'kidlanganidek inson va jamiyatda ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amalni tarkib toptirish;

➤ **Bunyodkorlik** – inson va jamiyatda bunyodkorlik hissi hamda harakatini paydo qilish, davlatning siyosatida bunyodkorlikga olib boruvchi adolatga tayanish, erkin va farovon hayot barpo etish. E'tibor berilsa, O'zbekistonning yangi milliy g'oyasida milliy va umuminsoniy g'oyalar hamda qadriyatlar uyg'un o'z ifodasini topgan. Chunki dunyodagi har bir xalq va mamlakat insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik g'oyalarini birlamchi biladi. Mamlakatimizning yangi milliy g'oyasi quyidagi bosh g'oya asosida birlashadi: "Milliy tiklanishdan – ilmiy yuksalish sari". Bu bosh g'oyaning mazmuni xalq hayotini, inson faoliyatini va davlat siyosatini milliy manfaatlar asosida yuksaltirishdan iborat. Shu tariqa hozirgi zamon O'zbekiston ta'lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati yangi milliy g'oyaga asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlariga asoslangan quyidagi omillarga tayanadi:

- tarbiyaning maqbul va samarali metodlariga;
- tarbiyaning tajribadan o'tgan va zamonaviy texnologiyalariga;
- tarbiyaning individual uslublariga.

Bunday yondashuv milliy tarbiyaning boshqa tarbiya turlaridan farqlantirib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, milliy tarbiyada quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- imkon qadar pedagogik jazo turlaridan chekinish;
- tarbiyalanganlik darajasini rag'batlantirish;
- tarbiya jarayonini jamoaviy amalga oshirish;
- tarbiyaga oid eng so'nggi yutuqlarga tayanish;

Bu tamoyillar milliy tarbiyani kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Bularning barchasi milliy tarbiyaning o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limda milliy tarbiya asoslari. Maktabgacha ta'limdagi milliy tarbiya jarayoni umumiy milliy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan maktabgacha ta'limda milliy tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarda (7- yoshli shaxslarga) dastlabki bosqichda milliy tarbiya berish;

- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy ruhi, milliy ongi va milliy axloqini milliy g'oyaning Insonparvarlik, Ezgulik hamda Bunyodkorlik g'oyalari asosida shakllantirish;

- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarni dastlabki bosqichda milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarni keyingi bosqichda amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoniga tayyorlash.

Mazkur xususiyatlar maktabgacha ta'limda milliy tarbiyaning asoslari negizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" kitobida milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiyaning quyidagi asoslarini ta'kidlab ko'rsatadi:

- ✓ fikr tarbiyasi;
- ✓ milliy qadriyatlar tarbiyasi;
- ✓ umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi

Bu metodologiya boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirish asoslarini tashkil etadi. Unga ko'ra, milliy tarbiya quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, bunda milliy g'oyamizning **Ezgulik** g'oyasi va uning ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amal tamoyillariga asoslaniladi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish, unda milliy g'oyamizning **Insonparvarlik** g'oyasi va uning insonni qadrlash, insonni tushunish hamda insonga yordam berish tamoyillariga tayaniladi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar ruhida rivojlantirish, bunda milliy g'oyamizning **Bunyodkorlik** g'oyasi va uning mehnatsevarlik,

tashabbuskorlik hamda bag'rikenglik tamoyillariga suyaniladi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning o'ziga xos asoslari mavjud.

Milliy g'oyaga asoslangan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish bir necha muhitlarga tayanadi. Bunday muhitning asosiylari quyidagilardan iborat:

- mikro muhit (ta'lim maskani va oila);
- mezo muhit (turli to'garaklar va mahalla);
- makro muhit (o'quvchilarning yirik guruhlari va jamoatchilik joylari).

Bu muhitlarning maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy tarbiyalashda muhim o'rni bor. Jumladan, mikro muhitda milliy tarbiya jarayoni nazariy – amaliy jihatdan amalga oshiriladi; mezo muhitda mazkur toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash ijtimoiy va yo'naltirish jihatidan amalga oshiriladi; makro muhitda ushbu toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash odatlantirish va ko'niktirish jihatdan amalga oshiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashda mazkur muhitlarning o'rni beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy g'oya asosida milliy tarbiyalashda vositalar muhim o'rin tutadi. Bunday vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning ahamiyatini tushuntirish;
- ezgu axloq qoidalari va fazilatlariga ko'niktirish;
- ijtimoiy faollik va amaliy natijadorlikga yo'naltirish.

Mazkur vositalardan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi. Boshlang'ich ta'limda milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiya samaradorligiga erishish muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagilar milliy tarbiyani amalga oshiruvchi mas'ullar sifatida belgilanadi.

✓ **Tarbiyachi:** milliy tarbiyani tashkil etish, uning uchun shart-sharoitlar yaratish va milliy tarbiya jarayonini nazorat qilib boruvchi mas'ul;

✓ **Pedagoglar guruhi:** oz mashg'ulotlarining asoslarini milliy g'oya asosida tushuntirish, bolalarni milliy tarbiyalashda yordam berish va bolalar bilan individual ishlash uchun mas'ul;

✓ **Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi:** bolalarda milliy ruhni shakllantirish, ularning ongida milliy g'oyaning tarkib topishi va bolalarda milliy fazilatlarining shakllanib borishini kuzatib borish uchun mas'ul;

✓ **Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi:** bolalarni milliy tarbiyalash sharoitlarini yaratish, milliy tarbiyaga oid muammolarni jamoaviy hal qilib borish va milliy tarbiya samarasini baholovchi mas'ul. Mazkur mas'ullar tizimi maktabgacha ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi mas'ullardir.

Maktabgacha ta'limda milliy tarbiya samaradorligi quyidagi indikatorlar asosida baholanadi:

- bolalar shaxsining insoniy talablar asosida shakllanayotganligi;
- bolalar guruhida o'zaro ahillik va totuvlikning mavjudligi;
- tarbiyasi og'ir bolalar miqdorining kamligi;
- bolalararo pedagogik konfliktlarning pastligi;
- bolalarning ijtimoiyligi.

Maktabgacha ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi masalasi metodologik jihatdan to'liq ishlab chiqilgan emas. Shu sababli bu borada fundamental, nazariy, amaliy va innovatsion tadqiqotlar majmuini amalga oshirish taqozo etiladi. Shunday qilib maktabgacha ta'limda milliy tarbiya asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Durdona - xalqimizning g'ururi, milliy iftixoridir. Yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda "Avesto"ni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu durdonani o'qir ekanmiz, unda hozirgi xalqimizda mavjud bo'lgan urf-odat, an'analarimiz bilan uyg'unlik sezamiz. "Pokiza suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilgan zotning do'zahda topgusi jazosi bu dunyoning jamiki darduzozorlaridan "Avesto"da aytishlaricha, tabiat, jamiyat inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etilib, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk insonparvarlik namunasi ekanligini ko'rsatadi.

Belgiyalik avestoshunos olim Jak Dyushen Giyyoman "Avesto" asarining ma'naviy qiymatini belgilab shunday degan edi: "Sharq o'g'lonlari orasidan G'arb birinchi bo'lib Zardushtni o'g'il qilib oldi. Uning ta'limoti Iyso Masih ta'limotidan to'rt asr avval Yunonistonni Konfutsiyning ovozi Ovpoga etib kelguncha juda ko'p vaqt kerak bo'ldi, donishmandligi bilan faqat Zardusht orqali tanish bo'lgandi...".

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon. Xalq o'g'itlari, pand-nasihatlari, milliy an'analar, milliy qadriyatlar, mashhur alloma, sarkarda, san'atkor hayoti va faoliyatiga oid ibratli hodisalarni bolalar o'rtasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarni o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan xalq ertaklari, dostonlari, maqollari, matallari, rivoyatlari, kuy va qo'shiqlariga e'tiborni kuchaytirish, ularni sinchiklab o'rganish samara beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishda maktabgacha bolalar muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, litseylar, kollejlari, o'rta-maxsus o'quv yurtlari, mahalla-ko'y, har xil jamoat tashkilotlari, gazeta va jurnallar, darslik va o'quv qo'llanmalari, badiiy adabiyotlar, tabiiy, ijtimoiy, gumanitar fanlar, san'at asarlari – barcha-barchasi bir-biridan kam bo'lmagan darajada o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Milliy iftixor tuyg'usi maqollarda ham o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. O'zbek xalqining xarakter-xususiyati, tabiati haqida yaratilgan maqollar bir talay bo'lib, ularda o'zbek millatiga mansub kishilarning qat'iyatli, bir so'zli, mard va jasur, o'z ishiga puxta, sobitqadam va bunyodkor o'zaro mehr-oqibatli, oriyatli, bag'rikeng va mehmondo'st bo'lishi badiiy ifoda etilganligi kuzatiladi.

Yosh avlod nechog'lik o'z elu yurti, millati tarixi bilan faxrlansa, shuncha uning qalbida vatanparvarlik tuyg'usi mustahkam qaror topadi. Eli va yurti manfaatini o'ylaydigan, uning ozodligi va mustaqilligi yuksak ravnaqi uchun kurashadigan bo'lib ulg'ayadi. Yurtimizda yaratilgan bebaho ma'naviy qadriyatlar tizimining ajralmas bir qismi hisoblangan folklor namunalari ajdodlarimizning shonli tarixi bilan yosh avlodni tanishtirishi bilan bir qatorda ularni yuksak bunyodkorliklari sari undaydi.

Umuman aytganda, ajdodlarning vatanparvarlik, sadoqatlilik, halollik, rostguylik, adolatlilik tuyg'usi bilan sug'orilgan folklore asarlari hozirgi yoshlarga har tomonlama

o'rnak bo'la oladi. Har bir yosh avlod shu zaminning, buyuk ajdodlarning vorisi ekanligidan g'ururlanib, milliy iftixor tuyg'usi bilan yashasa arziydi.

A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'raevlarning fikrlariga ko'ra "shaxs g'ururi – bu faxr", "milliy g'urur – bu iftixor" bo'lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma'nolarni anglatsada, bir vaqtning o'zida bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda mualliflar quyidagi fikrni ilgari suradilar: "Milliy iftixor millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oladi". "Milliy iftixor tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati.

Milliy iftixor tuyg'usi – o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch". Mualliflar bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

"Milliy g'urur (iftixor), – deb ta'rif beriladi manbalarda, shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha".

Bu tuyg'u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

➤ millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, muammolariga befarq bo'lmaslik;

➤ xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo'lish;

➤ o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;

➤ xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish vatakomillashtirish to'g'risida qayg'urish;

➤ xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Milliy g'urur, milliy iftixor o'zi mansub bo'lgan millat, xalqning ravnaqi, taraqqiyoti uchun kurashishnigina emas, shu bilan birga o'zga millatga mansub kishilarga humat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafi va g'ururini kamsitmaydi.

Shuningdek, milliy g'urur va iftixor tuyg'usiga ega insonda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi shakllanadi. Milliy iftixor tuyg'usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e'zozlashga ma'naviy-ruhiy jihatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir.

Milliy iftixor, eng avvalo, o'zligini anglash, milliy ravnaqni ta'minlash yo'lidagi xatti-harakat, o'z millati istiqboli oldida mas'ullikning beqiyos namunasidir. Milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lgan har bir kishi o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol shaxsdir.

Shu bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an'analar i, san'ati va madaniyatini hurmat qilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo'lmog'i lozim.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkirlar o'z asarlarida bola tarbiyasiga, yoshlarda vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usini kamol toptirishga alohida e'tibor berganlar.

O'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'zida milliy tuyg'usini namoyon qila olgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlarida milliy mansublikdan g'ururlanish, milliy iftixor tuyg'usi yaqqol namoyon bo'ladi: - *"Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz ... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi*

O. Musurmonova "Oila ma'naviyati milliy g'urur" nomli asarida o'zbek oilasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bola tarbiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Muallif ta'kidlaganidek, *"Oila insonlarning tabiiy-biologik, fiziologik, iqtisodiy, huquqiy-qonuniy, ma'naviy- axloqiy aloqa munosabatlari asosida qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. U jamiyatning ajralmas bir bo'lagidir. Oila tarbiyasi birinchi navbatda, ota va ona zimmasiga tushadi. Bolalar tarbiyasiga asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu onadir. Bu o'zbek oilalari tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixordir"*.

Bizning nazarimizda, "g'urur" va "iftixor" tushunchalari o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi. Zero, shaxs g'ururi – bu muayyan shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy mavqei (masalan, ma'lum millat vakili sifatidagi mavqei), shaxsiy xususiyatlar, turmush tarzi, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat, erishilgan muvaffaqiyatlardan qoniqish hosil qilish sanaladi.

Milliy g'urur tuyg'usiga egalik ma'lum millatga mansub shaxsning ana shu millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqei, insoniyat taraqqiyoti sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, faxrlanish va qoniqish demakdir.

Milliy o'zlikni anglash – bu barcha insoniy fazilatlarining ibtidosi bo'lib, xalqimiz tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an'analari, qadriyatlar, ruhiyati haqida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar birligiga erishish, ularni ongli ravishda baholash, ma'naviy his-tuyg'ularning ijobiy bo'lishiga erishish, o'zini ongli ravishda boshqarish, Vatan tuyg'usi bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish; ona tilini e'zozlash va boshqa millatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirish majmuidir.

Demak, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi negizida quyidagi fazilatlar ko'zga tashlanadi:

- xalqining tarixiy xotirasiga hurmat;

➤ millatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an'analari, qadriyatlari, ruhiyati haqidagi mustahkam bilimlarga ega bo'lish;

➤ xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotini yanada rivojlantirish, milliy meros, urf-odat va an'analari, qadriyatlarni asrab-avaylash, uni boyitish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish;

➤ ularni ongli ravishda baholash;

➤ ma'naviy his-tuyg'ularning ijobiy bo'lishiga erishish;

➤ o'zini ongli ravishda boshqarish;

➤ Vatan tuyg'usi bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish;

➤ ona tilini e'zozlash;

➤ boshqa millatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish.

Bu tasnifga tayangan holda "milliy iftixor" tuyg'usiga egalik asosida aks etuvchi fazilatlar majmuini belgilashga urindik. Bizning nazarimizda bu tasnif quyidagicha:

➤ xalq tarixidan to'la xabardorlik, millatning o'tmishi, tarixiga bo'lgan hurmat;

➤ uning shonli sahifalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shiddatli tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish;

➤ millatga xos bo'lgan ijtimoiy ruhiyat, uning ijobiy ko'rinishlari va milliy turmush tarzining o'ziga xosligidan faxrlanish;

➤ milliy madaniyatning jahon xalqlari sivilizatsiyasiga qo'shilgan hissa ekanligini anglash;

➤ Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning mazmunini chuqur anglagan holda ularni asrash va yanada boyitish yo'lidagi harakatni tashkil etish;

➤ ona tilining millat nishoni, g'ururi ekanligini his qilish;

➤ millat erki va Vatan mustaqilligi uchun kurashish, tinchlikni ta'minlash bebaho milliy qadriyat ekanligini anglash.

Xalq tarixidan to'la xabardor bo'lish o'quvchilarga milliy mansublik, millatning o'tmishi, tarixining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Zero, o'z xalqi tarixini anglamagan inson o'zining jamiyatdagi o'rni, turli millatlar orasidagi mavqei belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o'zi qaror qabul qila olmaydi. Shu bois u qaramlikka mahkum bo'ladi. Millatga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlar orasida xalq erki va Vatan mustaqilligi uchun kurashish, tinchlikni ta'minlash asosiy o'rinni egallaydi.

Tarixdan hisoblangan, bolalarni ajdodlarga xos ana shunday fazilatlariga ega bo'lishlariga erishish, ularga xalq qahramonlarining jasoratlari to'g'risida ma'lumotlar berish, bu yo'lda ta'sirchan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Komil inson ta'lim-tarbiyasining dastlabki poydevori oilada qo'yiladi. Inson ma'naviyatida madaniyat va san'at o'ziga xos ta'sirchan hamda samarali vosita sifatida alohida ahamiyatga molik. Oila ma'naviyati, madaniyati, oiladagi psixologik muhit, uning badiiy-estetik tamoyilari bolalarda turli mazmundagi tushuncha va tasavvurlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Oilada bolalar estetik tasavvurlarni shakllantirish borasida barchabop tavsiyalar, bu jarayonning mazmunini belgilashga qo'yilgan pedagogik va psixologik talablar

ishlab chiqilmaganligi, qolaversa, bu didaktik jihatdan o'ta murakkab jarayon ekanligi bois respublikamizda hammabop ko'rsatmalar amal qilmaydi. Bu murakkablikni bir qator omillar bilan tavsiflash mumkin.

Birinchidan, maktabgacha yoshidagi bolalar muntazam faoliyat ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi bolalarda nafaqat estetik tasavvurlarni, balki olam haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar kompleksi mavjud bo'lib, uning meyoriy asoslari "Maktabgacha ta'limning davlat talablari", "Ilk qadam" dasturi mavjud. Bu dastur asosidagi mashg'ulotlar muntazam tarzda, belgilangan kun va soatlarda olib boriladi.

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarni asosan maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tarbiyachilar olib boradilar. Ular o'z faoliyatlarini yuqorida qayd etib o'tilgan meyoriy hujjatlar asosida tashkil etishga ma'sullar.

Uchinchidan, farzandi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi ota-onalar muassasa talablari u yoki bu materialni olib berish kabilarni qat'iy tarzda bajarishlari talab etiladi. Bu omil maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnamaydigan bolalardan bir muncha ustunlik qilishlarini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda muayyan bilim, tushuncha va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizim kasb-hunar kollejlari, pedagogik institutlari va universitet, shuningdek, viloyatlardagi Davlat universitetlari, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirish.

Respublika metodik markazi, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazi, ilmiy tadqiqot muassasalarida jamiyatning ijtimoiy-pedagogik ehtiyoji, talablari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni muntazam tarzda takomillashtirilib boriladi. Xuddi shu yondashuv, didaktik talablar asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimiga, uning mazmuniga ham lozim bo'lgan o'zgarishlar kiritib boradi.

Va nihoyat, **beshinchidan**, maktabgacha ta'lim muassasalarida muntazam mashg'ulotlar yagona maqsad –bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bilan bog'liq. Ular didaktik tashkil etilishi nuqtai nazaridan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi. Masalan, "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarda badiiy-tasviriy ijodiy faoliyat asoslari bilan tanishtiradi, bu mashg'ulotlar orqali bolalarda yozish, chizish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi, uning uchun qo'l mushaklarini rivojlantirish ta'minlanadi, atrof olam haqidagi, tabiat holatlari, fasllari haqidagi tasavvurlari shakllantirilib boriladi.

Yuqorida keltirilgan omillar oilada maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini ishlab chiqish uchun muayyan pedagogik talablar, mezonlarga asoslanish lozimligini ta'kidlaydi. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish bevosita madaniyat va san'atning o'rni beqiyosdir.

Shuning uchun ham oila sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuniga qo'yiladigan pedagogik talablar, uni tanlab belgilash mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu talablarga amal qilish bir qator pedagogik omillar bilan tavsiflanadi. Ularga quydagilarni kiritish mumkin:

✓ Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda amal qiladigan maktabgacha ta'lim muassasalaridagidek Davlat talablari, ular asosida ishlab chiqilgan dasturlarning yo'qligi;

✓ Oilada o'z farzandlarini maktab ta'limiga mustaqil tayyorlayotgan otalarning barchasi ham maxsus pedagogik va psixologik ma'lumotga, shuningdek, uslubiy malakalarga ega emasligi;

✓ Farzandlarning yosh oila qurishlari, ustiga-ustak ularni mustaqil, alohida, otalaridan ajragan holda yashashi hisobiga bola tarbiyasidagi uzviylikning buzilishi va h.k.



Nazorat savollari:

1. Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy tarbiya usullaridan foydalanish haqida o'z fikringizni bildiring?

2. Milliy iftixor tushunchasining mazmuni ochib bering?

3. Bolalarni milliy g'ururni tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi qay tarzda yo'lga qo'yish kerak deb hisoblaysiz?

4. Milliy o'zlikni anglash tuyg'usi negizida qanday fazilatlar yotadi?

5. "Milliy g'urur (iftixor) tuyg'usi shaxsda qanday shakllarda namoyon bo'ladi?"

6. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering?

7. Yangi asosdagi milliy g'oya nimalardan tashkil topgan?

8. Yangi asosdagi milliy g'oyaning bolalarni milliy iftihor ruhida tarbiyalashda qanday o'rin tutgan?



7-§. IJTIMOY PEDAGOGIKA IJTIMOY FALSAFANING TARKIBIY QISMI. IJTIMOY PEDAGOGIKA FUNKSIYALARI. IJTIMOY PEDAGOGIKANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: *Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, kasb-xunar pedagogikasi, oila pedagogikasi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy tajriba, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarbiya falsafasi, sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, insonlar ruhiyati, etnik xususiyatlar, milliy karakter, etnik steriotiplar, ijtimoiy va yosh psixologiyasi, viktimologiya, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy - huquqiy vazifa, tarbiyaviy vazifa, ijtimoiy reabilitatsion vazifa, ijtimoiy tarbiya falsafasi, individual yordam.*

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi tutgan o'rni, mohiyati haqida fikr yuritishdan ilgari "Ijtimoiy pedagogika" atamasiga e'tiborni qaratish zarur. Zero unda mustaqil "Ijtimoiy", "Pedagogika" yo'nalishdan iborat bo'lgan mustaqil fan mujassamlashgandir. Bir necha fanlarning bunday birlashuvi tasodifiy xol bo'lmasdan

balki, u ixtisoslashuv jarayonlari bilan bog'liqdir. Darhaqiqat fan olamida keyingi yillarda ixtisoslashuv jarayoni bir muncha rivojlandi. Buni birgina pedagogika fani misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Maktabgacha pedagogika", "Maktab pedagogikasi", "Maxsus pedagogika", "Kasb-xunar pedagogikasi", "Oila pedagogikasi", kabilar. Fanlarni bu taxlitdagi o'zaro birlashuvining asosida ma'lum bir maqsadga qaratilganlik yotadi. Bu xolni "Ijtimoiy pedagogika" dan ham aniq ko'rish mumkin.

Darhaqiqat ijtimoiy pedagogika ham pedagogika kabi ta'lim tarbiya jarayoni va xodisalarini o'rganadi Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, u ularni muayyan o'ziga xos yo'nalishda o'rganadi. Chunki, mazkur fanning o'ziga xos bo'lgan tomoni "Ijtimoiy" iborasida mujassamlashtirilganligidir. "Ijtimoiy" (lotincha – socialis – umumiy) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agarda pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ta'lim-tarbiyasi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatdagi hayotga qo'shilishiga bog'liq qonuniyat va xodisalarni o'rganadi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog'liqdir.

Buni ijtimoiylashuv deyiladi. Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir. Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning o'ziga xos xarakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida bevosita namoyon bo'ladi. Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i masalalarini o'rta qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy tarbiya falsafasi" bo'limi inson va uning tarbiyasiga muayyan qarashlardan kelib chiqadi va bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarga suyanadi. Etika va ijtimoiy pedagogika.

Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi hamda tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi. Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji, faoliyat yuritishi, shakllanish qonuniyatlari haqidagi fan. Ijtimoiy

tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o'rganish jarayonida ijtimoiy bitim sohalarning bir qator ma'lumotlari (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta'lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi.

Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o'rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy karakteri, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi qonuniyatlari, etnik steriotiplarini o'rganuvchi bilim sohasi. Ijtimoiy pedagogika o'zining asosiy muammosi bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslashda etnografiya va etnopsixologiya fanlariga ham murojat qiladi va oziqlanadi. Jumladan, ijtimoiy pedagogikada umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos tushadigan va o'z navbatida etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalq doirasida ijtimoiy tarbiya tizimida foydalanish tavsiya etiladi. Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika.

“Ijtimoiy psixologiya” insonlarni ijtimoiy guruhlariga qo'shilishlari xolatini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlari, shuningdek bu guruhlarning psixologik ta'riflarini o'rgansa. “Yosh psixologiyasi” esa inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlari shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o'rganishda va ijtimoiy tarbiyaning uslubiyotini tadqiq etishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi. Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya tomonidan o'rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba'zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqilgan holda ijtimoiy pedagogikaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: “ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi”.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan va mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari va texnologiyasi bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersa ham bo'ladi. Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator fazifalarga ega bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

✓ **Nazariy vazifa:** – ijtimoiy pedagogik bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va xodisalarning to'liq tasvirini tuzishga intilishda namoyon bo'ladi.

✓ **Amaliy vazifalarga:** – ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga bolalar (yoshlarda) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarining shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi, yo'l – yo'riq, shakl, vositalarini aniqlash va ularni tadqiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samarali yo'llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniklashga doir tavsiyalar berish; ularda jamiyatdagi xuquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o'ziga ishonch xissini shakllantirish;

✓ *Insonparvarlik vazifasi* – shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o'z ifodasini topadi.

Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik bilan emas, o'zaro tushunish orqali hal qilishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat. Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaning vazifalari kengayib bormoqda.

Shunga ko'ra bunday vazifalar qatoriga tarbiyaviy, ijtimoiy-xuquqiy, ijtimoiy reabilitatsiya ishlarini ko'rsatish mumkin. *Tarbiyaviy vazifa* – bolani atrof muhitga qo'shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o'quv va tarbiya jarayoniga ko'nikishini ko'zda tutadi. *Ijtimoiy - huquqiy vazifa* – davlatning bolalarga g'amxo'rliqi, ularning huquqiy himoyasini bildiradi. *Ijtimoiy reabilitatsion vazifa* – nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi.

Shunday ekan, o'zining pedagogik faoliyatida quyidagilarga o'z e'tiborini qaratishi lozim, falokatga uchragan bola(o'smir)larga yordam ko'rsatish lozim:

- inqirozdan chiqish yo'llarini topish, qiyin vaqtda qo'llab-quvvatlash;
- bola(o'smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o'rganish;
- bolani o'rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalardagi ijtimoiy tarbiya holatini tahlil qilish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, o'zlashtirish, ommalashtirish;
- u bola(o'smir) faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi;
- bola (o'smir) muammolarini hal qiluvchi, uning inqirozi, huquqlariga aloqador tashkilot, mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug'ullanish;
- ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o'rganishni tashkil qilish, bu borada takliflarni kiritish;

Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo'limlardan iborat.

Ijtimoiy tarbiya falsafasi – falsafa, etika, ijtimoiy va pedagogikalarning uyg'unlashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta'rifi beriladi, inson qiyofasini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi, ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab asoslaniladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi – ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya salohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish va salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi – ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma'lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individual, guruh, ijtimoiy sub'ektlari nima ekanligini va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi – guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya uslubiyati – ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi. Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag'iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi. Ma'lumki, har bir fanni mazkur fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha voqey olamni bilish jarayonida yuzaga keladi.

Voqeylik o'zgaruvchan bo'lganligi tufayli tushunchalar ham dinamik tarzda o'zgarish va rivojlanish karakteriga ega. Boshqacha qilib aytganda tushunchalar tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashishadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yirik nazariy va amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari "ijtimoiy pedagogik faoliyat" "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya" bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me'yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o'zlashtirib boradi.

Bolalar ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga o'ta-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – "agent"lar) bu masalaga alohida e'tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo'lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari va ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni ham qo'lga kiritadi.

Bular esa bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni "ijtimoiy ta'lim" deyiladi.

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o'rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosiga qaraganda bir muncha kengdir.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiiy sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida *mazmuni, shakli, usuli* jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko'rsatishning o'zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoal)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a'zolarining o'zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta'sir etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko'nikish, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini aniqlab olish birligidir.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko'maklashish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadriyatlarini anglashi, o'z-o'zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan pedagogik, texnikaviy, tibbiy, xuquqiy, iqtisodiy kabi. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Umuman olganda o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib uning mazmuni, harakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir. Ijtimoiy pedagogika o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi:

- ✓ umumantiquiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellash, loyihalash)
- ✓ umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o'rganish; qayta ishlash, umumlashtirish)
- ✓ xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhiiy o'rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy fazilatlariga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);
- ✓ tarixiy metodlar tarixiy qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o'rganish;
- ✓ sotsiologik metodlar (anketa, so'rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellash);
- ✓ matematik – statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).



Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy falsafa aloqasidagi umumiylik haqida tushuncha bering?
2. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida qanday ta'riflanadi?
3. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi qanday bosqichlarda kechgan?
4. Ijtimoiy pedagogika metodlari, tuzilishi va vazifalarini sanab bering?
5. Ijtimoiy tarbiya tushunchasini ta'riflang?
6. Insonparvarlik vazifasi – shaxsning rivojlanishi uchun qanday sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik omil hisoblanadi?
7. Etika qanday faoliyatlarni tahlil qiladi?
8. Sotsiologik metodlarga nimalar kiradi?
9. Umummantiqiy metodlar qanday metodlardan iborat va ularga qisqacha ta'rif bering?



8-§. IJTIMOY PEDAGOG VA UNING KASBIY SIFATLARI. IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Tayanch tushunchalar: *Insonparvarlik, ijtimoiy fanlar, ijtimoiy pedagogik faoliyat, ijtimoiy pedagogning huquqlari va majburiyatlari, ijtimoiylashuv sohalari, metodologik xayot, ijtimoiy pedagoglar, integratsiya jarayoni, faoliyat elementlari, o'rta kasbiy ta'lim muassasalari, oliy kasbiy ta'lim maktablari, shaxsning shakllanish jarayoni, shaxslararo aloqalar, vositalar, vazifa, maqsad, obyekt, subyekt, ijtimoiy ishlar, kasbiy mentallik.*

Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdagi o'quv yurtlarida olib boriladi:

- ▲ o'rta kasbiy ta'lim muassasalari (litsey va kollejlari)
- ▲ oliy kasbiy ta'lim maktablari (Institut va universitetlar).

O'rta kasbiy ta'lim muassasalarida kichik sinflarda va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O'rta ma'lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga qiyin vaziyatlarni singab o'tishda yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko'maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtirishga dastak bo'ladi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota-onalari bilan hamkorlik qilish, o'z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o'qib borishdan iboratdir. O'rta kasbiy ta'lim bilim yurtini tugatgach, ular oliy ta'lim muassasida o'z o'qishini davom ettirishi mumkin. Ijtimoiy

pedagog faqat o'qituvchi emas, bola qanday o'qiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va his etadigan shaxsdir. U bola hayotini, kechinmalarini xuddi o'zinkidagidek tushunadigan va uning ma'naviy, madaniy, axloqiy rivojlanishida yo'llanmalar bera oladigan mutaxassis bo'lmog'i kerak. Shuning uchun haqiqiy pedagog faqat o'z fanini bilibgina qolmay, ayni vaqtda bolalar va kattalar bilan ijodiy muloqot qila oladigan, o'z ustida ishlaydigan inson bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o'quvchi inson mohiyatini anglaydi. O'z hayoti davomida inson to'g'risida hosil qilingan tushunchalar asosida, shaxs haqiqiy fuqaro bo'lib yetishadi. Insonparvarlikka asoslangan ta'lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funksiyalarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyoqarashi yaxlitligini ta'minlaydi. Ta'limni insonparvarlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, ko'nikma, malaka, malaka berish, ularning insoniy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. U bo'lajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli sohalarida insonparvarlik g'oyasi va qadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ta'limda metodologik xayot tajribasiga ziddiyatli holatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi:

- ✓ ijtimoiy-shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi;
- ✓ real vaziyatdan kelib chiqib, ziddiyatli xolatlarida ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi;
- ✓ mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni hisoblanadi;
- ✓ shaxslararo aloqalarni qamrab oladi;
- ✓ shaxsning shakllanish jarayonini yo'naltiradi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari — “Ijtimoiy pedagog” mutaxassisi “pedagog” so'zidan olingan bo'lib, avvalo o'qituvchi ma'nosini anglatadi. Shu bois mazkur lavozimning joriy etilganidan so'ng aynan o'qituvchilarning birinchi ijtimoiy pedagoglar bo'lgani ajablanarli emas. Ijtimoiy pedagoglarni qayta tayyorlash bo'yicha kurslar tinglovchilarining aksariyat qismini ham o'qituvchilar tashkil etadi.

Yana shuni ta'kidlamok joizki, ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayorgarligi ham pedagogik oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Darhaqiqat, pedagog va o'qituvchining kasbiy faoliyatida ko'pgina umumiyliklar mavjud. Bu ikkala kasbning ham obyekti bola, uning rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishidir. Bu narsa ularning yaqinligini yana bir bor tasdiqlaydi. O'z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi bir qator tafovutlarga ham ega. O'qituvchi o'zining asosiy ta'lim berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o'rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi. Ijtimoiy pedagogning diqqat markazida esa bolani jamiyatga moslashib ketishiga yordam berishdir.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat haqida tushuncha.

Pedagogik faoliyat – ta'lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta'lim standartlari o'quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogik faoyaiyat — bolaga ijtimoiylashuvi

jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan bo'lishi mumkin turli xil ta'lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari, ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim, ya'ni aniq, bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muamolarini hal etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi – har qanday faoliyat o'z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o'zaro bog'liqligini va o'zaro shartlarini aniqlaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat:

- ✓ subyekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon)
- ✓ obyekt (faoliyat yo'naltirilgan tomon)
- ✓ maqsad (faoliyat orqali nimaga intilinadi)
- ✓ vazifa (faoliyat orqali nimalar amalga oshiriladi)
- ✓ vositalar (faoliyat qaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining obyekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamda bosh maqsad bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruhiy, ijtimoiy nuqsoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruhiy yoki aqliy shakllanishi buzilgan bolalarning katta qismi (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqliy ojiz va bolalar serebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa, unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bo'lmaydi. Bordiyu, ota-onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlay olmasa, u holda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo'ladi. Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruhiy yengilligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni yengib o'tuvchi ijtimoiy, huquqiy, ruhiy, tibbiy va pedagogik muammolarni kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassilar (ruhiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) hamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi) mazkur masalaga yo'naltirilgan say'i-harakatlarini muvofiqlashtirib turishda vositachi bo'la olishi kerak.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muhim yo'nalish-bu BMT konvensiyasida e'lon qilingan bolaning yashashga, sog'lom shakllanishga, ta'lim olishga, o'z qarashlarini erkin ifoda etishga, kamsitishning har qanday turidan himoyalashga qaratilgan huquqlarini himoya qilishdir. Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yo'nalish-bu bolani shakllanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy loyihalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chiqishda ishtirok etishdir. Shunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni birlashtirish mumkin:

- ✓ tashhis qo'yish;
- ✓ bashoratchilik;
- ✓ vositachilik;
- ✓ to'g'rilash va qayta tiklash;
- ✓ himoyalash;
- ✓ ogohlantirish va profilaktik;
- ✓ evristika (ijodiy fikrlash);

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo'ladigan barcha harakatlar, predmetlar, qurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorlik. Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavsifnomasi ko'rib chiqiladigan bo'lsa, avvalo mazkur faoliyat subyektini o'z sohasini mukammal biluvchi mutaxassini belgilab olishimiz zarur bo'ladi. U bola hayotidagi ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni chuqur farqlay biladi va unga yordamga kela oladi. U umumnazariy va maxsus bilimlarga, malaka va ko'nikmalarga, ma'lum darajadagi qobiliyatga ega bo'ladi. Xo'sh ijtimoiy pedagog kim? Uning ruhiy surati va shaxsiy tavsifnomasi qanday? Qaysi sohalar uning faoliyati doirasiga tegishli? U boshqa kasb egaligidan nimasi bilan farq qiladi?

Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning hatti-harakatlarida va dunyoqarashida o'ziga xos iz qoldirishiga guvoh bo'lamiz. Psixologiyada bu narsa "kasbiy mentallik" deb ataladi. Mentallik-bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik hatti-harakatlarini aks ettiruvchi ma'lum ijtimoiy-ruhiy qarashlar va qadriyatlar majmuidir. Mentallik o'zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo'lib, insonning qaysi ijtimoiy qatlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniqlanadi. Psixologik tadqiqotlarda kasbiy mentallik ma'lum bir kasb egaligiga xos bo'lgan xususiyat sifatida e'tirof qilinadi.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri milliy istiqloq g'oyasini bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: *"Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqloq g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilar, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga o'tkazish zarur"*. Mana shuning uchun ham yaratiladigan qo'llanmalar mazmunida milliy istiqloq g'oyasi asosiy o'rinni olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar ikki bosqichda o'qitiladi. **Birinchi bosqichda** ya'ni bakalavriatda mutaxassis o'zi tanlagan soha bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. **Ikkinchi bosqich** magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual-ruhiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko'rsatmoqda. Kuzatuvchanlik, vaziyatga qarab tez yo'lga tusha bilish, fahm-farosat bilan seza olish, o'zini boshqa odam o'rniga qo'ya olish va uning hissiyatlarini tushuna bilish, o'zini boshqara olish va refleksiya (fikir yuritib uni tahlil qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir.

Shuningdek ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, qiziqqonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, bahsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo'lmog'i darkor. Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual-ruhiy xususiyatlari to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi. Masalan, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o'z-o'zini boshqara bilish, jismonan

kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadi. AQShning mashhur psixologlaridan sanalgan J. Xoland o'zining "o'ziga yo'naltirilgan qidiruv" metodikasida ijtimoiy soha kasbi egasiga xos xususiyatni ko'rsatgan. Bular realistik (haqqoniylik), tadqiqotchilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konvetsional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas'uliyatlilik, axloqlilik, xushmuomalalik, iliqlik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni ham ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pqirrali soha bo'lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qat'iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Muloqot jarayonida pedagog ko'p ruhiy og'irlikni va charchoqni o'zida sinashiga to'g'ri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruhiy-terapevtik jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to'qnashuvda yordam beradi. Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter bu "Men -obrazidir" Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishini hamda boshqalar tomonidan o'ziga yuqori baho berilishini ifodalaydi. Mazkur harakter pedagogga boshqa odamlar bilan erkin muloqot qilish va ularni oson qabul qilish imkonini beradi. Ijtimoiy pedagogning quyidagi shaxsiy fazilatlarini alohida ajratishimiz mumkin:

- ✓ Insoniylik xususiyatlari (mehrbonlik, boshqalar manfaatini ustun qo'yish, o'z shaxsiy qadr-qimmatini hissi);
- ✓ xususiyatlar (ruhiy barqarorlik, yuqori darajadagi hissiy va irodaviy xususiyatlar);
- ✓ ruhiy tahlilchilik xususiyatlari (o'zini idora qila olish, o'ziga tanqidiy qarash, o'zini baxolay olish) ruhiy-pedagogik xususiyatlar (kirishuvchanlik, gapga chechanlik).

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, har qanday odam ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch hosil qilamiz. Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy-xuquqiy hujjatlar yordamida tartibga olinadi. Mazkur hujjatlar o'z ichiga mutaxassis pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mehnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

Ijtimoiy ish – aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlariga yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obykti inson hisoblanadi, lekin hamma emas, balki faqatgina muammolari bo'lganlari (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki sog'lom bo'lmagan, jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lganlar hisoblanadi.

Madaniyat – jamiyatning tarixiy ma'lum bir rivojlanish darajasi, ijtimoiy kuch, inson qobiliyati, odamlar hayotiy faoliyati shaklini tashkil etish usuli, asosan ular tomonidan yaratilajak moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilanadi.

Muruvvat ko'rsatish – maqsadlarga yordam, xayriya-saxovat alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan maqsadlarga, yoki aholi guruhlariga beminnat yordam berish. Raxm-shavqat, marhamat, raxmdillik, barchaga yordam berish, yoki o'zgalarni kechirish, g'amxo'rlik qilish, insonparvarlik.

Xayriya (maqsadlarga yordam, xayr-saxovat) – maqsad odamlarga yoki aholining ijtimoiy guruhlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam ko'rsatish.

Mehribonlik (Miloserdīye) – (mehr-sahovat, raxm-shavqat, marhamat, rahmdillik) – rahmdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam ko'rsatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

“Kasbiy majburiyatlar” – Bolalarni ijtimoiy himoya, qo'llab-quvvatlash, hamda bu borada xizmat ko'rsatuvchi muassasalar to'g'risida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi:

▲ Inson va bola xuquqini himoya qilishga qaratilgan, turli toifadagi bolalarning haq-huquqlarini ta'minlashga, bolalarni huquqiy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy-huquqiy yordamni ko'rsatish.

▲ Ruhiy va emotsional yordamga maqsad bolalarga ijtimoiy-reabilitatsion yordam ko'rsatish.

▲ Kam ta'minlangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy hayotini yaxlitlash maqsadida ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

▲ Bemor bolalarga zarur tibbiy-ijtimoiy yordamni ko'rsatish. Alkogolizm, giyohvandlik bilan shug'ullanuvchi voyaga yetmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagicha kasbiy bilimlar talab etiladi:

▲ O'z faoliyatining me'yoriy-huquqiy asosini (qonunlar, farmonlar, qarorlar va yo'riqnomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muhitlarda turli toifa bolalari bilan ishlashning metodikasini va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini o'rganuvchi psixologiyani; odamlarning uyushma va guruhlari (Oila, maktab va mehnat kollektivi)ni o'rganuvchi sotsiologiyani.

O'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish metodini bilish. va quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi:

Taqlid qila olish qobiliyati: bolaning shakllanishida unga muhitning salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi harakatlarini aniqlab tahlil qila bilish;

Bashoratchilik qobiliyati: faoliyat olib borish usullarini belgilab olib, uni aniq maqsad tomon yo'naltirish, duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilish va hisobga olib, vaqtni to'g'ri taqsimlash;

Loyihalashtira bilish qobiliyati: faoliyatni aniq bir loyixa asosida, tarbiyalanuvchining shart-sharoitlari va mavjud muhit talablarini hisobga olib, aniq bir tartibda olib borish, o'z faoliyatining har bir bosqichida ijobiy va salbiy natijalarini to'g'ri tahlil qila olish;

Kirishuvchanlik: ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan muloqot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to'g'ri tushunish uchun zarur axborot va ma'lumotlarni to'plash.

Ijtimoiy pedagog faoliyati sohalarini ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassasalarida va yoshlar ishi bo'yicha muassasalarda joriy etilgan. Yoshlar ishi bo'yicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ro'yxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodi markazlari, yoshlar yotoqxonasi, o'smirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yo'naltirish

markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mehnat birjalaridir. Ta'lim sohasida esa pedagog 6 xil muassasa ro'yxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, boquvchisini yo'qotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassalari, boshlang'ich kasbiy ta'lim muassalaridir. Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bo'lsada, aslida ularga bo'lgan talab yana ham kengroq. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy sohalarda joriy etilgan. Ular sog'likni saqlash muassalarida (ruhiy nosog'lom, giyohvand bolalar uchun), aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangan o'smirlar rehabilitatsiya markazlarida, voyaga yetmaganlar rehabilitatsiya markazlarida), ichki ishlar organlari tarmog'idagi muassasalarda ko'rish mumkin.

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy - axloqiy imkoniyatlarga ega, u shaxs xulqida paydo bo'lgan salbiy elementlarga qarshi kurashda muhim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikri shakllantirish yo'li bilan jamoada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit hosil qilishga ta'sir ko'rsatadi, ilg'or ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi, shaxs qadr - qimmatini ta'minlaydi, qonunni xurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniqsa bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaviy faoliyatning muhim rezervlaridan yana biri - ommaviy targ'ibot bilan bog'liq bo'lib, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida g'ayrat va tashabbus talab etildi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy - tashkiliy tadbirlar o'tkazish, kechalar, bayramlar, rasm - rusmlar, urf - odatlar, jumladan "Navro'z", "xotira va qadrlash kuni" va boshqa tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy ishlarda ijtimoiy - tarbiyaviy muvaffaqiyatlarga ommaning ijtimoiy - madaniy faoliyat yo'nalishini chuqur anglagan holdagina erishish mumkin. Bu birinchi navbatda. Pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o'z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g'oyaviy yo'nalishini emas, ayni choqda ijtimoiy - pedagogik, ijtimoiy - psixologik mohiyatini anglash, tashkiliy ishlarda uning mexanizmlarga tayanish zarur. Ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy xodimlar faoliyati asta-sekin kengayib, biri ikkinchisini to'ldira bordi. Ijtimoiy - pedagogik boshqaruv va ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish obyekt sifatida yoshlar jinoyatchiligining oldini olish maktab, ichki ishlar bo'limi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurash organlarining birgalikdagi tadbirlari tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak.

Shundan kelib chiqib, dastlabki talablar olg'a suriladi. Mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat qiladigan obyektiv jarayonlar va hodisalarni hisobga olib borish; tarbiyaning noqulay sharoitiga va shaxsni noto'g'ri yo'lga kirishning boshlanishiga o'z vaqtida e'tibor berish maqsadida ijtimoiy - pedagogik istiqbol metodlaridan foydalanish; o'smir shaxsning individual - psixologik va ijtimoiy sifatlarini hisobga olish.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 1994 yil 29 dekabrda 332 - sonli buyrug'ining ilovasida keltirilgan metodik tavsiyalar mazkur ishlarni amalga oshirishda muayyan yordam beradi. Tarbiyaviy faoliyatning muhim rezervlaridan yana biri - ommaviy targ'ibot bilan bog'liq bo'lib, g'oyaviy - tarbiyaviy ishlarning barcha

shakllarida g'ayrat va tashabbus talab etildi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy - tashkiliy tadbirlar o'tkazish, kechalar, bayramlar, rasm - rusmlar, urf - odatlar, jumladan "Navro'z", "Xotira va qadrlash kuni" va boshqa tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ommaviy ishlarda ijtimoiy - tarbiyaviy muvafaqqiyatlarga ommaning ijtimoiy - madaniy faoliyat yo'nalishini chuqur anglagan holdagina erishish mumkin. Bu, birinchi navbatda. Pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o'z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g'oyaviy yo'nalishini emas, ayni chog'da ijtimoiy - pedagogik, ijtimoiy - psixologik mohiyatini anglash, tashkiliy ishlarda uning mexanizmlarga tayanish zarur. Milliy ongni uyg'otish va shakllantirish o'zini anglashdan boshlanadi.

Milliy g'urur – bu o'z yurtining tarixini bilish, xalqning madaniy merosini himoya qilish, milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligini anglash va namoyon etish kabilarni bildiradi. 1910 – 1920 yillarda xalqning eng faol vakillari – jadidlar ma'rifatparvarlik vositasida xalqning qaddini ko'tarish va jahon hamjamiyatining munosib ishtirokchilari qilish g'oyasini olg'a surdilar. Buni o'rganish shunisi bilan muhimki, ularning yetuk avlodni tarbiyalash, mustaqillikni muxofaza qilishda ma'naviy meros vazifasini o'taydi.

O'zbek ziyolilari Vatan ozodligi uchun kaxramona ko'rashni XX asr boshlarida boshladilar, mustaqillikka erishishda ularning roli shundaki, avvalo barcha millatlarni tinchlikda, totuvlikda yashashga chorladilar. Ma'naviy - ma'rifatchilik ishlarini yangi bosqichga ko'tarish uchun barcha ta'lim muassasalarida targ'ibot va tashviqot ishlarni amalga oshirish zarur. Afsuski, bugungi kunda hamma o'quvchi davlat ramzlari va ularning ma'nosini biladi, deb bo'lmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, *"Milliy ramzlarimiz bizning milliy g'ururimizni ko'tarishga xizmat qiladi. Ularning har biri ulkan darslik, tarbiyaning kuchli vositasidir"*. Mana shuning uchun ham joylarda davlat ramzlari asosida ko'rik - tanlovlar, munozaralar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Har bir odam davlat ramzlarini butunlay yoki qisman bilmay turib, uylab ko'rsin, shu davlatning munosib fuqarosiman, shu xalqning o'gliman yoki qiziman deya olarmikan? Milliy ongni shakllantirishda davlat ramzlarining buyuk ahamiyati borligini tushuna oladi. Biz ulug' Amir Temur vasiyatini bajarishimiz kerak: *"Sizning vazifangiz ulug' obro" - xurmatimizni, millatning baxti va farovonligini himoya qilish, ularning dardiga malham bo'lishdan iboratdir"*. Bizning eng katta yutug'imiz o'z boyligimizga o'zimiz ega bo'lganimizdadir. Binobarin, ularda minnatdorchilik, g'urur va ishonch tuyg'ularini tarbiyalashimiz kerak. Ma'naviy, axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or - nomuslik, yaqinlarga g'amxo'r bo'lish va boshqa insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, ularning asosida tarbiya yotadi.

Tarbiya jarayoni – uni tiklash, rivojlantirish va hayotda joriy qilish, ta'lim, milliy, ma'naviy - axloqiy qadriyat va normalar bilan bevosita bog'liq. Ular xalq pedagogikasi, urf - odatlari, bayramlari, o'yinlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Ma'rifatparvarlar", "Oltin meros", "Tarixchilar", "Faylasuflar" va boshqa jamoat tashkilotlari, jamg'armalari yuqorida qo'yilgan vazifalarni hal etishda katta imkoniyatlarga egadir. Tarbiyasi "qiyin" o'smirlar anomalligi o'qishda (o'qishi qiyin, dangasa) va xulqida (intizom va tarbiyaga rioya

qilmaydi) namoyon bo'ladi. "Qiyin bolalar" – jamiyatga zid yo'nalishdagi, beqaror axloqli, irodasi bo'sh, pedagogik ta'siriga doim qarshilik ko'rsatib keluvchi yoshlardir. Maktab miqiyosida ular ko'p uchramaydi (bir sinfda ikki - uchadan). Ammo sinf, maktab hayotiga, uning axloqiy muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. "Qiyin" bolalar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham ular o'quv - tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladi. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va x.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham "qiyin" bolalar maktabda ham, undan tashqarida ham o'qituvchi va barcha jamoat e'tiborida turishi kerak.

Tarbiyasi qiyin bo'lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy - psixologik va psixologik - pedagogik sabab va omillarni besh guruhga ajratish mumkin:

- ✓ Noqulay oilaviy muhit, ota – onalari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.
- ✓ O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan sohib ketishi (60 - 70 % voyaga yetmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil o'qigan).

- ✓ Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay xolat mavjud.
- ✓ Mikromuhitning salbiy ta'siri, salbiy referent guruh ta'siri.
- ✓ Biror faoliyat yuzasidan o'z moyilligini, qiziqishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.

Psixolog - pedagogik nuqtai nazaridan o'smirlar bilan ishlaydigan katta yoshdagilar quyidagi qoidaga rioya qilishlari lozim:

- ▲ ko'p nasihat qilavermang;
- ▲ o'smir his - tuyg'ularini xurmat qiling;
- ▲ hayotda mustaqil bo'lishga o'rgating;
- ▲ ko'p dakki beravermang;
- ▲ do'q - po'pisa qilmang.

Ijtimoiy - pedagogik boshqaruv va ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish obyektivi sifatida yoshlar jinoyatchiligining oldini olish maktab, ichki ishlar bo'limi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurash organlarining birgalikdagi tadbirlari tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak. Shundan kelib chiqib dastlabki talablar olg'a suriladi. Mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat qiladigan obyektiv jarayonlar va hodisalarni hisobga olib borish, tarbiyaning noqulay sharoitiga va shaxsni noto'g'ri yo'lga kirishning boshlanishiga o'z vaqtida e'tibor berish maqsadida ijtimoiy - pedagogik istiqbol metodlaridan foydalanish, o'smir shaxsning individual - psixologik va ijtimoiy sifatlarini hisobga olish zarur. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 1994 yil 29 dekabrda 332 – sonli buyrug'ining ilovasida keltirilgan metodik tavsiyalar mazkur ishlarni amalga oshirishda muayyan yordam beradi.

Deviant xulq - atvorli bolalarni rehabilitatsiya qilish yo'llari, tarbiyalovchi funksiya bolani atrof muhitga kirishishi, ta'lim tarbiya jarayonida adaptatsiya, ijtimoiylashtirish jarayonini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy rehabilitatsiya bolalar uchun davlatni bolalarga g'amxo'rliqi ijtimoiy-reabilitatsion funksiya. Ruhiy jismoniy nuqsonga ega bolalar ta'lim- tarbiya bolalarni tarbiyalash funksiyasi pedagog tomonidan amalga oshiriladi:

1. Bola ongida barcha jonli mavjudotga muxabbat ijodiy tushunish, vijdoniylik tuyg`usini tarbiyalash lozim.
2. Atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishishga o`rganish hayot maqsadida va mazmunini anglatadi.
3. Atrofdagi olamni tushunish uning ruhida ma`naviy xususiyatlarni, jamiyatdagi huquqiy normalarini rivojlantirish.
4. O`z - o`ziga xurmat, mustaqillik his- tuyg`usini shakllantirish.

Bolalar orasida, mehnatda va maktabda, oilada tengdoshlari, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish malakasini shakllantirish. Odamlar orasida shaxs va jamiyat o`rtasida kelishmovchiliklarni bola atrofidagi muhitdagi ijtimoiy munosabatlar, xususiy normalarga tayanib farqlashga o`z hayotini tashkil qilishni o`zini individualligi, vazifalari xususiyatlarining rivojlantirishni tarbiyalashga qaratilgan deb e`tirof etishi joizdir.



Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy pedagogik faoliyatni ta`riflang?
2. Ijtimoiy pedagogning huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Xalq pedagogikasi va ommaviy tarbiyaning zamonaviy sharoitdagi holati qanday?
4. Ijtimoiylashtirish bolalar tomonidan guruhda ijtimoiy xulq-atvor me`yorlarining o`zlashtirilishi, qabul qilinishiga raxbarlik, bolalarning ijtimoiylashuv sohalarini o`rganish va kengaytirish yo`llarini tushuntiring?
5. Tarbiya jarayoni nimalardan iborat?
6. Ruhiy jismoniy nuqsonga ega bolalar ta`lim- tarbiya bolalarni tarbiyalash funksiyasi pedagog tomonidan qay tarzda amalga oshiriladi ?
7. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi qanday komponentlardan iborat?
8. Deviant xulq-atvorli bolalarni rehabilitatsiya qilish yo`llari nimalardan iborat?



9-§. IJTIMOY PEDAGOGIKA MEZONLARI VA PRINSIPLARI

Tayanch tushunchalar: *Ijtimoiylashuv, ijtimoiy adaptasiya, ijtimoiy rehabilitasiya, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tarbiya, insonparvarlik tamoyili, ijtimoiy pedagogika prinsiplari, pedagogik faoliyat, o`qitish, tarbiya, ta`lim, jamiyat, sotsializatsiya, faoliyat, ijtimoiy pedagogika mezonlari, ilmiy sohalar, farqlanish jarayoni, bilimlar tizimi.*

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika mezonlari.

Fan bilimlar tizimi, uning tushunchalari va mezonlarida aks etadi. Tushunchalar-mavjud dunyoni idrok etish jarayonidagi aks etilishi shakllaridan biri. Har qanday fan rivojlanish jarayonida tushunchalar fan mezoniga birlashadi, kengayadi va qayta xosil qilinadi. Mezonlar yanada umumiy, fundamental "asliy" deb atalmish tushunchalarni birlashtiradi. Bu tushunchalardan mazkur fanda ishlatiladigan tushunchalar hosil bo'ladi. Oxirgi yillarda pedagogikada farqlanish jarayoni kuchaydi. Ko'pgina yangi ilmiy sohalar yuzaga keldi, bular soniga ijtimoiy pedagogika ham kirdi. Pedagogikaning har bir yangi ilmiy sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uning mezon va tushunchalari tizimida o'z aksini topali. Ijtimoiy pedagogika mezonlarini ko'rib chiqishda avvallambor biz pedagogika mezonlarini ajiratamiz. U (pedagogika) boshqa fanlardan nimani o'zlashtirganini, qaysi mezonlar asl o'zini ekanligini ko'rib chiqamiz. So'ng u boshqa fanlardan nimani o'zlashtirganini va qaysi tushunchalar o'zini bilish uchun pedagogika mezonlarini ijtimoiy pedagogikaga loyihalashtiramiz.

Ma'lumki, pedagogika boshqa fanlar tushunchalarini o'zlashtiradi va ulardan keng foydalaniladi, masalan "shaxs", "rivojlanish", "faoliyat", "sotsializatsiya" (ijtimoiylashuv), "jamiyat". Uning asil mezonlari "ta'lim", "tarbiya" va "o'qitish" hisoblanadi. Hozirgi kunda shuningdek umum qabul qilingan "pedagogik faoliyat" mezoni ham kiradi. Ijtimoiy pedagogika asl mezonlariga "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya" kiradi.

Ijtimoiy pedagogika prinsiplari.

"Prinsip" so'zi lotincha so'zdan xosil bo'lgan "asos", "boshlanish"ni bildirali. Har qanday fan uchun ishlatilgan muayyan qoidalardan kelib chiqadigan o'z prinsiplari mavjud. Fanlar prinsip va qoidalar bizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat befoyda, balki zararli ham bo'ladi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikadan ajralib chiqarkan, tabiiyki o'z asosida shu fan prinsiplariga tayanadi. Pedagogikadagi prinsiplar shaxs ta'lim - tarbiyasining umumiy yo'nalishini beradi va aniq pedagogik vazifalar hal etish uchu asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, shu fan rivojlanishining har bir davri uchun pedagogika prinsiplari haqidagi masala munozaralidir. Zamonaviy davr ham bundan mustasno emas. Har hil olimlar u yoki bu prinsiplarni olg'a suradi yoki yangicha ma'lumotlarni izohlaydi. Bu borada ijtimoiy pedagogikada yanada ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, ammo uning dunyoviy balog'at yoshiga (100 yildan ortiq) qaramay O'zbekistonda bu fan endi o'zining birinchi qadamlarini qo'yimoqda. Biz 3 ta prinsipni ko'rib chiqamiz:

- ✓ tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi prinsip;
- ✓ tarbiyaning madaniy uyg'un bo'lishi prinsipi;
- ✓ gumanizim prinsipi.

Shu prinsiplardan har biri ijtimoiy pedagogikada o'zining talqiniga va o'ziga xos xususiyatiga ega.

▲ Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish prinsipi.

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi – ijtimoiy pedagogika prinsipi, shunga ko'ra ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanish omillariga

tayanadi. Tarbiyaning tabiyatga uyg'un bo'lish prinsipi ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) bilan uning "Buyuk didaktika" (1632) degan eng asosiy ishida ta'riflangan. Komenskiy, inson tabiatning bir qismi va u tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisoblanadi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham shuningdek, insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Komenskiy nafaqat tabiatning uslubiy qonunlariga bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanadi. U bolalar, o'spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tavsifga tayangan holda o'z bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslaydi va ko'radi.

Komenskiydan ancha ilgari Sharq uyg'onish davri buyuk olimi ensiklopediyachisi va mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o'z asarlarida tarbiyaning tabiatda ustun bo'lishi haqida gapirgan edi. Masalan "uy - ro'zg'or tutish" haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot shuning uchun tabiatda alohida o'rin tutadi va uning qonunlariga ko'ra rivojlanadi. "Yolg'on hislatlarni qayta tarbiyalash" asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki axloqsiz insonni tarbiyalamoqchi bo'lsa, unda u uni har tamonlama o'rganishi, insonning tabiati qoidalarini bilishi kerak. Natijada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi prinsipi ko'pgina buyuk pedagoglar tomonidan o'z pedagogik va ijtimoiy pedagogik nazariyalari ko'rish asosi sifatida olingan edi. Masalan, Fransuz falsafachisi Jan Jak Russo aytib o'tgandek, bola tarbiyasi tabiat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi kerak. U yozadiki, - *"bolalar katta bo'lishidan ilgari bola bo'lishi kerak"*.

Yetim va qarovsiz bolalar uchun muassasalar va bolalar uyini yaratgan Shvetsar pedagogi Iyagon Genrix Pestalotsi hisoblashicha, tabiat maqsadi – inson tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir, bunda rivojlanish har tamonlama va uyg'un bo'lishi lozim. Nemis olimi, pedagogi Adolf Disterveg ham I.G.Pestalotsi ortidan bu prinsipni eng muhim tarbiya prinsipi deb hisoblagan. O'z ishlarida yozgan ediki, talim-tarbiya jarayonida yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olinishi lozim. Tarbiya bilan uyg'un bo'lishi rus klassik pedagoglari ishlarida ham o'z aksini topgan. Ushinskiy o'zining asosiy "Inson tarbiyasining mavzusi sifatida" degan psixologik- pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va ta'limi uchun tarbiya prinsiplari va qoidalarini bilish, balki inson tabiati asosiy qonunlarini bilishi ularni har bir aniq bola uchun har bir aniq holda tadbiq qila olishi lozim. Ushinskiy fiziologiya, gigiyena va psixologiya (diqqat, xotira, tasavvur, iroda) asoslarini o'rganish zaruriyatini asoslab berdi, uning asosi so'zlash qobiliyatini axloqiy estetik va diniy hislari, didaktikani o'rganishga o'tish mumkin.

Sharq uyg'onish davri mutafakkiri, ensiklopediyachisi Abu Nasr Forobiy (873-950) pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qadar o'z asarida, -*"inson tabiatning eng oliy zoti, u atrof muhitni har tamonlama idrok qilishi mumkin"* deb aytib o'tgan edilar.

Abdulla Avloniy (1878-1934) "Turkiy Guliston yoxud axloq" degan asarida turli shaxs axloqiy hislatlarini tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Uning asarini o'zbek tilida yozilgan pedagogika bo'yicha birinchi darslik deb hisoblash mumkin.

Pedagogika mustaqil fan sifatida Y.A.Komenskiyning "Buyuk dedaktika" (XVII asr) degan asaridan so'ng ajralib chiqdi, unda didaktika prinsiplari va pedagogik

jarayon qonuniyatlari aniq tariflangan. Forobiy pedagogikani mustaqil fanga ajratgan siyosiy (fuqaro) fan tarkibiga kiritgan. Uning fikricha, bolalarda ijobiy axloqiy hislatlarni tarbiyalashda atrof-muhit katta o‘rin tutadi. U bola shaxsining tabiiy kamolatiga ishonardi, bola tabiatdan go‘zallik va mehr-oqibat bilan tug‘iladi. Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi prinsipiga amal qilib, quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

- ✓ bolalar yosh xususiyatlarini e‘tiborga olish;
 - ✓ bolalar xususiyatlarini e‘tiborga olish;
 - ✓ me‘yoridan chetga chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini e‘tiborga olish;
 - ✓ bola shaxsidagi ijobiy, kuchli tomonlariga tayanish;
 - ✓ bola tashabbuskorligini va mustaqilligini rivojlantrish.
- ▲ **Madaniyat bilan uyg‘un bo‘lish prinsipi.**

Bu prinsip tarbiyaning tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi prinsipining davomidir. Uning zaruriyati inson tabiati bilan shartlangan. Inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, shaxs bo‘lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida bo‘lib o‘tadigan o‘zini tutish kabi ijtimoiy tajribalami o‘zlashtirib yetishadi. Antik jamiyatdagi falsafachilar va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyati o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni tahlil qilganlar. Shu narsaga Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari va ensiklopediyachilari bo‘lgan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy ham o‘z asarlarida to‘htalib o‘tganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi. Shaxs madaniyati orqali shakllanadi, har qanday madaniyatning asosiy boyligi esa insondir. Zero, madaniyat, yuqori axloqli insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir. Madaniyat bilan uyg‘un bo‘lish prinsipi pedagogikada A. Disterveg (XIX asr) tomonidan ilgari surilgan. U , *“tarbiya qilishda joy va vaqt,ni, shart va sharoitlarni, ya’ni inson tug‘ilgan vaqt va joyni bir so‘z bilan aytganda butun zamonaviy madaniyatni e‘tiborga olish zarur”*- deb hisoblardi.

Metodlar – o‘rganilayotgan ob‘ektning mohiyati va qonuniyatlaridan kelib chiqib, borliqni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullaridir. Ijtimoiy pedagogika esa pedagogikaning bir sohasi bo‘lib, uning metodlaridan pedagogikada qo‘llanadigan tarbiyalash va o‘qitishning an‘anaviy metodlariga tayanamiz, boshqa tomondan ijtimoiy ta‘lim va ijtimoiy tarbiyaning ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Yana shuni yodda tutish kerakki, buning diqqat markazida bola va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit turadi. Ijtimoiy pedagog esa bolaga muammolarni ijtimoiylashish jarayoni orqali hal qilishga yordam beradi . Ijtimoiy pedagogika bolaga bevosita oila, do‘stlari, bolalar jamoasi orqali ta’sir o‘tkazadi. U qandaydir qisqa muddatli vazifalarni bajarishi yoki, bola bilan uzoq vaqt davomida ishlashi mumkinligini hisobga olamiz.

Ijtimoiy pedagogik metodlar orqali bolaning ongi, xulqi his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish hamda uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga ta’sir o‘tkazish mumkin. Metodlar - bolaning ijtimoiylashishi va tiklashda hamkorlik qiluvchi, pozitiv ijtimoiy tajriba to‘plashida yordam beruvchi ijtimoiy pedagog va bolaning o‘zaro bog‘liq hatti-harakatlari usullaridir . Ijtimoiy pedagogika ham pedagogikaning eng yangi sohalaridan biri bo‘lib, ijtimoiy - pedagogik faoliyat yangi shakllanayotgani uchun

uning metodlar tizimi haqida gapirishga juda erta. Shuning uchun, ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanishi lozim. U shakllanish bosqichida o'z kasbiy faoliyatni bajarish uchun ijtimoiy pedagog alohida usullardan tashkil topgan metodlarni egallashi kerak.

Metodlar, usullar va vositalar shu tariqa bir-birlari bilan bog'liqlik, metodlar va usullar holat da vositalar rolini bajarishi mumkin. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda ishontirish va mashq qilishi metodlari keng qo'llaniladi, Bu metodni qo'llashning xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy pedagog qaysidir sabablarga ko'ra odob - axloqning umum qabul qilingan me'yorlari shakllanmagan yoki noto'g'ri shakllangan bola bilan ish olib boradilar. Shu jamiyatga qabul qilingan hayot me'yorlari, ular to'g'risidagi to'g'ri va aniq tasavvurning yuzaga kelishi, oxir - oqibatda shaxsning ishonchi uning hayotdagi o'rnini shakllantiradi, bilim va ular haqidagi tasavvur bilan bog'liq. Ishontirish metodi jamiyatda qabul qilingan me'yorlarni bola xulqi va faoliyoti motivlariga ko'chirishga yordam berib, e'tiqodni shakllantiradi.

E'tiqod-bu bolaning ma'naviy bilimlarining haqiqiyliigi va adolatliligiga qat'iy ishonch bo'lib, u shaxsning axloqiy faoliyatga va harakatiga ichki xoxishdir. E'tiqod - bu muayyan harakatning zarurligi va to'g'riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida ijtimoiy pedagog bolaning ongli, his - tuyg'ulari va irodasiga ta'sir o'tkazadi. Ishontirish metodi maqsadga erishish uchun bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning xulqi, qiziqishlari, shaxsiy tajribasini hisobga olish zarur. Ishontirishning asosiy qismi talab qilishdir. Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, bolalar oldiga vazifa qo'yilib, axloq - odob qoidalarining mazmunini ularning ongiga yetkazishi va kelgusi faoliyat mazmunini aniqlashdan iborat. Ishontirish quyidagi pedagogikaga ma'lum bo'lgan metodlar orqali amalga oshiriladi, ya'ni hikoya, leksiya, suhbat, disput.

Hikoya va leksiya – ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan metodning monologik formasi. hikoya kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi, u oz vaqt cho'zilmaydi, aniq va ravshan faktlarga asoslanadi. Leksiya katta yoshdagi bolalarga qo'llaniladi, vaqti uzoqroq bo'lib, murakkab axloqiy tushunchalar (gumanizm, do'stlik, yaxshilik)ni ochib beradi. Suhbat va disput – dialogik shakldagi usul, bunda bolalarning ishlashi muhim. Suhbat – bu savol-javob metodi ijtimoiy pedagog suhbatni shunday olib borishi kerakki, savollarni nafaqat u, balki bolalar ham bera olsin. O'smirlar uchun disput metodi qo'llanadi, bu metod o'smirlarning fikrlarini shakllantiradi. Shunday qilib, “ishontirish” – bu ma'lum axloqning to'g'riligi va zarurligini tushuntirish va isbotlashdir. Agar ishontirish bola ongini programmashtirsa, mashq qilish bilim-ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan metodlar ijtimoiy pedagogikada alohida emas balki bir- biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi.



Nazorat savollari:

1. Ijtimoiylashuv, ijtimoiy adaptasiya, ijtimoiy rehabilitasiya haqida so'zlab bering?
2. Ijtimoiylashuv jarayonida bola, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar qanday holda bo'ladi?
3. Oilaviy tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligini tushuntirib bering?
4. Insonparvarlik tamoyili madaniyat bilan uyg'un bo'lishi qanday yuz beradi?
5. Hikoya va leksiya, suhbat va disput metodik formalari haqida tushuncha bering?
6. Ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan metodning monologik formasi nimalardan iborat?
7. Madaniyat bilan uyg'un bo'lish prinsiplari o'z ichiga qanday tamoillarni oladi?
8. Pedagogika mustaqil fan sifatida qachon va qayerda ajralib chiqdi?



10-§. IJTIMOY PEDAGOGIK TASHXIS. DEVIASIYA VA UNING TURLARI

Tayanch tushunchalar: *yaxshi xulq, yomon xulq, deviant xatti-harakat, voyaga yetmaganlar, qonunbuzarlik, xarakter xususiyatlari, o'smirlilik, jismoniy kamchiliklar, o'smirlar axloqi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ijtimoiy pedagogik faoliyat, ijtimoiylashuv omillari, milliy pedagogika.*

Ma'lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo'lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta'limotlarda aks etgan.

O'rta asrlar musulmon Sharqi aristotelchilik oqimining Turkistondagi asoschisi, qomusiy alloma Abu Nasr al-Forobiy hisoblanadi. Arastu izidan borib, Forobiy falsafani ikkiga, nazariy va amaliyga bo'ladi hamda axloqshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy me'yorlardan og'ish muammolari, uning "Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob", "Baxtga erishuv haqida", "Davlat arbobining hikmatlari", "Fozil odamlar shahri" singari asarlarida ko'tarilgan. Alloma o'z qarashlarida fazilatga juda katta o'rin beradi. Arastuga o'xshab, u ham fazilatlarini ikki qismga - fozoil

nutqiya (aql-idrokka asoslangan fazilatlar) va fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi.

Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlangani bilan bog'lanadi. Forobiy ba'zilar o'ta lazzatga berilishi, yeyish-ichish va ayolga ro'ju qo'yishi tufayli juda bo'shshib ketadi. irodasi zaiflashadi, unda risoladagi nafrat hamda g'azab hissi yo'qoladi deydi. Butun kuchini o'z nafsiga sarflaydigan kishida ulug'vorlik tubanlikka xizmat qila boshlaydi, ya'ni fikrlash qobiliyati g'azab va ehtiros kuchlari xizmatida bo'ladi, bu kuchlarning harakati esa, yeyish-ichish hamda shahvoniy nafsni qondirishga bag'ishlanadi.

Axloq ilmida va umuman ijtimoiy hamda, tabiiy fanlarda chuqur iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlarini, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug'rofiy omillarning ahamiyatini ko'rsatib berdi. Bu esa, keyinchalik sotsiologiya va kriminologiyada geografik yo'nalish nomini olgan hamda ijtimoiy deviantlik holatlarining paydo bo'lishi va shakllanishida geografik omillarni muhim deb hisoblovchi yo'nalishga asos bo'lib xizmat qildi. "... (odamlar) tuzilishlarining rangi, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning (odam) yashaydigan joyla-rining turlichaligidan hamdir".

Forobiyning shogirdi Ibn Sinoning axloqiy qarashlari asosan "Axloq ilmiga doir risola", "Burch to'g'risida risola", "Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Turar joylardagi tadbirlar" singari asarlarida va o'z zamondoshlari bilan olib borgan munozara-yozishmalarida o'z aksini topgan.

Milliy pedagogikamizda muhim o'rin tutuvchi asarlardan biri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilimlar") asaridir. Asosan bilimni ulug'lab, insonni bilim bilan kamolotga yetishtirishga, tarbiya va bilim orqali uning xulqini tarbiyalashga, unda ijobiy xislatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan mazkur asar, ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining deviant xulq-atvorga ilmiy yondashuvini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq-atvoriga nisbatan o'ziga xos yondashuvni kuzatish mumkin. Ya'ni uning bildirishicha, yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo'lishi mumkin:



Ma'lumki, deviant xulq-atvor nazariyasiga nisbatan yagona yondashuv yo'qdir. Turli sotsiologik va psixologik nazariyalar bilan birga, ulardan keskin farq qiluvchi

biologik qarashlar ham yonma-yon rivojlanib kelmoqda. "Qutadg'u bilig"da esa, alloma tomonidan ushbu ikki qarama-qarshi yondashuvlarni birlashtirish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, ayrim insonlarning yomonligiga, deviant xulqqa egaligiga tug'ma omillar sabab bo'lsa, boshqalariga ijtimoiy muhit sabab bo'ladi. Ushbu va boshqa ko'plab jihatlari bilan "Qutadg'u bilig" asari, deviant holatlar sotsiologiyasida ham o'rganilishi lozim bo'lgan asarlar sirasiga kiradi.

O'rta asrlarning mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrlarida biz yuqorida ko'rib o'tgan qomusiy allomalardan tashqari az-Zamaxshariy, ar-Roziy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Imom Ismoil al-Buxoriy, Najmiddin Kubro singari o'nlab mutafakkirlar axloq ilmining nazariy yoki amaliy sohalarida faoliyat ko'rsatdilar. Lekin mo'g'ullar bosqini musulmon Sharqida madaniy hayotni izdan chiqarib yubordi.

Faqat sohibqiron Amir Temur davridagina ilm-fan va san'at taraqqiyoti yana o'z oqimiga tushdi. Temur va temuriylar davri ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining oltin davri sifatida hanuzgacha jahonni hayratga solib kelmoqda. Bu davrda yuzlab qomusiy olimlar, buyuk shoirlar va san'atkorlar yetishib chiqdi. Ular orasida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy alohida ahamiyatga molik.

Nafaqat uning asarla-ridagi yuksak badiiyat, balki falsafiy-axloqiy qarashlar ham hanuzgacha o'zining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yo'qotgan emas. Shuningdek, Navoiy va boshqa Sharq allomalari asarlarida ham ilgari surilgan axloqiy tamoyillar hamda ijobiy qahramonlar qiyofalarida tajassum topgan adolat, sadoqat, burch, muhabbat, rahm-shafqat, mardlik, kamtarlik singari fazilatlar haqida ko'p yozilgan. "Deviant xatti-harakatlar" tushunchasi voyaga yetmagan yoshlarning xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqish degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakterlanadi.

Deviant xatti-harakat ayniqsa, voyaga yetmaganlar uchun xosdir. Ushbu davrda voyaga yetmagan yoshlarning shaxsiy xislatlari shakllanadi, uning o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha maktabdagi darsga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, ichkilik ichadilar, giyohvandlikka ro'ju qo'yadilar. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar.

Sotsiologiyada o'smirlarning deviant xakteri mohiyatini ta'riflashga juda ko'p olimlar, mutaxassislar harakat qilishgan, tadqiqotlar o'tkazishgan. Olib borilgan kuzatishlar natijasida o'smirlarning deviant xakterini o'ziga xos holda asoslab beruvchi qoidalarni ko'rsatib berishgan. Biz o'smirlarning deviant xatti-harakatiga oid chet el olimlarining qator nazariy qoidalarini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, ushbu nazariy qoidalar ma'lum bir joydagi, ya'ni, yashash tarzi, urf-odati, mentaliteti o'zgacha bo'lgan yoshlarning xatti-harakatini sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq qilish asosida vujudga kelgan.

Shuning uchun ham chet el olimlarining ushbu ishlarini bizning O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash qiyin. Shu sababli ham biz Respublikamizda voyaga yetmagan o'smirlar o'rtasida deviant xarakterli bolalar xatti-harakatini, ushbu xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni sotsialogik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan o'rganishni rejalashtirdik. O'smirlik davri nafaqat u bilan muloqotga kirishuvchilar uchun, balki bola shaxsining o'zi uchun ham og'ir davr hisoblanadi. Ko'p hollarda ota-onalar hamda o'qituvchilar yosh davrining ma'lum bir bosqichiga kelib bolaning xarakter xususiyatlarida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lganining shohidi bo'lishadi.

Itoatgo'y, ko'ngilchan bolasining birdaniga qaysar, agressiv, ba'zi hollarda esa sho'x-shodon bolaning kamgap, indamas bo'lib qolishi hollarini tushuna olmay qiynaladilar va bunday holatlarning sababini boshqa narsalardan izlaydilar. Ba'zan esa bu davr xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari, ota-onalarda pedagogik-psixologik tushunchalarning yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida bolani o'rinsiz ayblaydilar, undan yana avvalgidek itoatkor bo'lishlarini talab ham qiladilar.

Aksariyat hollarda o'smirlar bilan ota-onalar va o'qituvchilar orasidagi kelib chiqadigan noxush holatlar ularning yosh davriga xos xususiyatlarini inobatga olmasliklari yoki umuman ushbu yosh bosqichiga xos bilimlarni yetarlicha o'zlashtirmaganliklaridadir.

Deviant xatti-harakatli (xulqi og'ishgan) bolalar va o'z-o'zini boshqara olmaydigan bolalar hech narsadan tap tortishmaydi, ular uchun qonun-qoidalar yo'q, ular o'qituvchilarini ham, ota-onasini ham tan olmasligi mumkin. Agar bundaylarga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, o'z hohish-istaklarini jilovlay olmasa, bunday bolalar katta bo'lganda psixopat yoki ba'zi hollarda qonunbuzar bo'lib yetishishi mumkin.

O'smirlik – shaxs shakllanishidagi eng muhim palla, tengdoshlari va atrofdagilar bilan o'zini qiyoslab, o'z holatidan, ko'rinishidan qoniqmaslik, ikkilanishlar davri hisoblanadi. Sababi o'smir bu davrda sekin-asta zaruriyatni anglab, ma'lum bir erkinlikka erisha boshlaydi, shunga ko'ra u qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib boradi, ya'ni jamoatchilik rivojlanishining qonuniyatlari asosida mas'uliyat bilan harakat qila boshlaydi. Shu tufayli o'smirlik davri turli qarama-qarshi kechinmalar, qiyinchiliklar va krizislar bilan to'lib-toshgan.

Shuning bilan birgalikda, bu davr bolalik hissiyotlarining yo'qolishi, xavotir tuyg'usi va psixologik noqulaylikning paydo bo'lish davridir. O'smirlik davrini ko'pincha rivojlanishdagi proporsiyaning buzilishi davri deb ham ataydilar. Bu yoshda o'zining jismoniy xususiyatlariga e'tibor ortib, atrofdagilarning fikriga reaksiya kuchayadi, shaxsiy izzat-nafsi va xafagarchilik tuyg'usi ko'tariladi.

Jismoniy kamchiliklar ko'pincha bo'rttiriladi. Dastavval, bolalik yoshiga solishtirganda o'z tanasiga ortib boruvchi e'tiborga nafaqat jismoniy o'zgarishlar, balki o'smirning yangi ijtimoiy roli ham sababdir. Atrofdagilar o'smirdan jismoniy yetuklik evaziga rivojlanishning ma'lum bir muammolarini o'zlari uddalashlarini kutadilar. Kattalar g'amxo'rligidan chiqishga intilib, o'smir o'zining ulg'ayayotgan "Men" ini erkin his qilishi uchun vaqtinchalik namoyon qila olish imkonini izlaydi. Buni u bo'sh vaqt muhitidan topadi. O'smir hayotida bo'sh vaqt ustuvor xarakterga ega.

Bu vaqtni voyaga yetmaganlar uydan tashqarida, tengdoshlari kompaniyasida o'tkazadilar. Ota-onalar o'smirning maktabdan tashqari vaqtdagi muloqotlariga ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladilar, go'yoki ularning nazarida farzandlarini istalmagan aloqadan himoya qiladilar. Buning natijasida odamovi, yolg'izlikni xush ko'radigan o'smirlar paydo bo'ladi. O'smirlar axloqiga, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy muhit (mikromuhit hislar oila, sinfdagi, maktabdagi sharoit, bu muhitning qolgan a'zolari bilan munosabatda), shuningdek, o'smir shaxsining turli "hayotiy omadsizliklar"ga reaksiya qilishiga bog'liq individual xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi. O'smir moslashmaganligining turli ko'rinishlarida ifodalanuvchi xulqi og'ishganlik nofarovon psixoijtimoiy rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi natijasidir.

Axir o'smir bu davrda o'z-o'zini har tomonlama anglashga, boshqa odamlar orasidagi o'z o'rini topishga intilarkan, atrofidagi katta odamlarning qiliqlari, harakatlaridagi bir qancha sifatlarga havas bilan qaraydi, bu sifatlarni o'zida topa olmay qiynaladi. Ba'zida hatto o'zini to'laqonli emasday his qiladi. Shunday paytda bolaga birinchi yordam qo'lini atrofidagi yaqin odamlari, avvalo, ota-onasi, ustoz-murabbiyi cho'zmoqligi darkor. Ma'lumki, bola dastlab ota-onasidagi xislat va fazilatlarini ko'radi, keyin esa boshqa atrofdegilar bilan solishtirishni boshlaydi.

Shunday ekan, ota-onalar farzandlari qalbiga yo'l topa bilishlari lozim. Xulqi og'ishgan (maktabdan qochib ketadigan, tengdoshlariga doimiy xalaqit qiladigan, sinfdoshlarining jig'iga tegadigan) bolalar kattalarning har qanday qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj bo'ladilar. Ota-onalar sinf rahbari, o'qituvchi va maktab psixologlari yordamida bolaga ma'naviy yordam berishlari lozim bo'ladi. O'smirlik yoshi – uning dunyoqarashi, e'tiqodi, nuqtai nazari, prinsiplari, o'zligini anglashi, baholashi va hokazolar shakllanadigan davr sanaladi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smir shaxsning tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash unga kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Natijada favqulotda holatlarda katta yoshdagi odamlarning tutgan yo'li va uslubini baholash kabi hayotiy ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant xatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish jarayonida ularga quyidagilar ko'proq ta'sir etishini aniqlandi:

- ✓ voyaga yetmaganlarning kattalar bilan va o'zaro kelishmovchiliklari (oilada, maktabda, istiqomat joyida);
- ✓ voyaga yetmaganlarning ko'chadagi o'zaro va boshqa norasmiy guruhlariga qo'shilishi va ular faoliyatida ishtirok etishi, ushbu guruhlarining rahbarlari tomonidan ularga tazyiq o'tkazilishi;

✓ voyaga yetmaganlarning ularni u yoki bu qonunbuzarlikka yoki jinoyatga boshlovchi kattalar (ko'pincha ilgari sudlangan), shuningdek, ularni muntazam spirtli ichimlik va narkotik moddalar iste'mol qilishga jalb etuvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari:

✓ voyaga yetmaganlarni alohida (oilada) va ko'pchilik tarbiyasi (maktabda) jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar:

✓ tarbiyachilar (ota-onalar, o'qituvchilar)ning o'smirlar yoshi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilmaslik yoki yetarli anglay olmasliklaridir:



Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni.
2. Tarbiyasi qiyin bola. Bu bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.
3. Deviasiya va uning turlari.
4. Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatish xizmati strukturasi.
5. Yaxshi xulq va yomon xulq necha turga bo'linadi?
6. Aksariyat hollarda deviant xatti-harakatlar asosan qaysi yosh davrida uchraydi?
7. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlar haqida qanday fikrlar bildirganlar?
8. Mo'g'ullar bosqini musulmon Sharqida qanday talofatlar keltirdi?



11-§. IJTIMOYILASHUV OMILLARI VA VOSITALARI. BOLANING SOTSIUMDA RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: *Tashqi va ichki omillar, shaxs ijtimoiylashuvi, siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillar, oila, ta'lim-tarbiya tashkilotlari, bolaning ijtimoiylashuvi, ob'ektiv ehtiyoj, ijtimoiylashuv jarayoni, madaniyat, din va mahalla, mikrosotsium, mezoomillar, makroomillar, megaomillar, imprinting, diskreditatsiya, identifikatsiya mexanizmi, ijtimoiylashuv mexanizmlari, ijtimoiylashuv agentlari, yosh davrlari, psixologik-pedagogik tadqiqotlar, me'yoriy qadriyatlar, muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish, jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyati, muomala usuli va mazmuni, ma'naviy madaniyat unsurlari ijtimoiylashuv vositalari.*

Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladi. shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari – individual, faqat shu shaxsга tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning xali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashdir. Bu ehtiyoj:

- ✓ o'z qarashlariga ega bo'lish;
- ✓ o'ziga xosliklariga ega bo'lish;
- ✓ unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga bu yerda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etish ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy sohada amalga oshadi:

- ✓ Faoliyat turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish;
- ✓ muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish;
- ✓ anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari–muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy ta'qiqlar – man etish, ruhsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri bu muomala. Muomala va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi:

1. go'daklik davri – bevosita hissiy-ruhiy;
2. go'daklikdan keyingi davr – predmetli faoliyat;
3. maktabgacha davr – rolli o'yinlar;
4. ilk maktab davri – o'quv faoliyati;
5. o'smirlik davri – kasb ta'limi faoliyati;
6. o'spirinlik davri – shaxsiy muloqot faoliyati.

Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Fransuz olimi Gabriel Tard Amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiyning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

I.P.Podlasovga tasnifi bo'yicha: – *“Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizمنىning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. g'ayri ixtiyoriy mexanizm – unutishdir.*

Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir.

Ajratish mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi. O'z-o'zini cheklash mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlaridan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu o'z menini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini

cheklash, o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi".

O'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash loyihalash mexanizmining mohiyatini tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi.

Ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu – identifikatsiyadir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

Identifikatsiya mexanizmi introyeksiya mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas.

Empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

Qiyin holatlarda intellektuallashuv mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

Ratsianallashuv mexanizmida tarbiyalanuvchi o'z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. Yosh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini qo'llashadi.

Fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun harakatlarni bekor qilish mexanizmi qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'rganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritsa bo'ladi:

▲ Imprinting (xotirada saqlab qolish) – insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin;

▲ Eksiztensial bosim mexanizmi–tilni o'zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan holda ega bo'lish;

▲ Taqlid – biror bir namunaga o'xshashga harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

▲ Refleksiya mexanizmi–ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro' e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritsa bo'ladi: ijtimoiylashuvning an'anaviy mexanizmi inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar, o'rtoqlariga xos norma, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz holatda amalga oshib taasurotlar yordamida sodir bo'ladi.

Institutsional mexanizm insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.

❖ **Ijtimoiylashuv omillari.**

Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O'rganilgan omillar haqida bilimlar yetarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruhga bo'linadi:

➤ Megaomillar (mega-eng katta) – kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritsa bo'ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi.

➤ Makroomillar – (makro-katta) davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

➤ Mezoomillar – (mezo-o'rta) hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

➤ Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta'sir qiladi. Mikroomillarga muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar – oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

❖ **Biologik omillar.**

Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarni aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud – qon kasalligi, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni genetika o'rganadi.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishiga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

❖ **Ijtimoiy omillar.**

Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari – sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rgandilar.

❖ **Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni.**

Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit – inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi

ham. inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi. uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqe'larni egallashi mumkin. Masalan. ayol ham rafiq, ham ona, ham ustoz mavqe'larini egallashi mumkin. Har bir mavqe' insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqe'i ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohada qatnashgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muximdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkabligi jihati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ham ijobiy ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi, o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bog'chasi va maktabda sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol – o'z vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan fahrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi rolini misol qilsak bo'ladi. Katta shaharlar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

❖ **Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.**

So'nggi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uni muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Shunga qaramay tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini to'liq ochib bera olmaydi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikni aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:- *"Tarbiya-insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi."* Bu ta'rif to'liq to'g'ri hisoblanmaydi. Bu faqat muallifning nuqtai nazarini aks ettiradi.

Ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar-

muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega hamda boshqa omillarning o'rnini to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir.. Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Demak, bolaning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi: ijtimoiylashuv va individualizatsiyalanish.

Agar sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda o'z navbatida bola o'zining ham individual xususiyatlarini sotsiumga qo'shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi.

Bu jarayonlar **spontan, stixiyali va tartibsiz** holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma'lum maqsadga yonaltirilib ham borilishi mumkin. Bu jarayon esa "tarbiyalash" deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil faoliyati esa o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarning va tarbiyachilarning harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan.

Bolaning ijtimoiy muhitga moslashuviga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-ma'naviy fazilatlarining yo'qligi hamda ularning shakllanmay qolishi ijtimoiy dezadaptatsiya deb ataladi. Bunday holatlarda ularning oldini olish hamda ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak bo'ladi. Demak, bolaning jamiyatda ijtimoiy adaptatsiyalanishiga, uning ijtimoiy statusini qayta tiklashga, yo'qotilgan ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan faoliyat turini ijtimoiy rehabilitatsiya qilish deb ataladi.



Nazorat savollari:

1. Itimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillari qaysilar?
2. Tashqi va ichki omillarga qanday ta'rif berish mumkin?
3. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning ta'siri qay tarzda namoyon bo'ladi?

4. Bolaning ijtimoiylashuvida oila, ta'lim-tarbiya tashkilotlari, madaniyat, din va mahallaning o'rni qanday?
5. Ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshirilishidagi qadamlar nimalardan iborat?
6. Tarbiyaga ijtimoiylashuv omili sifatida qarash mumkinmi, mumkin bo'lsa asoslab bering?
7. Ijtimoiylashuv jarayoni 3 asosiy sohada amalga oshadi, ularni qaysilar va ularni ta'riflang?
8. Individuallashuv insonning xali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashdir. Bu ehtiyo qanday hollarda namoyon bo'ladi?
9. Muomala va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan qanday yosh davrlari qo'llaniladi?



12-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI IJTIMOII PEDAGOGIGIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Tayanch tushunchalar: *yosh avlodni tarbiyalash, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, bo'lajak pedagog, psixologik xossalar, muayyan davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, talablar, pedagogik faoliyat, maxsus bilim, pedagogik intuitsiya, tafakkur, tug'ma qobiliyat, kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat, o'qituvchi faoliyati, bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar, yosh pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi, pedagogning individualligi, nutq va yozuvning paydo bo'lishi, o'qituvchi-bakalavr, ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyati, pedagogik mahorat, mustaqil o'qib-o'rganish, maktab infratuzilmasi, ma'naviy muhit.*

Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaralishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi.

"...O'qituvchi – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmokchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmokchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u

insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", deb ta'kidlaydi.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini holisona baholab: *"Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi"*, *"Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak emas oson oning haqqin yuz ganj ila"*, – kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. Shuning uchun ham u o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyiq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim hislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Maktab direktori esa, bunday hislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

Bo'lajak pedagog shaxsiga bir qator jiddiy talablar qo'yilar ekan, ular ichidan asosiy, ya'ni uni qanoatlantirmasdan turib, yuqori malakali o'qituvchi yoki tarbiyachi bo'lib yetishish mumkin bo'lmagan va ikkinchi darajali, ya'ni pedagog uchun zarur bo'lmagan, ammo uni shaxs sifatida shakllanishiga va shaxsga ta'lim-tarbiya berishiga yordam beruvchi talabni ajratish mumkin. Bosh, asosiy talablar singari, ikkinchi darajali talablar ham pedagogning faoliyati psixologiyasiga va muloqotiga, Shuningdek, uning qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmasi, mahorati, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish uchun zarur bo'lgan sifatlarga bog'liqdir. Asosiylari orasida ham, qo'shimcha psixologik xossalar ichida ham o'zgarimas, ya'ni har bir davrda, vaqt va xalqlarda doimo o'qituvchi va tarbiyachilar uchun, malakali pedagoglar uchun zarur bo'lgan hamda o'zgaruvchan, ya'ni muayyan davr ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyoti talablaridan kelib chiqadigan, jamiyat qaror topgan sharoitda yashaydigan va pedagog ishlaydigan muhit talablaridir.

Pedagogga qo'yiladigan asosiy, bosh va o'zgarmas talablar bolalarga bo'lgan mehr, pedagogik faoliyat, o'zi ishlaydigan soha bo'yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo'lish, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilganlarning birortasizis muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas.

Bu hamma xossalar tug'ma qobiliyat emas. Ular muntazam mehnat natijasida egallanadi. Shuningdek, pedagogning o'z ustida tinmay ishlashi tufayli bunyodga keladi. O'qituvchi va tarbiyachilarning ko'pligi sir emas, ammo bu kasbni yuksak darajada, muvaffaqiyat bilan ado etish mushkul ish. Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasada, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi ajoyib va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq hislatlariga qaratilgan. Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

✓ shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalari sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

✓ keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

✓ Yosh pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

✓ o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

✓ ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

✓ o'z ishiga ijodiy yondoshishi;

✓ bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

✓ pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

✓ O'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishga intilishi kerak.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Jamiyatning muayyan tarixiy davrida, belgilangan vaqt va belgilangan ish joyiga xos bo'lgan pedagogning asosiy va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlari haqidagi masalani hal qilish bir muncha murakkabdir.

Jamiyatda ro'y berayotgan yangi shart-sharoitlar, ta'lim va tarbiya sohasida yangi maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ular o'z navbatida o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o'z vaqtida va aniqroq aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

O'quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o'zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo'lmog'i va o'zida bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog'i lozim.

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil hislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar.

- Jumladan, **birinchidan**, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish hislatlari;

- **ikkinchidan**, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi hislatlari va xulq-atvoriga qarab;

- **uchinchidan**, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq hislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishining tarixiy jihatlariga nazar solar ekanmiz, pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liqligini anglaymiz. Terib-termalab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kavlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila va urug'ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar orqali ma'lumotlar berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralari asosida amalga oshirilgan.

Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi. Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalani, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj – yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar

guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Bobil, Misr, Hindiston)da paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar "akademiya" deb nomlangan. "Akademiya" so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Miloddan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi "Akadema" nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik, ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilganligini ham alohida ta'kidlash o'rinli.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular "pedagog" deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi "bola yetaklovchi" demakdir. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davrida aksariyat maktablar musulmon mamlakatlarida masjidlar yoki Hindistonda ibodatxonalar qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan. O'rta asrlar davrida esa Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular "Donishmandlar uyi" (IX asr, Bag'dod), "Ma'mun akademiyasi" (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib SCIENTIFIC borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali qushchi, Taftazoniy, qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar. XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozonganlar.

Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda g'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida ham o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgata olishi, har bir

ishda ularga ibrat bo'lishi kerakligidir. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchini bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun tavsiyalar beradi. Jumladan, bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor qaratish, ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish, bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqтира olishi, berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi, bilimlarni tushunarli, bolaning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi, har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish kerakligiga urg'u beradi. Hazrat Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralari ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi.

Xususan: *"Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rsatmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmasliq unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir"*, deb ta'kidlaydi. Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini izohlab o'tadi: *"Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qiladi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim, bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (ya'ni muallimga) qulluq qilsa arziydi"*, deb o'qituvchi sifatiga odilona va oqilona ta'rif beradi.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning *"diqqatlariga suylagan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa"* ekanligini ta'kidlab, *"fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga boqliqdir"*, - deydi.

O'z davrining mashhur pedagog-gumanisti, chexlik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik *"yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb"* ekanligini yozib qoldiradi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Yan Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi.

Taniqli rus pedagogi va adabiyotshunosi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi to'g'risida o'z g'oyalarini fikrlarida ilgari suradi.

Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi jarayon – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi. Bugungi kunda esa mamlakatimizda 2020-yil 24-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va unda belgilab berilgan ustuvor yo’nalishlarni amaliyotda yangicha uslublar asosida qo’llash Respublika maktabgacha ta’lim, oliy va o’rta maxsus ta’lim hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog’liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Biror bir inson pedagoglik kasbini tanladimi, demak, u albatta, pedagog shaxsi va unga qo’yiladigan talablarga ham har tomonlama mos bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’yilmoqda. Shu o’rinda bir savol tug’iladi.

Zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi zarur? O’qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi shaxs sanaladi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o’qituvchi-bakalavr qiyofasida ijobiy fazilatlar namoyon bo’la olishi kerak. So’z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o’qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarni o’zida umumlashtiradi. Demak, o’qituvchi-bakalavr jamiyat ijtimoiy hayotida ro’y berayotgan o’zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o’quvchilarga to’g’ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi, zamonaviy o’qituvchi sifatida ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan doimo xabardor bo’lishi, o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega, o’z ustida tinimsiz izlanishi, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga hamda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi, yuksak darajadagi pedagogik mahorat, jumladan, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika – nutq, yuz, qo’l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest kabi jarayon qoidalarini chuqur o’zlashtirib olgan bo’lishi, nutq madaniyatiga amal qilishi, ya’ni uning nutqida jozibadorlik, aniqlik, to’g’rilik, ravonlik va turli dialektal so’zlardan holilik aks etgan bo’lishi, shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o’rnak bo’la olishi lozim.

O’qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o’zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. U eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to’g’ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan

chiqa olishi darkor. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan ijobiy munosabat o'rnatishga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi kasb etikasi nuqtayi nazaridan talab va qoidalarga kiradi. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishni o'zining kasbiy burchi, deb bilishi kerak.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida rivojlanib boradi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Jumladan, mustaqil o'qib-o'rganish, ya'ni pedagogika olamida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi ilmiy adabiyotlar, internet materiallari, bosma ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan xabarlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni o'qib tahlil qilish va umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash bo'yicha o'z ustida doimiy izlanish olib borishi kerak. Respublikamiz misolida oladigan bo'lsak, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi bosh ilmiy-metodik markaz qoshida tashkil etilgan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq hamda mintaqaviy markazlarida kasbiy malakalarini oshirish, xalq ta'limi tizimi bo'yicha esa Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lgan Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti hamda Respublika ta'lim markazlarida o'z malaka va ko'nikmalarini oshirib borish, doimiy ravishda ilmiy anjumanlar – nazariy va amaliy konferensiya va seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglarda faol ishtirok etish, O'zbekiston va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish yoki stajirovka o'tash orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi kabi talablar asosida pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat hissi shakllanib boradi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish – pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari zamirida bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayotda mavjudligini ta'minlash yo'lida qudratli vosita ekanligiga ishonch hosil qildira olishda o'z aksini topadi.

Xulosa o'rinda shuni qayd etish joizki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan yangi va o'z o'rinda xalqchil muhim yuridik hujjat bo'lib, mamlakatimiz ta'lim sohasining istiqboli uchun yo'llanmadir. Mazkur Qonun g'oyalarni amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Kamil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Qolaversa, bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilmoqda.

Mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalariga keng sharoit yaratilayotgani bois eksperiment tariqasida kam quvvatda ishlayotgan maktablarni tanlov asosida salohiyatli talabgorlarga ishonchli boshqaruvga berish takliflarining bildirilayotganligi, shuningdek, ta'limning ushbu jarayoniga Davlat rahbari darajasida qaratilayotgan e'tibor – biz kabi bo'lajak pedagoglarga ham pedagog shaxsi va unga qo'yilayotgan talablarga mos tarzda sifatli ta'lim olib, o'z ustimizda tinim bilmay ishlashimiz uchun mas'uliyatli da'vat hisoblanadi. Zotan, yurtimizning kelajak avlod vakillarini ayni vaqtda biz kabi oliy ta'limda tahsil olayotgan yosh pedagoglar tarbiyalaydilar.



Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ijtimoiy pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar.
2. Ijtimoiy pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rni.

3. Ijtimoiy pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatлари.
4. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?
5. O'quvchilar o'qituvchilarni necha xil hislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar?
6. Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablarni sanab bering va ta'riflang.
7. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qanday vazifalarni bajarishi lozim?
8. Mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalariga qanday e'tibor berilmoqda?



13-§. IJTIMOY PEDAGOG FAOLIYATI MAZMUNI

Tayanch tushunchalar: *Respublika siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'rifiy-madaniy islohotlar, ijtimoiy tuzilmalar, mafkuraviy va axloqiy tamoyillar, ijtimoiy yordam, pedagogik masalalar, tabiiy (irsiy) va ijtimoiy xususiyatlar, ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya, umumpedagogik bilim darajasi, ma'naviy faktorlar, pedagog kasbining spetsifik xususiyatlari, jamiyat tarbiyasi, autsayderlar, sotsiologiya, psixologiya, irsiyat, muhit, sotsium.*

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga qiziqish jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida paydo bo'ldi. Hozirda Respublika siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'rifiy-madaniy islohotlarni boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g'ayri ijtimoiy xodisalar – alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishalik kabi ijtimoiy muammolarni keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muxtojdir. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolariga bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning zarurligini quyidagi holatlar talab etayotgan edi:

Birinchiidan, bugungi kunda ta'lim va tarbiya maqsadi bilan uning ba'zi natijalari o'rtasidagi qarama-qarshilik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash zarurligi talab etilmoqda. Ushbu talab pedagogika olamiga jamiyatdagi munosabatlar bilan shug'ullanuvchi sotsiologiyani olib kirish zaruriyatini uyg'otdi. Chunki ongli xususiyatga ega bo'lgan inson faoliyati, sotsiologiya fanining o'ziga xos ob'ektini tashkil etadi. Har bir shaxsning jamiyatdagi o'z o'mini, o'zligini anglashi,

hayotiy-axloqiy me'yorlarni o'zida mujassam etishi jamiyatda shu ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etib. Ijtimoiy hayotimiz, zamonamiz bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashda Pedagogika va sotsiologiya fanlarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Vaholanki ta'lim-tarbiyaning o'zi ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayondir.

Ikkinchidan, ba'zi jamiyat a'zolarining ongidagi ma'naviy bo'shliqning ijtimoiy kelib chiqishi sabablarini aniqlash, ularni hal qilish mexanizmini yaratish kabi yangi muammolarning yechimini topish uchun pedagogik va sotsiologik tushunchalarning tutashligiga asoslangan yangi metodologiyani talab etmoqda. Inson shaxsini shakllantirishda undagi tabiiy (irsiy) va ijtimoiy xususiyatlarini, uning oliy nerv faoliyati imkoniyatlarini hisobga olib yondashmoq lozim. Inson organizmining biologik va sub'ektiv (shaxsiy tomonlari) asosida o'z-o'zini tarbiyaga olish, sharoitga moslashish, mal'um ob'ektga yo'naltirish qonunlarini bilish asosida uning tarbiyasini tashkil etish lozim. Shaxs shakllanishi jarayonida ichki va tashqi ta'sir imkoniyatlari o'zaro omuxta qilish, tarbiya jarayonini yoshlar faoliyatining xususiyatlari, o'zini anglash kabi muhim xususiyatlari asosida shaxsning erkinligi va g'ururini paymol qilmasdan, demokratik, insonparvarlik va milliy tamoyillarga tayanib, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish davr talabidir. Jamiyatga insonlar ongini, tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartirish ijtimoiy- ma'rifiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib. Uni ilmiy jihatdan o'rganish muhimdir. Pedagogika va sotsiologiyaning tutashganligi tufayli yuzaga kelgan muammolar O'zbekistonlik olimlarning diqqat e'tiborini ham o'ziga tortmoqda.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy munosabatlar va bunda davlatning roli, axborotlar, ustoz-shogird munosabatlari, kadrlar muammolari, yoshlarning ma'naviyatida ro'y berayotgan zaiflikning sabablari, ularni aniqlash, tekshirish, hal etish, ijtimoiy faollik kasbiy mahorat, shuningdek mustaqil O'zbekistonda kechayotgan ma'naviy va mafkuraviy islohatlarni, umuman, jamiyatni "pedagog so'zi" bilan o'rganish ijtimoiy pedagogikaning muammolaridan bo'lib hisoblanadi. Eng asosiy, ijtimoiy hayotda shunday holatlar uchraydiki, bunda bolalar o'smirlar, tarbiyachilar bunday og'ir vaziyatda o'zlariga ruhan malham bo'ladigan sotsial pedagogning yordamiga muhtoj bo'ladi. Demak, bugungi jamiyatimiz asoslariga sotsial psixolog bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogga bo'lgan ehtiyoji ham sezilmoqda.

Hayotdan umid uzgan, o'ziga ishonmaydigan, hayotiy muammolarni mustaqil hal eta olmaydigan shaxslar insoniy yordam, tushunish, uning qayg'usiga sherik bo'lishlarini kutadilar. O'z so'zi va faoliyati bilan shu kabi shaxslarda o'ziga ishonch uyg'otish, o'z imkoniyatlarini anglab yetishlariga yordam berish sotsial pedagogning asosiy vazifasidir. Ijtimoiy hayotimizdagi voqelikning insonlarga bo'lgan ta'siri ularning ongida yuz berayotgan jarayonlar haqida bahs yuritadigan mazkur fan yo'nalishi bugungi kunda ijtimoiy buyurtma sifatida vujudga kelmoqda.

Demak ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishi ijtimoiy zarurat asosida namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya – bu bolalarning ijtimoiylashuvi va bolalarga ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi

pedagogika fanining tarmog'idir. Ya'ni tarbiya – bu nafaqat o'quv muassasalari balki butun jamoatchilik, jamiyatning barcha jabhalarida o'z ko'rinishiga ega.

Ijtimoiy pedagogika – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandır. Har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan xodisalarning pedagogik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish-ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifasidir.

Ijtimoiy pedagogika O'zbekistonda ham, dunyodagi boshqa mamlakatlarda ham uzoq va chuqur an'analarga ega. Shunga qaramay sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy pedagogika yutuqlari e'tiborga olinmadi. Mana shuning uchun ham ijtimoiy pedagogika yangi soha sifatida faqat ijtimoiy-pedagogik mutaxassislar davlat va jamoat organlari boshqarmalarinigina emas, balki mutaxassislar tayyorlaydigan tizimni, shuningdek ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ilmiy-tadqiqot bazasini ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy pedagogikani rivojlantirish va mazkur yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy pedagogika yaqin kelajakda o'qituvchi yoki tibbiy xodim singari ommaviy kasbga aylanadi, chunki ayrim odamning ijtimoiy kasalligini oldini olish va ma'naviy-axloqiy og'ishini davolash "ijtimoiy epidemiya"ga qarshi kurashga nisbatan ancha osondir.

Bir ob'ektni turli fanlar tomonidan o'rganish mumkin. Ijtimoiy pedagogika-tarbiya va ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va xodisalarni o'rgatadi. Bu jarayon jamiyatga "kirish" va o'zaro munosabatda bo'lishni anglatadi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) oladilar, ya'ni ijtimoiylashtirish yuz beradi.

"Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya" kursi talabalarining umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli munosabatlarni, ma'naviy faktorlarni tekshirish shuningdek, mazkur fanning ob'ekti, predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari ijtimoiy pedagog kasbining spetsifik xususiyatlari kabi muammolar ustida bosh qotirishga undaydi.

Kursning asosiy maqsadi bo'lajak pedagog kadrlarni hayotimizning barcha jabhalariga "pedagogik ko'z" bilan qarash, o'rganish, reabilitatsiya qilish yo'llarini aniqlash va ma'lum xulosalar chiqarishga o'rgatishdan iborat.

Kursning asosiy vazifalari oliy o'quv yurtlari talabalariga:

➤ Mustaqil O'zbekistonda shakllanayotgan Pedagogika fanining yangi qirralaridan biri sifatida ijtimoiy pedagogika fani haqida tushunchalar berish va ularni ijtimoiy hayot bilan muqoyasa o'rganish;

➤ Ijtimoiy muhit va shaxsning ijtimoiylashuviga doir qonuniyatlar;

➤ Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyatining o'ziga xos spetsifik xususiyatlari, ilmiy-tadqiqot metodlari haqida tushunchalar berishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ijtimoiy munosabatlari va bunda davlat hamda jamiyatning roli, ba'zi jamiyat a'zolarining ma'naviyatida ro'y berayotgan zaifliklar,

ularning sabablarini aniqlash, tekshirish, qayd etish, umuman jamiyatda kechayotgan ma'naviy va mafkuraviy isloqotlarni, jamiyatni pedagogik nuqtai nazardan o'rganish ijtimoiy pedagogikaning asosiy muamolaridan biridir. Demak, ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishi ijtimoiy zaruriyat, ijtimoiy buyurtmadir. Ijtimoiy munosabatlarni ilmiy pedagogik nuqtai nazardan o'rganish va yanada takomillashtirish davr taqozasidir.

Rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an'anasi sifatida. O'zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari.

Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti xalqning tarixiy-madaniy va etnik an'analari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq holda rivojlanadi va xalqning inson va insoniy qadriyatlar haqidagi qarashlariga tayanadi. Insoniyat rivojlanishining turli bosqichlarida va barcha jamiyatlarda ham o'zini to'laqonli boshqarishga imkoni bo'lmagan kishilarga, masalan, bolalar, qariyalar, kasallar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida cheklanishlari bo'lganlarga munosabat masalasiga duch kelganlar. Bunday masalalar turli jamiyat va davlatlarda turlicha hal etilgan, ya'ni, o'jiz va qarovsiz qolganlarni jismoniy yo'q qilishdan tortib ularni jamiyatga to'liq integratsiyasigacha yo'llar tutilgan.

O'zbekistonda qadimdan bunday kishilarga nisbatan insonparvarlik yo'li tutilib, ularga doimo rahm ko'rsatib kelingan, ayniqsa, islom dini kirib kelganidan keyin rahmdillik va xayr-saxovatga e'tibor kuchaygan. Muhtojlarga doimiy yordam ko'rsatib kelingan.

Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogika o'z nomiga ko'ra sotsium, ya'ni jamiyat bilan shug'ullanadi. Shu bois uni jamiyat tarbiyasi ham deyish mumkin. Jamiyat tarbiyasi deganda "Inson" tizimi ichida olib boriladigan tarbiya tushuniladi. Ya'ni, bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta'sir, shuningdek ijtimoiy institutlar faoliyatining (xayriya jamg'armalari, tashkilotlar, jamiyatlar va assotsiatsiyalar) tarbiyaviy ta'siri nazarda tutiladi. Ijtimoiy "autsayderlar", ya'ni qariyalar, nogironlar, yolg'iz yashovchilar, iqtisodiy nochor ahvolda yashovchilar va xalqning shu kabi boshqa tabaqalariga kiruvchilarga yordam berish ijtimoiy pedagogikaning maqsadalaridan biridir. Chunki faqat jamiyat va ijtimoiy ta'sir vositasida insonlarda insoniylik, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyatlilik singari fazilatlarini shakllantirish mumkinki, ushbu jarayonda oila, maktab va boshqa o'quv muassasalari yordamchilar sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagogika (lat.socium-jamiyat)ning asosiy vazifasi ijtimoiy tarbiya muammolarini o'rganishdan iborat. Demakki, uning ob'ekti ijtimoiy hayotiy tarbiyaviy jarayonlardir. Predmet esa, shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri qonuniyatlari, jumladan oilaning, birlashmalarning, jamqarmalarning tarbiyaviy ta'siri kabilar hisoblanadi. Demak, ijtimoiy pedagogikaning predmeti – bu shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidir.

Ijtimoiy pedagogika, ayniqsa, "og'ir guruh"larga aloqida e'tibor qaratadi. Bu guruhga taqdir taqozasi bilan og'ir vaziyatlarga tushib qolgan shaxslar kiradi. Bular: narkomanlar, ishsizlar, fohishalar, jinoyatchilar, qamoqda o'tirib chiqqan kasallar, jinoyat guruhlarga va man etilgan diniy sektalarga o'zlari bilmagan holda kirib qolgan shaxslar va h.k kiradi. Shuningdek, ijtimoiy pedagogika katta yoshdagi va qariyalarni;

ishlab chiqarish jarayonlaridagi rahbar va xodimlarning o'zaro munosabatlari. ayollar tarbiyasi, kasbidan qoniqmaganlik, qolaversa dam olishga, ruhiy kasallangan, ta'lim olishdagi muommolar, tarbiyasi og'ir bolalar kabi muammolarni ham nazardan chetga qoldirmaydi.

Ijtimoiy hayotning turli javhalaridagi bu insonlar, albatta, yuqori malakali pedagogik yordamga muxtojdirlar.

Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Rivojlangan davlatlarda ijtimoiy tarbiyani amaliy tashkil etish maxsus kasb darajasiga ko'tarilgan. Janubda bu kasb "Ijtimoiy faoliyat" deb yuritiladi. Bizning yurtimizda aholining, umuman jamiyat a'zolarini ijtimoiy muhofazalashga doir qator ishlar amalga oshirilishidan qat'i nazar, u bilan shug'ullanuvchi maxsus fan yo'nalishi to'liq shakllanmagan.

Ijtimoiy ish jamiyat a'zolarining bir-biriga insoniy munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Qadim zamonlarda bu faoliyatning diniy mas'ullik, sahiylik, xayrixohlik singari qirralari namoyon bo'lgan. "Ijtimoiy pedagogika" ning paydo bo'lishi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar bilan boqliq. Chunki bu o'zgarishlar tarbiya jarayonini murakkablashtirib, yoshlar tarbiyasida yangi muammolarni vujudga keltirib, yosh avlodning ijtimoiy shakllanish jarayonini ilmiy o'rganishni talab etmoqda. An'anaviy pedagogika fani ta'lim muassasalari qobiqida cheklanib qolib, ijtimoiy muhit omilining tarbiyaga bo'lgan ta'siriga yetarlicha e'tibor bermadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarbiyaning umumiy xarakterini chetga surib qo'ydi. Ijtimoiy pedagogika Rossiyada o'tgan asrning 80-yillarida aloqida fan sifatida shakllandi. Mustaqil yurtimizda esa uning ma'lum qirralari yoritilgan bo'lishiga qaramasdan bu yo'nalish bo'yicha hali aloqida tadqiqot ishlari yuzaga chiqqanicha yo'q. Bu fan qar bir jamiyatning, har bir mamlakatning, qar bir millatning ijtimoiy qayoti va milliy psixologiyasi bilan bevosita boqliq. Shu nuqtai nazardan mazkur fanni turmush pedagogikasi, deyish ham mumkin.


Turmush – shaxsning jamiyatda o'z o'rmini topishini taqozo qiladi. Biz ta'lim tarbiya muassasalari va ulardan tashqari, ya'ni har kungi ijtimoiy hayotimiz orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish asosida barkamol, komil insonni voyaga yetkazishimiz kerakki, toki biz tarbiyalagan shaxs jamiyatga "kirishib keta olsin". Ular jamiyatdan chetda qolishi mumkin emas. Ma'lum sabablarga ko'ra "jamiyat tan olmagan", "sotsiumga kirisha olmagan" shaxslarning o'z yo'lini topib ketishi uchun ijtimoiy faoliyat talab etiladi. Ushbu muammo dolzarb kasb etib, Rossiyada 1960-1970 yillardayoq shunday ijtimoiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ishlar olib boriladi.

Jumladan, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, uy-joy kommunal xizmati tashkilotchisi, maktabdan tashqari muassasalar xodimlari, yotoqxon, maktab klublari xodimlari singari kadrlar faoliyat olib borishdi, qator chet mamlakatlarda esa 1970-1980 yillarda ijtimoiy talab-bu muammoni hal etishning yangi darajalarini vujudga keltirdi.

Amaliyotda ijtimoiy pedagogik va yoshlarning yashash komplekslarida, turli yoshdagi xodimlardan iborat birlashmalarda ijtimoiy pedagogik tajribalarni to'plash ishlari shakllantirilgach, maktablarning ijtimoiy institutlar bilan hamkorligi o'zgardi. Shu asosda ijtimoiy muhitni pedagoglashtirish jarayoni intensiv tarzda rivojlanib bordi.

Lekin bu boradagi kadrlar masalasi muammo bo'lib qolaverdi. Buning ustiga tarbiya ishlari bilan faqat maktab, bog'cha kabi ta'lim-tarbiya maskanlari shug'ullanadi, degan fikr jamiyat a'zolari ongida o'rnatilib qolgan. Demak, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi fanlar va o'quv muassasalaridan farqli o'laroq ijtimoiy pedagogika ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham u juda ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq.

Ularning asosiylari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.



Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy fan sifatida barcha ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'langan. Barcha ijtimoiy fanlar inson xulq-atvorining turli tomonlarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, tarix, iqtisod, siyosatshunoslik fanlari bilan hamkorlikda boyib va rivojlanib boradi.

Ijtimoiy psixologiya jamiyatimizda shaxslararo munosabatlarning tabiati va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida o'zining nazariy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etadi va shu orqali yangicha mazmundagi demokratik munosabatlarning jamiyatning har bir jamoasida, oilasida va fuqarosida qaror topishiga, yoshlarda yangicha fikrlashni va dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga ko'maklashadi.

Sotsiologiya insonning ijtimoiy turmushini, guruh va jamiyatni o'rganadi. Ijtimoiy mavjudot bo'lgan odamlarning xulq-atvori uning predmetidir.

Antropologiya – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzot irqularining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi farq-tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan.

Antropologiyaning muhim sohasi – odam organizmining tuzilishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan fiziologik, biokimyoviy va genetik omillarini o'rganadigan bo'limi- "Odam biologiyasi" degan umumiy nom bilan XX asr o'rtalaridan boshlab rivojlandi.

Siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro'y beradigan voqea-hodisalar, o'zgarishlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Uning siyosiy fan sifatidagi roli va ahamiyati uning siyosiy mohiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalarni alohida olingan bir mamlakat doirasida emas, balki jahonning turli mamlakatlarda siyosiy muammolarni hal qilishida erishilgan natijalar bilan belgilanadi.

Iqtisod fanlari esa ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari, jamiyatning iqtisodiy turmushini o'rganishga yordam beradi.

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi.

Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Inson bo'lib yetishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib yetishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit “hududi” kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.



Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy pedagogikaning zarurligini qanday holatlar talab etadi?
2. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.
3. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
4. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
5. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy fan sifatida barcha ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'langanligini ta'riflang.
6. Insondagi biologik va ijtimoiy omillar nimalarda namoyon bo'ladi?
7. “Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya” kursininig maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. Bola ijtimoiylashuvida sotsium qanday ahamiyatga ega?



14-§. OILA VA MTT HAMKORLIGIDA IJTIMOIYLASHTIRISH

Tayanch tushunchalar: *Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, estetik tasavvurlar, xalq amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik namunalari, pedagogik talab, tabiiy moyilliklar, teatr san'ati, oilaning demografik, badiiy an'analari, estetik munosabat, mahalliy badiiy an'analari, murabbiy-o'qituvchi, milliy g'urur va milliy tuyg'u, oila va bola ta'lim-tarbiyasi, oila va farzand munosabatlari, insoniyat, jamiyat, oila va MTT hamkorligi, ijtimoiy pedagogning kasbiy kompetentligi.*

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda oila sharoitida estetik tasavvurlarni shakllantirish xalq amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik namunalarning o'ziga xos o'rni bor. Faqatgina, ota-onalar o'z farzandlarining diqqatini shu buyumlarga badiiy idrok nuqtai nazaridan qarata olishlari muhim pedagogik talabdir. Zero, go'zal narsa insonni butun umr qamragan bo'lishi, u esa uni qalbi bilan ko'rmasligi, anglamasligi, idrok etmasligi undan zavqlanmasligi ham mumkin. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, oilada maktabgacha yoshidagi bolalarning tasavvurlarini shakllantirishda muayyan yo'nalish yoki qat'iy belgilangan faoliyat, san'at turi ustivor bo'lishi pedagogik nuqtai nazardan me'yorlanmaydi. Bu ustivorlik bir qator omillar asosida belgilanadi. Ularning asosiylari quyidagilar bo'lishi mumkin:

➤ Bolalarning har birlarini o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy moyilliklari va qiziqishlari;

➤ Ota-onalarning (buvi-buvalarning) ham qiziqishi, ham hisobga olinadi. Ular nimagadir qiziqsa, masalan, teatr san'atiga, tabiiyki ular shu san'at turidan ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar, o'z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishda shu san'at turidan ustivor tarzda foydalanadilar;

➤ Oilaning demografik, badiiy an'analari. Masalan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob ko'za, ko'zacha, obdasta, naqshinkor sandiqcha, dutor yoki boshqa musiqa asboblari o'sayotgan bolalarga estetik ta'sir etmay qolmaydi. Zero, kattalar ham bu buyumlarga estetik munosabat bildirib boradilar, ma'lum ma'noda bu munosabatlar ham avloddan-avlodga o'tib boradi;

➤ Mahalliy badiiy an'analarda, Xiva gilamchiligi, Rishton kulolchiligi, Toshkent naqqoshligi, Qo'qon yog'och o'ymakorligi, Buxoro va Toshkent ganch o'ymakorligi, Buxoro zardo'zlik buyumlari, Shahrisabz so'zanalari, Chust va Marg'ilon do'ppilari va hokazolar;

Ota-onalarning kasb-kori ishchi, fermer, chorvador, hunarmand, san'atkor (aktyor, xonanda, sozanda rejissor va hokazolar), murabbiy-o'qituvchi va hokazolar; Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish badiiy qadriyatlarining boshqa turlari ham samarali qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, me'morlik va uning tarixiga oid ma'lumotlar nafaqat estetik tasavvur, balki ta'lim-tarbiyaning boshqa jihatlari, xususan bolalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy tuyg'u kabi sifatlarni shakllantirishda alohida

e'tiborga molik Shaxs kamolida oila bosh omil ekanligi isbot talab qilmaydigan tamoyildir. Shuning uchun, insoniyat jamiyatida oila va bola ta'lim-tarbiyasi, oila va farzand munosabatlari hamisha o'rganilib, takomillashtirilib kelingan. Zero, oila faqat maslklari borlarni birlashtirgan maskan, "mashina" emas, balki "oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir" ya'ni oila jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham oilada ota-onaning o'rni beqiyosdir.

Tajriba va kuzatishlar maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar (oila) hamkorligida o'tkaziladigan har qanday tadbirlar maktab yoshdagi bolalar, xususan, katta guruhdagi kichikintoylar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, tarbiya – bu hammaning ishi ekanligini doimo yodda tutish va uni o'zaro ko'makdoshlik bilan amalga oshirish jamiyat oldidagi mas'uliyatli faoliyatimiz, vijdoniy burchimizdir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab faoliyat ko'rsatgan taniqli tatar ma'rifatparvari Rizouddin ibn Faxruddin oilada farzand ta'lim-tarbiyasida onalarning o'rni alohida ahamiyatga molikligini u'qtiradi. Va ota-onalarni, ayniqsa, onalarni "ipagu harirlarga bezanib, to'yu tomoshalarda yurishlari..."qattiq tanqid ostiga oladi. Agar bu tanqidga bugungi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ishga boradigan ayol(ona)larning farzand ta'lim-tarbiyasidagi ishtiroki, ulushi ham mazmun, ham hajm jihatidan kamayib bormoqda.

Oila va farzand (bola) munosabatlari bola ta'lim-tarbiyasi haqidagi g'oyalar ichida Rizouddin ibn Faxruddinning yana bir fikri e'tiborlidir. "Oilada bola tarbiyasida onaning, ayniqsa, onaning o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Yaxshi xotin bolalarini ham yaxshi tarbiyalay oladi: xotinlar birinchi navbatda murabbiylardirlar; xotinning oila tebratishi murabbiylik xamiridan patir qilishi, uning tandirida o'sha patirni yopish degan so'zdir. Bolalar har qanday xislatni eng avval ota-onalari va uydagi kattalar –bobolari va buvilaridan oladilar". Demak, oila ma'naviyati bola ta'lim-tarbiyasidagi bosh ijtimoiy fon bo'lishi lozim. Bu holatning falsafiy talqini haqida fikr yuritir ekan, M.Xolmatova oilaning ma'naviy olami ijtimoiy taraqqiyotning ta'siri va uning mahsuli bo'lsa ham u o'z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir o'tkazishini umumqadriyatlarimiz qonunlaridan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Oilada ota-onaning bosh vazifasi bola ta'lim-tarbiyasi, unga odob-u axloq, zehn ato etishligi tarixiy manbalarda, buyuk allomalarning ta'limotlarida ko'p bor zikr etilgan. Hadisi Sharifda aytiladiki, "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi Shuningdek, J. Lokkning ta'kidicha, "Xalqning baxt-saodati bolalarni to'g'ri tarbiyalashda". Oilada bolalarda dunyo haqidagi, shu jumladan, estetik tasavvurlarni shakllantirish ota-onalarning o'rni shundaki, bola dunyoga kelib olamni, uning qonuniyatlarini o'zlashtirishga kirishadi. Bu jarayon kuzatish, so'rash, tahlil etish, fikrlash va xulosa chiqarishdan iborat "ta'dqiqiy" jarayondir. Bu jarayonda bola "Nima uchun?"ni asosiy qurol, vosita sifatida qo'llaydi, ko'proq bilishga intiladi. Bu nafaqat bolalikning, balki Emil Zolya ta'kidlaganidek, insonning butun umrini ma'nosidir. Inson o'z umri davomida mavhumlikni to'xtovsiz zabt etish, toborava hamisha ko'proq bilishga intiladi. Bu

natiya faqat faoliyat tufayligina ta'minlanadi. Agar maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlar bola muayyan faoliyat tufayli mavhumlikni bartaraf etib borsa, oila sharoitida ota-ona va bola munosabatlari ham muayyan faoliyatdir: bola so'raydi, ota (ona) javob beradi; bola nimadir qiladi, ota (ona) uni to'g'rilaydi (undoq emas, bundoq qilish kerak. ba'zan bajarib ko'rsatadi, buni qilish mumkin emas, deb tanbeh beradi va hokazo). Bu hamkorlikdagi faoliyat shaklidir. Aynan faoliyat barcha o'zgarishlarni, jumladan, bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish asosidir. Shuning uchun ham Bernard Shou "*Bilimga eltuvchi yagona yo'l, bu faoliyatdir*", -deb o'qtiradi. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning pedagogik bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bolalardagi u yoki bu faoliyat turiga moyillikni to'g'ri aniqlash va unga mos yo'nalish berish alohida e'tiborga molik. Zero "Insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladi" Abdulla Avloniy.

Shu o'rinda bir lirik chekinish qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqining madaniyati, estetik qadriyatlari tarixida Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani alohida hurmat, ehtirom ila tilga olinadi. Unda ma'naviyat, madaniyat, axloqiy-estetik munosabatlarning klassik namunalarni ko'rishimiz mumkin: Oilaning har bir a'zosini o'z munosabat uslublari, hatti-harakat tamoyillari bor. Ular oilaning har bir a'zosi, har bir vaziyat uchun alohidalik, o'ziga xoslik kasb etadi.

Otabek – Kumush, Otabek – Yusufbek hoji, Otabek – Qutidor, Otabek – Zaynab munosabatlari bunga misol bo'la oladi. Munosabatning har bir vaziyatida ma'naviy-estetik namuna mavjud. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar, uni bolalarda estetik tasavvur hosil qilishga yo'naltirishda "O'tgan kunlar"senariysini andoza qilib olish mumkin.

Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda, umuman barkamol shaxs tarbiyasiga zamin yaratishda ota-onaga nisbatan bobo-buvilarning o'rni ko'proq. Mirzo Ulug'bekni buvisi Saroymulkxonim nabirasini buyuk olim, ma'naviyati yuksak darajadagi inson va davlat arbobi sifatida shakllanishida muhim o'rin tutgani tarixdan ma'lum. sozandalar, aktyorlar, rassomlar hayotlaridan misollarni yuzlab keltirish mumkin. Oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda oiladagi ijtimoiy muhit, uning mazmuni, amal qilish tamoyillari, u yoki bu holat, vaziyatni baholash mezonlari, qo'llaniladigan uslublalar, yondoshuv va vositalar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bolada tasavvurni, shu jumladan, estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda makromuhit (bola yashayotgan jamiyat)dan ko'ra ko'proq mikromuhit (bola yashayotgan oila)ning ta'siri kuchliroq. Chunki, bola hali keng ma'nodagi muloqot, ijtimoiy harakat muhitining subyektiga aylanmagan, uning asosiy hayoti o'zining oilasida kechadi. Aynan shuning uchun ham oila estetik arsenalidagi barcha tamoyillarini bolaning estetik tasavvurlarini shakllanishiga safarbar etish muhim tarbiyaviy tadbir sifatida ahamiyatlidir. Oilada bolaning estetik tasavvurining shakllanishi bevosita va bilvosita kechadi. Bu ikki xillik ham bolaning faoliyatida, ham uning ota-onalarining faoliyatida kuzatiladi, ya'ni bola kattalarning hatti-harakatlarini kuzatib, o'zlashtirib boradi. Faraz qilaylik, ona estetik jihatdan bachkana kiyim kiyishga moyilroq. O'zining bu harakatini farzandiga tushuntirmaydi, sharhlamaydi. Tabiiyki, bola undan o'ziga tegishli xulosa chiqarib

boradi. Baʼzi hollarda uni oʻziga goʻzal deb qabul qiladi. Bu onaning bolada estetik tasavvurni shakllanishiga bevosita taʼsiri boʻlib, bu salbiy maʼno kasb etadi, yaʼni bola onasining kiyimini estetik holatdagi namuna sifatida qabul qiladi.

Boshqa holatda ona tom maʼnodagi goʻzallik namunasi boʻlishi mumkin boʻlgan oʻziga mos va xos kiyimning estetik jihatlarini farzandiga tushuntiradi, birga uni izoxlaydi. Aniqroq aytganimizda, onasi va farzandi oʻrtasida estetik mazmun va yoʻnalishdagi munosabat oʻrnatiladi. Oilada bolalarning estetik tasavvurlarini shakllantirishda bu jarayonning aqliy zaminini tarkib toptirishga alohida eʼtibor berish lozim. Zero, har bir holatning muayyan nazariy sharhi mavjud boʻlib, uning sohalarini bosqichma-bosqich oʻzlashtirib borish bolalarning estetik tasavvurini ongli shakllanishini pedagogik kafolatidir. Shu maʼnoda ota-ona va farzand munosabatlarida bu omil doimiy diqqat markazida boʻlishi lozim.

Bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda turli bayramlarga (tugʻilgan kuni, Yangi yil, Navroʻz bayrami va boshqalar) birgalikda tayyorgarlik koʻrish va unda oilaning har bir aʼzosi, shu jumladan, maktabgacha yoshdagi bolaga individual ham jamoa boʻlib bajariladigan topshiriqlarni berilishi birinchidan, bolada estetik mazmun kasb etuvchi holatni vujudga keltirish (yaratish)da ishtirok etishi natijasida uning dunyoqarashida muayyan oʻzgarishlar sodir boʻladi. Ikkinchidan, bu jarayonda hamkorlik faoliyati (masalan, ona va qiz, ota va oʻgʻil, ona va oʻgʻil va xokazo) vositasida nafaqat estetik tasavvur shakllanib boradi, balki hamkorlik faoliyatini tashkil etish koʻnikmalari, malakalari masʼuliyatni his etish, bir soʻz bilan aytganda, ota-ona va farzand munosabatlarining bolaning dunyoqarashini shakllanishidagi muhim shartlaridan biri – hamkorlik etikasining meyoriy shartlari oʻzlashtirib boriladi. Oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-ona va farzand munosabatidagi estetik mazmun har doim bosh omil hisoblangan. Bu jarayon shu darajada tamoyillarga boyki, shuning uchun uni ijtimoiy-pedagogik, psixologik, tarixiy-falsafiy nuqtai nazarda tadqiq etish lozim. Birgina misol. Ota-onaning oʻz farzandini individualligini inobatga olmagan holda tinimsiz nomaqbul koʻrsatma berishi (qachon va qanday telekoʻrsatuv koʻrish lozimligi, kim bilan, qachon va qancha vaqt qanday oʻyin oʻynashi, qanday rangdagi, qanday shakldagi kiyim kiyishi) bolaning tabiiy moyilliklariga mos tushmagan taqdirda unda dunyoqarashni, shu jumladan, uning tarkibiy qismi – estetik tasavvurlarni shakllantirish “sinish” yuzaga keladi, yaʼni bolaning tasavvurida sunʼiy tarzda, majburiy oʻzlashtirilgan, anglanmagan tushuncha va tasavvurlar tarkib topib boradi. Biroq bu tasavvur dastlabki aniq holat yuzaga kelishi bilanoq yoʻq boʻlib ketadi.

Shuning uchun ham ota-ona va farzand munosabatlarini estetik tasavvurlarni shakllantirishdagi faoliyatning muhim tamoyil sifatida qaralishi lozimligiga alohida urgʻu berish lozim. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning bolalar bilan munosabatida yaqqol sezilishi mumkin boʻlgan jihatlaridan biri ota-onaning oʻz farzandlarini nafaqat oila sharoitida subyektiv holatlarni anglashga, balki olamni estetik mazmun nuqtai nazaridan anglashga har tomonlama yondoshishga tayyorligi bilan belgilanadi. Bu tayyorlik oila sharoitida ota-ona va bola munosabatlarida muttasil tarzda qoʻllanilishi pirovard ijobiy natijaning pedagogik kafolatidir. Oila sharoitida ota-onalar alohida eʼtibor qaratishi lozim boʻlgan muhim

jihatlardan biri bu – atrof-muhitni, olamni, shu jumladan oiladagi mikromuhitni bola tomonidan qiziqish bilan idrok etish estetik tasavvurlarni shakllanishining belgilovchi omillaridanligidir. Ota-onalarning bu boradagi faoliyati uch yo'nalishda olib boriladi.

Birinchi yo'nalish – ota-onalar farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllanishi uchun qulay oilaviy mikromuhit yaratishlari lozim. **Ikkinchi yo'nalish** – ota-onalar o'z farzandlarining estetik mazmun va yo'nalishdagi faoliyatlarini kuzatib, lozim bo'lgan vaziyatlarda bu jarayonga ma'lum ijodiy o'zgartirishlar kiritish, bu jarayonni pedagogik jihatdan boshqarishlari lozim. **Uchinchi yo'nalish** – bu bevosita ota-onalarning o'z xatti-harakatlari, faoliyatlari, estetik qiziqishlari, bilan bolalarini o'z ortlaridan ergashtira olishlari, ya'ni o'rnak, ibrat bo'lishlari lozim. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, ko'p hollarda ota-ona va bola munosabatlarida ta'qiqlovchi ko'rsatmalar ustuvorlik qiladi.

Bu jarayonda bir qator noto'g'ri qarorlar qabul qilinadiki, uning zamirida pedagogik o'quvsizlik, ta'bir joiz bo'lsa, savodsizlik yotadi. Aslida, ota-ona o'z farzandiga ta'qiqlab qo'ygan narsasini o'zi xotirjam bajaradi. Masalan, uzoq muddat davomida televizor ko'radi, bir-biriga, shu jumladan farzandlariga qo'pol muomalada bo'ladi, qo'shnisiga yolg'on gapiradi va hokazo. Axloqiy jihatdan xunuk bu holatlar, bevosita estetik tasavvurlarni to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, taqlid maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ota-onalarning faoliyatlarida, bolalarga nisbatan munosabatlarida haqqoniylik, obyektivlik bosh mezon bo'lmog'i lozim.

Estetik tarbiya tizimida qo'llaniladigan asosiy tamoyil – go'zallik va xunuklikni anglay va baholay bilishga o'rgatish yuqoridagi holatlarda aniqlik kasb etmay qoladi. Muhimi har bir narsani, shu jumladan estetik jarayon, hodisa, obyektlarni qanday bo'lsa o'shandayligicha qabul qilishga o'rgatishdir. Har qanday kishiga (voqea va hodisaga, obyektga va xokazo) nisbatan simpatiya(yoqimli) va antipatiya (yoqimsiz) munosabat bo'ladi. Ular oxir-oqibat o'rin almashishi mumkin. Bu ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Estetik tasavvurlarni shakllantirishda ham shu jihatlar muhim ahamiyatga ega. Estetik tasavvurlarni shakllantirishda bu jihatlarning muhimligini e'tirof etgan holda o'ziga xoslikka ham ega ekanligini yodda tutmoq lozim. Xususan, bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda har bir bolaning o'ziga xosligi, ularning tabiiy moyilliklari va qiziqishlari ham diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Ota-ona va farzand munosabatlarida aks munosabat, aloqa, muhim o'rin tutadi. Bu aloqa birinchidan, munosabatlarni muvofiqlashtirish, ikkinchidan, natijalarni kuzatish, uchinchidan, hatti-harakatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Muhimi, ota-ona va farzand munosabatlarining muntazamligini ta'minlash xilma-xil bo'ladi. Ular har doim ham so'z vositasida ifodalanmasligi mumkin. Bu borada ota-onalarning pedagogik bilimlari, sezgirliklari faoliyat mazmuni va uni rivojlanib borishini belgilab beradi. Masalan, ota-onaning o'z farzandida estetik tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan sayi-harakatlari farzandlarining harakatlarida, faoliyatida ko'rinishi mumkin.

Ayrim hollarda bu faoliyat maxsus namoyish etilgan holatda bo'lmasligi mumkin. Muhimi, farzandning nutqida, u yoki bu harakatida, xulqida, biror bir faoliyatga bo'lgan qiziqishda, bajarayotgan ishining sifat darajasida namoyon bo'ladi. Ota-ona farzandining bu harakatlarini kuzatayotganini oshkor etib, salbiy holatlarni to'g'rilab

borishi lozim. Shunda farzand har qanday faoliyat nazoratda ekanligini anglab boradi. Qolaversa, yaxshi-yomonni farqlashga o'rganib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi har ikkala tomonlarga ma'suliyat yuklaydi. Ta'kidlash joizki, to'liq oilalarda nafaqat ota-ona va farzand munosabatlari, balki ota-ona (er-xotin) ning o'zaro munosabatlari ham farzandlarning tarbiyasida, ularning estetik ong, tasavvurlarini shakllanishida ayrim hollardahal qiluvchi rol o'ynaydi.

Oilada kim hukmron? Otami -onami?

Aslida kimligidan ko'ra bu holatning mazmuni muhimroq. Masalan, ota onaga o'z hukmini "Meni aytganim bo'ladi", "Mendan beso'roq nimaga bunday qilindi?" kabi mulohazalar bilan o'z farzandining ma'naviy-axloqiy, jismoniy, ruhiy va badiiy-estetik kabi tamoyillarini shakllanishiga nisbatan bildirilgan mulohaza, taklifga, qilingan harakatga nisbatan rad javobini berilishi ota-onaning farzand istiqbolini emas, balki o'z hukmronligining eng to'pori usulda bayon qilishga qaratilganligidir, ya'ni bu holatda ota (ona) uchun o'z hukmini o'tkazish istagi farzand tarbiyasidan ko'ra muhimroq ko'rinadi. Bu holatning aksi sifatida bolalarning sayi-harakatlari, qiziqishlari, shu jumladan estetik qiziqishlarini rag'batlantirilishi, ya'ni, bolalarning ota-onaning qo'llab-quvvatlashini his etishi bolaning ruhiy-qiziqish xotirjamligini ta'minlaydi. Bu har qanday faoliyatni, shu jumladan estetik mazmunni o'zlashtirish jarayonini ishtiyok bilan kechishini ta'minlaydi. Biroq bu holatda ham muayyan meyor bo'lishi lozim. Uning ko'pligi bolani erkatoy, o'zini o'ylovchi bo'lishi, kamchiligi esa ruhiy kelishmovchilikni kelib chiqishiga olib keladi. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini pedagogik tashkil etish uchun alohida tashxis, andoza yo'q. Shunday bo'lsada, kuzatuvlar, tahlillar asosida oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalar quyidagilarga e'tibor berishlari muhim:

✓ maktabgacha yoshidagi bolalar psixologiyasida o'yin faoliyatiga bo'lgan moyillik asosiy o'rinni egallagani bois estetik mazmundagi mashg'ulotlarda ulardan o'rinli foydalanish lozim;

✓ oilaviy ta'lim tarbiyaning qulaylik tomoni shundaki, unda asosan bolalar bilan individual ishlanadi. Har bir bola o'ziga xos. Aynan shuning uchun ham ota-onalar o'z farzandlarining hatti-harakatlari, qiziqishlarining, shu jumladan estetik mazmundagi qiziqishlaridagi individualliklarga monand "rahbarlik"ni yo'lga qo'yish joiz – ota-onalar nafaqat o'z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirish, balki butun oilaning estetik madaniyati, ehtiyojlarini muttasil oshirib borishga intilishlari lozim.

Chunki, oila a'zolarining estetik qiziqishlari dialektik uzviylikda, o'ziga xos tamoyillari asosida rivojlanib boradi. Bu omil bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zero, estetik didi past, estetik ehtiyoji qashshoq oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini samarasiz kechadi:

✓ ota-onalar o'zlarining bolalariga nisbatan munosabatlari, hatti-harakatlari "pedagogik faoliyat"laridagi, o'ziga xos ta'limiy samara bergan pedagogik shart-sharoitlar, uslubiy yondoshuvlarni tahlil etib borishlari, ularni muttasil boyitib borish choralarni ko'rishlari lozim.

✓ ota-onalar o'zlarining pedagogik bilim va uslubiy mahoratlarini muttasil oshirib borishlari, unda asosiy omil sifatida madaniyat va san'at, jamiyat hayotidagi taraqqiyotlaridan foydalanishlari hamda bolalarida estetik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vositalari, shakl va uslublarini qo'llash jarayonini tashkil etishlari lozim.

✓ oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini uzviy, uzluksiz va muntazam bo'lishini ta'minlash, bu jarayonda yangi estetik bilimlarni bosqichma-bosqich egallab borish hisobiga bolalarda shakllantirilayotgan estetik tasavvurlarni yangi mazmun bilan boyitib borish va xokazo.

Aytib o'tilgan uslubiy yondoshuvlar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tavsiya xarakteriga ega, bo'lib har bir oila (ota-ona) farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishda o'ziga xos maktabga ega bo'lishlari lozim. Bu ota-ona va farzand munosabatlarining ma'naviy, axloqiy, estetik ahamiyat, mazmun kasb etishi bosh tamoyili sifatida qabul qilinmog'i lozim. Muhimi, ota-onalar Rizouddin ibn Faxruddin ta'kidlaganidek, barcha ishni anglagan holda o'z farzandlariga ham anglatib o'rgatishlari lozim. Zero, "Anglamay o'qimoq va anglanmagan narsalarni o'rgatmoq sababidan bolalarning zehnlari qisilar, g'ayratlari so'nar".

Estetik tasavvur ko'p sifatlarning debochasi. Shuning uchun unga bolalarni ilk yoshidan oshno qilish lozim. Zero, Fyodor Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga yo'llab bo'lmaydi. Shu bois ota-ona va farzand munosabatlarida farzandlarni hayotga to'g'ri shakllangan estetik tasavvurlar bilan yo'llash barkamol avlod tarbiyasining muhim shartlaridan biridir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, oila ma'naviyati, oila madaniyati, oiladagi psixologik muhit, uning badiiy – estetik holatlari bolalarda turli mazmundagi tushuncha va tasavvurlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra oilada bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirishda bevosita madaniyat va sa'natning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham oila sharoitida maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuniga qo'yiladigan pedagogik talablar, uni belgilash (tanlab olish) mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, amaliy sa'nat, hunarmandlik, sa'nat turlari bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai sifatida aynan oilada o'rganish ko'proq samara beradi. Shu o'rinda oilaviy badiiy-estetik muhitning o'rni beqiyosdir. Oilada bolalarda dunyo haqidagi, shu jumladan, estetik tasavvurlarni shakllantirishda ota-onalarning o'rni shundaki bola dunyoga kelgach olarni, uning qonuniyatlarini o'zlashtirishga kirishadi. Bu jarayonni kuzatish, so'rash, tahlil etish, fikrlash va xulosa chiqarishdan iborat "tanqidiy" jarayondir. Bu jarayonda bola "Nima uchun?"ni asosiy qurol, vositasi sifatida qo'llaydi va u ana shu so'roq orqali atrof-muhitni ko'proq bilishga intiladi. Ana shu davrdan samarali foydalanish ota-onalarimiz qo'lidadir. Shunga ko'ra esa ota-onalar uchun metodik ko'rsatmalar va qo'llanmalar yaratish kerak bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda mikromuhit (ya'ni bola yashayotgan jamiyat)dan ko'ra ko'proq mikromuhit (bola oila)ning ta'siri kuchliroqdir. Chunki bu davrda ola hali keng ma'nodagi muloqat, ijtimoiy harakat muhitning subyektiga aylanmagan bo'lib, uning asosiy hayot tarzi

oilada kechadi. Shuning uchun ham oilada bolalarga estetik ta'lim berishda ota-onalarning o'ziga xos tayyorgarlik jihatlari ham muhim ahamiyatga egadir.



Nazorat savollari:

1. Oila va MTT hamkorligida bola shaxsini axloqiy va aqliy tarbiyalashga doir fikrlar bildiring?
2. Oila va MTT hamkorligi deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirishda turli bayramlarning roli qanday ahamiyatga molik?
4. Bolalarda estetik tasavvur hosil qilishga yo'naltirishda ahamiyatga molik o'zbek xalq durdona asarlari sanab bering?
5. Oilaning demografik, badiiy an'analari deganda nimalarni tushundingiz?
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashab faoliyat ko'rsatgan taniqli tatar ma'rifatparvari Rizouddin ibn Faxruddin oilada farzand ta'lim-tarbiyasida onalarning o'rni haqidagi fikrlariga munosabatingiz?
7. Ota-onalarning bola tarbiyasidagi faoliyatlari uch yo'nalishda olib boriladi, ular qaysilar va ularni ta'riflang?
8. Hozirgi kunda bolaning ijtimoiylashuvidagi oila va MTTning hamkorligi qay tarzda amalga oshirilmoqda? Fikrlaringizni bildiring.



"OILA VA IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING O'QUV DASTURI FANIDAN"

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Nechanchi asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi fanlararo bog'lanuvchi ilmiy sohaga aylanadi?

- A) XX
- B) VII
- C) XIX
- D) IX

2. Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya dastlab qaysi chex pedagogining asoslarida yaqqol ifodasini topgan?

- A) Y.A. Kameskiy
- B) F. Keddinq
- C) A. Morgan
- D) Maks Veberg

3. O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi bu qaysi metod turidan kutiladigan natija?

- A) T-sxema
- B) Tushunchalar tahlili
- C) SWOT-tahlili
- D) FSMU

4. Keddinqs 1987-yilda qanday kitob yozadi?

- A) Ijtimoiylashuv nazariyat
- B) Ijtimoiylashuv
- C) Didaktika
- D) Onalar maktabi

5. Qaysi olim ijtimoiy pedagogika fanini "alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash o'qitish nazariyasi va amaliyotidir" deb ta'kidlagan?

- A) Y.V. Vasilkova
- B) A.V. Mudrik
- C) V.D. Semenov
- D) I.P. Podlasiy

6. "Ijtimoiy pedagogika" fani qaysi qaysi sohalarning birlashuvidan vujudga kelgan?

- A) "Pedagogika", "Satsiyalogiya".
- B) "Satsiyalogiya", "Tarix".
- C) "Pedagogika", "Falsafa".
- D) "Falsafa" "Satsiyalogiya"

7. Deveatsiya nima?

- A) Og'ish
- B) Rivojlanish

- C) O'sish
- D) O'zgarish

8. "Mentalitet" tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

- A) Mudrik
- B) L.Lur Bryul
- C) Semenov
- D) Vositkova

9. Ijtimoiy tarbiyani variativligi tamoyilining tasirini XX asrning nechanchi yillari oxiridan boshlab ro'y bergan ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar sababli asoslash imkoniyati yaratildi?

- A) XX 70-yillari
- B) XX 80-yillari
- C) XX 90-yillari
- D) XX 60-yillari

10. Tashqi omillarga nimalar kiradi?

- A) Makroomil, mezoomil, mikroomil, megaomil
- B) Irsiyat
- C) Makroomil, mezoomil
- D) Ob-havo

11. Kimning fikricha ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakillanadi?

- A) Ibn Sino
- B) AL-Xorazimiy
- C) Beruniy
- D) Farobiy

12. O'zbekistonda ommaviy maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning nechanchi yillarga to'g'ri keladi?

- A) 1920-1930 yil
- B) 1977-1992 yil
- C) 1930-1991 yil
- D) 1910-1920 yil

13. Devitsiya necha turga bo'linadi ular qaysilar?

- A) Devitsiya deviklen xulq atvor
- B) Deviklen xulq atvor
- C) Devitsiya xulq atvor
- D) Deviklen xulq atvor

14. Maktab o'quvchisining dezadapsiyasi o'z rivojlanishda nechta bosqichda o'tadi?

- A) Yengil o'rta og'ir
- B) O'rta maktab
- C) O'quv maktab ijtimoiy
- D) O'quv maktab

15. Shahs tug'ilgandan boshlab rivojlanadigan muhit nima deyiladi?

- A) A va B

- B) Mikrosotsium
- C) Makrosotsium
- D) Sotsium

16. 1947-yil oxirida Respublikada nechta bolalar uyi mavjud bo'lgan?

- A) 1944
- B) 1945
- C) 1943
- D) 1942

17. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun nima kerak bo'ladi?

- A) A va C
- B) Bilim
- C) Ijtimoiy muhit sharoitlari
- D) Tarbiya

18. Bolalarni ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish nima deyiladi?

- A) Ijtimoiy tarbiya
- B) Ta'lim-tarbiya
- C) Ijtimoiy tarbiya
- D) Ijtimoiylashuv

19. Tushuncha nima?

- A) Real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri
- B) Ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirish
- C) Malaka
- D) Ijtimoiy muhitning bir shakli

20. Kishilar uyushmasining maxsus shakli bu?

- A) Jamiyat
- B) Kadr
- C) Shaxs
- D) Rivojlanish

21. O'spirin va uning atrofdagilari bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatish bosqichi g'oyasini qaysi olim ilgari surgan?

- A) Yu.V.Vasilkova
- B) A.B.Filonov
- C) A.V.Mudrik
- D) Galaguzova

22. Tarbiya og'ir o'smirlar bilan ish olib borishda pedagog quyidagi qaysi parametrlarni inobatga olishi lozim?

- A) Guruh hajmi, yoshi ijtimoiy tarbiya
- B) Uyqu, ovqat rejimiga daxldorligi
- C) Sport mashg'ulotlarini inobatga olish
- D) Oilasi va o'rtoqlari bilan munosabatlarni

23. Qaysi tamoyil asosida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy shaxs ehtiyojlarining xilma - xilligi bilan aniqlanadi?

- A) Tarbiyaning variativligi tamoyili
- B) Insonparvarlik tamoyili
- C) Ijtimoiy tarbiyaning variativligi
- D) Ijtimoiy tarbiyaning jamoyiyligi

24. Insonga ta'sir o'tkazish bu ... ?

- A) Pedagogik, psixologik ta'sir jarayonlaridan iborat
- B) Pedagogik ijtimoiy tarbiya jarayonlaridan iborat
- C) Pedagogik ta'lim berish jarayonlaridan iborat
- D) To'g'ri javob yo'q

25. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi ?

- A) Jamiyatda bola o'z o'rmini topa bilishi o'rgatish
- B) Bolaga ijtimoiy tibbiy yordam berish
- C) Bolani ijtimoiy muxofaza qilish
- D) Hamma javob to'g'ri

26. Shaxs yoki ijtimoiy guruhni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va tafakkur qilishni o'z ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasi nima?

- A) Jamiyat
- B) Sotsium
- C) Ijtimoiylashuv
- D) Mentalitet

27. ...turi g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi.

- A) Konseptual jadval metodi
- B) Davra suhbat
- C) Bahs-munozara
- D) Ijodiy

28. Ijtimoiylashtirishning omillari nechiga bo'linadi va qaysilar?

- A) 2ga bo'linadi (Makro, mikro omillar)
- B) 3ga bo'linadi (murakkab, sodda) bo'linmaydi
- C) 5ga bo'linadi (Ichki, tashqi, murakkab sodda)
- D) Bo'linmaydi

29. Deviatziya so'zining ma'nosi?

- A) Og'ish
- B) Og'ir
- C) Chalg'ish
- D) Barchasi to'g'ri

30. Ijtimoiylashuv so'zi dastlab qaysi fandan paydo bo'lgan?

- A) Siyosiy iqtisodiyotdan
- B) Sotsiologiyadan
- C) Psixologiyadan
- D) Ibtidoiy tuzilma

31. Xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi asotsial hatti-harakatlar sifatida xarakterlanadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

A) delikvent

B) jinoiy

C) dezadaptatsiya

D) Hamma javob to'g'ri

32. Biologik omillar o'z ichiga nimalarni kiritadi?

A) irsiy xususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar kiradi

B) dezadaptatsiyani

C) A va B

D) Ijtimoiy rivojlanishdan ortda qolishni

33. **Mentalitet- bu nima?**

A) Xalq madaniyatining keng maydondagi kvint-esseksiyasidir.

B) Jamoalar birlashmasi

C) Ijtimoiy kelib chiqish

D) Barchasi to'g'ri

34. **"Ijtimoiy pedagogika" fani qaysi qaysi sohalarning birlashuvidan vujudga kelgan?**

A) "Pedagogika", "Sotsiologiya".

B) "Sotsiologiya" "Tarix".

C) "Pedagogika" "Falsafa".

D) "Falsafa", "Sotsiologiya".

35. **Tibbiy rehabilitatsiya bu...**

A) Bola organizmining u yoki bu yo'qotilgan funksiyasini o'rini to'ldirish yoki to'liq va qisman tiklashga qaratilgan bo'ladi.

B) O'smirning ruhiy sohasiga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi deviant xulq-atvorli bola ongida uning hech kimga kerakmasligi haqidagi tasavvurni yengib o'tishdir.

C) O'smir uchun normal yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

D) Barchasi to'g'ri.

36. **Ruhiy rehabilitatsiya -bu...**

A) o'smirning ruhiy sohasiga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi deviant xulq-atvorli bola ongida uning hech kimga kerakmasligi haqidagi tasavvurni yengib o'tishdir.

B) organizmining u yoki bu yo'qotilgan funksiyasini o'rini to'ldirish yoki to'liq va qisman tiklashga qaratilgan boladi

C) o'smir huquq va manfaatlarini himoya qilish, unga tegishli bo'lgan moddiy mulklar, to'lovlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

D) o'smir uchun normal yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

37. **"Mentalitet" tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?**

A) L.Lur Bryul

B) Mudrik

C) Semenov

D) Vositkova

38. **Maishiy rehabilitatsiya -bu..**

A) o'smir uchun normal yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

B) o'smirning ruhiy sohasiga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi deviant xulq-atvorli bola ongida uning hech kimga kerakmasligi haqidagi tasavvurni yengib o'tishdir.

C) o'smirni biror-bir kasbga o'rgatish, u uchun yengillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat.

D) A va B

39. Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya -bu...

A) bola hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega shaxsiy xislatlarni, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy rollarni, jamiyatda yurish-turish qoidalarini o'zlashtirishi, kerakli ma'lumot olishga qaratilgan tarbiyaviy xarakterdagi chora-tadbirlardir.

B) o'smir uchun normal yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

C) bola organizmining u yoki bu yo'qotilgan funksiyasini o'rnini to'ldirish yoki to'liq va qisman tiklashga qaratilgan bo'ladi.

D) o'smirni biror-bir kasbga o'rgatish, u uchun yengillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat.

40. voyaga yetmaganlarning ijtimoiy dezadaptatsiyalarining sabablari va manbalarini aniqlash, qaysi rehabilitatsiyaning vazifasiga kiradi?

A) Ijtimoiy Pedagogik rehabilitatsiya

B) Maishiy rehabilitatsiya

C) Tibbiy rehabilitatsiya

D) Kasbiy rehabilitatsiya

41. "Ijtimoiy pedagogika - barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o'rganuvchi pedagogikadir". Bu kimning fikri?

A) A V.Mudrik

B) Semenov

C) A.Parsons

D) Max Veberg

42. "Ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasini ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan". Bu qaysi olimning fikri?

A) Semeno

B) Mudrik

C) Vasilkova

D) A.Parsons

43. "Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır". Bu kimning asarida keltirilgan fikr?

A) P.Podlasiyning

B) Mudrikning

C) Semenovning

D) Ava B

44. Kim ijtimoiy pedagogikaga uning ob'ekti va predmetini aniqlash orqali tarif bermoqchi bo'lgan.

- A) M.A.Galaguzova
- B) Vasilkova
- C) Mudrik
- D) Semenov

45.jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning paydo bolishi, rivojlanishi, faoliyat yuritishi, shakllanishi qonuniyatlari haqidagi fandır.Nuqtalar o'rnini to'ldiring?

- A) Ijtimoiy Pedagogika
- B) Pedagogika
- C) Falsafa
- D) Sotsiologiya

46. "Inson zebi ziynati bilim va odobidir. Bularni shogirdlarga singdira olgan ustozlarga chinakam ustozlardir". bu so'zlar kimga tegishli?

- A) Alisher Navoiy
- B) Amir Temur
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Ali ibn Sino

47. Individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayon nasiyasi nima?

- A) Ijtimoiy moslashuv
- B) M.T.T ga kelish
- C) Dezadaptatsiya
- D) Tashqi muhitga moslashuv

48. A.V. Mudrikning fikriga ko'ra ijtimoiy pedagogikada o'zaro ta'sirning asosi bu?

- A) Muhit
- B) O'qituvchi
- C) Tarbiyalanuvchi
- D) Moslashuv

49. Jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat bu?

- A) Jamoa an'anasi
- B) Individuallik
- C) Iqtisodiy tarbiya
- D) Yosh xususiyati

50. Ongli xatti-xarakatlarning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi bu?

- A) Malaka
- B) Muhit
- C) Tajriba
- D) Ma'lumot

51. Hayotiy vaziyatlardan kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati bu?

- A) Ijtimoiy komplekt
- B) Tafakkur
- C) Tarbiya mazmuni
- D) Tarbiya jarayoni

52. O'spirin va unung atrofida gilari bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatish

bosqichi g'oyasini qaysi olim ilgari surgan?

- A) Yu.V. Vasilkova
- B) A.B. Filonov
- C) A.V. Mudrik
- D) A va D

53. "Inson zebi-ziynati, bilim va odobidir bularni shogirtlarga singdira olgan ustozlarga chinakam ustozlardir" deya tarbiyachi va uning shaxsi xaqida ta'rif bergan olim kim?

- A) Alisher Navoiy
- B) Amir Temur
- C) Imom Al-Buhoriy
- D) Zahiriddin Muhammad Bobur

54. Qaysi tamoyil asosida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy shaxs extiyojlarning xilma-xilligi bilan aniqlanadi?

- A) Tarbiyaning variativlik tamoyili
- B) Insonparvarlik tamoyili
- C) Ijtimoiy tarbiyaning variativligi
- D) Ijtimoiy tarbiyaning jamoviyligi

55. Prinsip nima?

- A) Boshlanish
- B) Tugatish
- C) Ishlash
- D) Kelib chiqish

56. Olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi nima?

- A) Malaka
- B) Bilim
- C) Ko'nikma
- D) To'g'ri javob yo'q

57. Ijtimoiylashuv so'zi dastlab nimadan kelib chiqqan?

- A) Siyosiy iqtisodiyotdan
- B) Siyosiy madaniyatdan
- C) Iqtisodiyotdan
- D) To'g'ri javob yo'q

58. Ijtimoiylashuv atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan qo'llagan kim?

- A) Keddings
- B) Komensiy
- C) V. Mudrik

D) Parsons

59. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini nimaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi?

- A) Tarbiyaning
- B) Ta'limning
- C) barcha javoblar to'g'ri
- D) Muhitning

60. Tarbiya nimaning asosiy kategoriyalaridan biridir?

- A) Pedagogikaning
- B) Falsafaning
- C) Sotsiologiya
- D) Hamma javoblar to'g'ri

61. O'spirinlik yosh davri nechki yoshlarni o'z ichiga oladi ?

- A) 12-16 yosh
- B) 12-14 yosh
- C) 10-12 yosh
- D) 10-16 yosh

62. ... - yetarlicha voyaga yetmagan shaxs emas ?

- A) O'spirinlik
- B) Yetuklik
- C) Bolalik
- D) Go'dak

63. O'spirin va uning atrofdagilari bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatish bosqichi g'oyasini qaysi olim ilgari surgan?

- A) Yu.V. Vasilkova
- B) A.B. Filonov
- C) A.V. Mudrik
- D) A va D javoblari to'g'ri

64. Tarbiya og'ir o'smirlar bilan ish olib borishda pedagog quyidagi qaysi parametrlarni inobatga olishi lozim?

- A) Oilasi va o'rtoqlari bilan munosabatlarini
- B) Uyqu, ovqat rejimiga daxldorligi
- C) Guruh hajmi, yoshi ijtimoiy tarbiya
- D) Sport mashg'ulotlarini inobatga olish

64. "Inson zebi, ziynati, bilim va odobidir. Bularni shogirdlariga singdirgan ustozlargina chinakam ustozlardir" deya tarbiyachi va uning shaxsi haqida ta'rif bergan olim kim ?

- A) Alisher Navoiy
- B) Amir Temur
- C) Imom al-Buhoriy
- D) Zahiriddin Muhammad Bobur

65. Jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarning tashuvchisi bo'lgan tamoyil turi?

- A) Madaniyatshunoslik

- B) Tarbiyaviy
- C) Insonparvarlik
- D) Axloqiy

66. Qaysi tamoyil asosida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy shaxs ehtiyojlarining xilma - xilligi bilan aniqlanadi?

- A) Tarbiyaning variativligi tamoyili
- B) Insonparvarlik tamoyili
- C) Ijtimoiy tarbiyaning variativligi
- D) Ijtimoiy tarbiyaning jamoviyligi

67. Insonga ta'sir o'tkazish bu ... ?

- A) Pedagogik, psixologik ta'sir jarayonlaridan iborat
- B) Pedagogik ijtimoiy tarbiya jarayonlaridan iborat
- C) Pedagogik ta'lim berish jarayonlaridan iborat
- D) To'g'ri javob yo'q

68. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi ?

- A) Hamma javob to'g'ri
- B) Bolaga ijtimoiy tibbiy yordam berish
- C) Jamiyatda bola o'z o'rmini to'g'ri bilishi o'rgatish
- D) Bolani ijtimoiy muxofaza qilish

69. Tarbiyaning insonparvarlashtrish zarurati haqidagi g'oya qaysi pedagog asarlarida yaqqol ifodasini topgan?

- A) Kamenskiy
- B) Russo
- C) Keddings
- D) Tolstoy

70. Ijtimoiylashuv omillari necha guruhga bo'linadi?

- A) 2 guruhga
- B) 4 guruhga
- C) 3 guruhga
- D) 1 guruhga

71. Tashqi omillar necha guruhga bo'linadi?

- A) 4 guruhga
- B) 2 guruhga
- C) 5 guruhga
- D) 1 guruhga

72. Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit nima deb ataladi?

- A) Sotsium yoki mikrosotsium
- B) Mikrosotsium
- C) Sotsium
- D) To'g'ri javob yo'q

73. Mexanizimlar nechiga bo'linadi?

- A) 8
- B) 9
- C) 6

D) 3

74. Ayollarning ijtimoiy himoyasidagi oid O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Ayollarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonun qachon bosilgan?

- A) 1989 yil 14-aprel
- B) 1990 14-aprel
- C) 2002 yil 25-may
- D) 1994 yil 17-mart

75. Al Xorazimiy qaysi metod orqali shaxs boshqalar bilan munosobatlariga kirishishini va jamiyatninig faol a'zosiga aylanishni ta'kidlagan?

- A) Savol-javob
- B) Kuzatish
- C) Subat
- D) Hamma javoblar to'g'ri

76. Tarbiyaning ijtimoiy xarakteridagi g'oyalar qaysi shoirning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan?

- A) Alisher Navoiy
- B) Z.M.Bobur
- C) Forobiy
- D) Beruniy

77. Nechanchi yillarning oxirida yoshlarning, ayniqsa o'smirlarning axloqi keskinlashdi?

- A) XX asrning 70-yillari
- B) XX asrning 80-yillari
- C) XI asrning 70-yillari
- D) To'g'ri javob yo'q

78. Kadrlar tayyorlash milliy modelida kim kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti hisoblanadi?

- A) Shaxs
- B) Individ
- C) Pedagog
- D) Psixolog

79. Ijtimoiy pedagogikani asosiy kategoriyalari qaysilar?

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Ijtimoiy ta'lim
- C) Ijtimoiy tarbiya
- D) Ijtimoiy pedagogik faoliyat

80. Kimning fikricha bu fanni "Alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazaryasi va amaliyotidir" deb ta'kidlaydi ?

- A) V.Vasilkova
- B) V.Mudrik
- C) D.Semenov
- D) A.Galaguzova

81. Ijtimoiy pedagogika ikki sohadan iborat bo'lib ular qaysilar?

- A) Pedagogika va Sotsologiya
- B) Falsafa va Sotsologiya
- C) Pedagogika va Falsafa
- D) To'g'ri javob yo'q

82. Ijtimoiy pedagogika vazifalari nechta?

- A) 3 ta
- B) 2 ta
- C) 4 ta
- D) 1 ta

83. Deviatsiya nechta turga bo'linadi ?

- A) 3ta
- B) 2ta
- C) 4ta
- D) 5ta

84. Delikvent xulq atvor qanday turlari mavjud ?

- A) Agressiv va g'arazli xulq atvor
- B) Yomon xulq atvor
- C) Giyohvandlik
- D) Jinoiy xarakter

85. Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili haqida kimni asarida o'z ifodasini topgan?

- A) Jan Amor Kamenskiy
- B) A.V.Mudrik
- C) Maks Veberg
- D) Keddings

86. Kishilar uyushmasining maxsus shakli bu ?

- A) Jamiyat
- B) Tarbiya
- C) Jamoa
- D) Tabiat

87. Vasilkova qaysi fanni "Alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazariyasidir" deb ta'kidlaydi ?

- A) Ijtimoiy pedagogika
- B) Sotsiologiya
- C) Ijtimoiy tarbiya
- D) Falsafa

88. Ijtimoiy pedagogikani asosiy kategoriyalari qaysilar?

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Ijtimoiy ta'lim
- C) Ijtimoiy tarbiya
- D) Ijtimoiy pedagogik faoliyat

89. Ijtimoiy rehabilitatsiya vazifasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Nogiron bolalar bn o'quv faoliyatini olib borish
- B) Maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash

- C) O'smirlar muammosini hal qilish
- D) Ijtimoiy yetimlar bilan tarbiyaviy ishlash

90. Etnos bu ...?

- A) Xalq
- B) Qadiryat
- C) Muhit
- D) Axloqiy sifatlar

91. I.A.Karimov fikricha milliy mentalitetning asosiy tushunchalari?

- A) Oila, mahalla,
- B) Islom dini
- C) Ijtimoiy munosabatlar
- D) Ona tiliga, Vatanga muhabbat

92. O'quv dekompensatsiyasi bu ... ?

- A) O'qishga qiziqish so'nishi
- B) O'qish jarayonidagi qiyinchilik
- C) Fanlarni o'zlashtira olmaslik
- D) Ichkilikka qiziqish

93. Nohush holatni bartaraf etish bu ... ?

- A) Profilaktika
- B) Neytrallash
- C) Reabilitatsiya
- D) Ijtimoiy pedagogika

94. Indivdning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayon natijasi nima ?

- A) Ijtimoiy moslashuv
- B) MTT ga kelish
- C) Dezadaptatsiya
- D) Tashqi muhitga moslashuv

95. Toshkentda mahallalar nechanchi asr paydo bo'lgan?

- A) 19 asr
- B) 18 asr
- C) 20 asr
- D) 21 asr

96. Delikent xulq-atvorning qanday turlari mavjud?

- A) Agressiv, g'arazli
- B) Gressiv, beg'araz, muloyim
- C) G'arazli, giyohvand, mehribon
- D) Intizomli, daydi, agressiv

97. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar nimalardan iborat?

- A) Ijtimoiy tengsizlik, inflyatsiya, ishsizlik
- B) Tenglik, balandlik
- C) Tengsizlik, yuqori daromad olish
- D) Jamiyatning tabaqalanishi, ijtimoiy tenglik

98. "Profilaktika" atamasining ma'nosi nima?

- A) Noxush holatlarni oldini olish
- B) Nazorat qilish
- C) Ta'lim-tarbiya berish
- D) Hamma javob to'g'ri

99. Iqtisodiy tarbiya nima?

- A) Bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish jarayoni
- B) Bolalarga tarbiya berish
- C) Bolalarni atrof-muhitga moslashtiruvchi jarayon
- D) Ijtimoiy munosabatlarga tayyorlasj jarayoni

100. Nechanchi asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi fanlararo bog'lanuvchi ilmiy sohaga aylanadi?

- A) XX
- B) VII
- C) XIX
- D) IX



"OILA VA IJTIMOY PEDAGOGIKA FANINING O'QUV DASTURI" FANIDAN GLOSSARIY

- Aqliy tarbiya** – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Axloq (lot. "moralis" – xulq-atvor)** – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.
- Axloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.
- Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini bolalar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Baho** – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.
- Bashoratlash** – bo'lajak mashg'ulotni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.
- Bilim** – bolaning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
- Bilim olish** – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.
- Bilish** – ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.
- Bolalar jamoasi** – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan bolalar birlashmasi, guruhi.
- Vatanparvarlik (lot. "patriotes" – vatandosh, "patris" – vatan, yurt)** – shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.
- Verbal** – bilim (ma'lumot, axborot) larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.
- Didaktik tashxis maqsadi** – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunon. “systema” – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayonining yaxlit holatini belgilash. ajratib ko’rsatish.

Didaktik o’yin – o’rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo’lgan qiziqishi va faollik darajasini rag’batlantiruvchi o’quv faoliyati turi.

Didaktika (Ta’lim nazariyasi) – (yunon. “didaktikos” – o’rgatuvchi, “didasko” – o’rganuvchi) – ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va bola faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va h.k. muammolar) ni o’rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lot. “principium” – har qanday nazariyaning asosiy, boshlang’ich, dastlabki holati) – ta’limni tashkil etishga qo’yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo’lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Jamoa (lot. “kollektivus” – yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) – bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an’analari – jamoa a’zolari tomonidan birdek qo’llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jismoniy tarbiya – bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Idrok – aniq maqsadga yo’naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunon. “adapto” – moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiy muhit – shaxsni o’rab turgan, uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta’sir o’tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, faoliyatlar va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriy.

Ijtimoiy hayot – keng va tor ma’nolarida qo’llaniladi. Keng ma’nodagi ijtimoiy hayot – yaxlit bir tizim hisoblanib, ijtimoiy hayot voqeligi sifatida insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar tizimiga aytiladi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma’nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi. Tor ma’nodagi ijtimoiy hayot – kishining bioijtimoiy mavjudot sifatida, o’z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jabhalariga aytiladi. Bularga oiladagi kundalik hayot, o’zining shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog’liq

bolmagan barcha faoliyatlar kiradi. Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot tizimining qismlari – ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at deb nomlanishini yuqorida aytib o'tdik. Bu unsurlarning har birini alohida-alohida ilm tarmoqlari o'rganib, ular shu ilmlarning tadqiqot ob'ektlari hisoblanadi.

Ijtimoiy-ahloqiy muhit – akmeshaxs shakllanishining asosiy omili bo'lib, akmeshaxs taraqqiyotida shaxsning shaxsiy imkoniyatlar bazasi bilan bir qatorda ta'sir etuvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – individning jamiyatda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalaydi. Bu omillarning ba'zilari insonning butun hayot davrida davom etadi. Ommaviy axborot vositalari esa uning hayotining ma'lum davrida ta'sir qiladi. Ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning faolligigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, ayni pallada atrof-muhitning unga bo'lgan ta'siri hamdir. Ayrim tadqiqotchilar, ijtimoiylashuvning ikki jihatini ko'rsatadilar: ijtimoiy moslashuv va interiorizatsiya. Birinchi jihati, individning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitga, ijtimoiy hayotining turli darajalaridagi tartib-qoidalarga, insonni o'rab turgan muhit sifatidagi mavjud ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlarga, jamiyatdagi o'zining mavqeyiga moslashuvini nazarda tutsa, ikkinchi jihati esa intertorizatsiya, ya'ni ijtimoiy qadriyatlar va tartib-qoidalarning inson ichki dunyosiga singib borishi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Iqtisodiy tarbiya – bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) ni tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim – bolalarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va h.k.) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Imidj (inglizcha image – timsol, shakl) – ommaviylashtirish, reklama qilish maqsadida ma'lum bir kishilarga emotsional psixologik ta'sir ko'rsatish asosida ularda aniq bir shaxs, hodisa, predmetning maqsadli yo'naltirilgan timsolini shakllantirishdir. Imidjning bir necha xususiyatlarining mohiyatiga e'tiborni qaratish mumkin: birinchidan, imidj – timsol, ya'ni kategoriya sifatida asosan siyosiy-psixologiyaga tegishli hodisadir; ikkinchidan, timsol maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish natijasida shakllanar ekan. kishilar va jamiyatga ta'sir

ko'rsatish jarayonining o'zini hech bir mubolag'asiz davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning ishtirokini talab etuvchi siyosiy jarayon sifatida ko'rsatish mumkin.

Individ (lot. "individium" – bo'linmas, yagona, alohida) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Inson – kishi, uning ongi, odob-ahloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehhtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bolsa, ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti. hayot gulidir. Insonning bebaholigi – uning aql-idrok va tafakkuriga egaligidadir. U aql-idrok sohibi bo'lgani uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida "yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi" mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha.

Korreksiya (yunon. "correctio" – tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifa va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – bolalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Madaniyat (lot. "cultura" – parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha pedagogika – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadigan fan.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha

davlat va nodavlat MTM va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materiali mohiyatini og'zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari- muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Metod (yunon. – tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li) – ta'lim yoki tarbiya maqsadiga erishish uchun qo'llaniladigan usul, yo'l.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan fan.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat – bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahorat-larini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadigan kurs.

Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida bola tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogika (yunon. “paidagogike”, “paidagogos” – bola yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Rag'batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati, faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻladigan miqdor va sifat oʻzgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik taʼlim metodi.

Tamoyil (yunon. “principium” – har qanday nazariyaning asosiy, boshlangʻich, dastlabki holati) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlangʻich qoidasi; boshqaruvchi gʻoya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yoʻnaltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qoʻyiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunon. “metodos” – yoʻl) – tarbiya maqsadiga erishish yoʻli; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuygʻulari va xulqiga taʼsir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini oʻrganadi.

Tarbiyachi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yoʻnalishlari boʻyicha maxsus maʼlumot, kasbiy tayyorgarlik va maʼnaviy-axloqiy sifatlarga ega hamda taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatuvchi shaxs.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda toʻlaqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Taʼlim – bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy koʻnikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini oʻstirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yoʻnaltirilgan jarayon.

Taʼlim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Taʼlim jarayoni – tarbiyachi va bolalar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon.

Taʼlim mazmuni – davlat taʼlim standartlari asosida belgilab berilgan hamda maʼlum sharoitda muayyan fanlar boʻyicha oʻzlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Taʼlim maqsadi (oʻqish, bilim olish maqsadi) – taʼlimning aniq yoʻnalishini belgilab beruvchi yetakchi gʻoya.

Taʼlim metodlari – taʼlim jarayonida qoʻllanilib, uning samarasini taʼminlovchi usullar majmui.

Ta'lim natijasi (mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha: o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Topshiriq – bolalarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish – o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish – o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'qish – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; bolalar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

O'rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

Usul – muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fenomen (yunonchadan *fainomenes* ~ *hodisa*) – akmeologik fenomenlar, birinchidan, murakkab tirik organizm bo'lgan insonni individ sifatida namoyon bo'lishi, avvalo, professional sifatidagi, arbob sifatidagi voqelikning turli-tuman tomonlariga insondagi paydo bo'lgan yadroviy munosabatlarning ko'rinishlari, ikkinchi jihatdan, uni jamiyatdagi bajaradigan rolga qarab, insonlarning kichik va katta birlashmalarida ko'rinadigan hayot faoliyatini yashash sharoitining konkret ko'rinishlari orqali chiqadigan hodisalar.

Hikoya – tarbiyachi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Ekologik madaniyat – bolaning ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong – tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik tarbiya – bolalarga dastlabki ekologik bilimlarni berish. ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim – bolaga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat – ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya – bolalarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 6-son. 70-modda.
5. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. T.: 2016. 29-dekabr.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2017. 16-yanvar. 11-son.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta‘minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
8. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Sharq nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. – T.: 1997. 45- bet.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. 114-bet.
10. Karimov I.A. Hushyorlikka dav‘at. – T.: O‘zbekiston, 1999. 16-bet.
11. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2000. 59-bet.
12. Bolangiz maktabga tayyormi? Metodik qo‘llanma. – T.: 2001.
13. Abdurauf Fitrat. Oila yoki uni boshqarish tartiblari. – T.: Ma‘naviyat, 2000.
14. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy prelagogika. Darslik. – T.: 2009.
15. Galaguzova M.A. Istoriya sotsialnoy pedagogiki. O‘quv qo‘llanma. – M.: Vldos. 2006.
16. Ilk qadam. Davlat dasturi. – T.: 2018.
17. Karimova O. Oilaning xuquqiy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2003.
18. Mavlonova R. Ijtimoiy prelagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Istiqloq, 2009.
19. Musurmonova O. Oila ma‘naviyati. – Milliy g‘urur”. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1999.
20. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma‘naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993.
21. Muxsiyeva A.Sh. Oila pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2017.
22. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.

23. Safarov O. va Maxkamov M. Oila ma'naviyati. Uslubiy qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2009.
24. Shoumarov G'. B. va boshqalar. Oila psixologiyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2008.
25. Sodiqova T. O'g'lim senga aytaman, qizlarga atalgan so'zlar. – T.: Sharq, 2005.
26. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Oila pedagogikasi. Darslik. . – T.: Aloqachi, 2007.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.stat.uz
6. www.soliq.uz.
7. www.pedagog.uz



MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1. Oila va ijtimoiy pedagogika faninig hozirgi kundagi ahamiyati.....	5
2. Sharq va g'arb mutafakkirlari manbaalarida oila pedagogikasi fanining rivojlanishi	11
3. Xorijda oila va ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanish tarixi.....	23
4. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida bolalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash yo'llari	31
5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida milliy qadriyatlar asosida shaxsni shakllantirish.....	52
6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida bolalarni milliy iftihor va milliy g'urur ruhida tarbiyalash.....	59
7. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismi. Ijtimoiy pedagogika funksiyalari. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.....	67
8. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy sifatleri ijtimoiy pedagogik faoliyat.....	73
9. Ijtimoiy pedagogika mezonlari va prinsiplari.....	82
10. Ijtimoiy pedagogik tashhis. Deviasiya va uning turlari.....	86
11. Ijtimoiylashuv omillari va vositalari. Bolaning sotsiumda rivojlanishi.....	91
12. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ijtimoiy pedagogiga qo'yilgan talablar.....	100
13. Ijtimoiy pedagog faoliyati mazmuni.....	109
14. Oila va MTT hamkorligida ijtimoiylashtirish.....	116
“Oila va ijtimoiy pedagogika” fanidan test topshiriqlari.....	125
Oila va ijtimoiy pedagogika” fanidan glossariy.....	141
Foydalanilgan adabiyotlar.....	149

